

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida
UO‘K:334.75:6.01(575.1)**

ABDULXAKIMOV SIROJIDDIN NURBOY O‘G‘LI

**KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00. 15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori,
akademik, professor N. Tuxliyev

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. KICHIK BIZNESDAGI INNOVATSION TAMOYILLAR VA TIZIMLI O‘ZGARISHLARNING NAZARIY-KONSEPTUAL JIHALARI.....	13
§1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasiga an’anaviy va innovatsion yondashuvlarning nazariy-uslubiy tahlili.....	13
§1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari.....	21
§1.3. Kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasini O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	32
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	43
II BOB. KICHIK BIZNES TARMOQ VA HUDUDY TARKIBINING TAKOMILLASHUVIDA INNOVATSION OMILLARNING ROLI.....	44
§2.1. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari.....	44
§2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tarkibiy siljishlar va hududiy o‘zgarishlar.....	56
§2.3. Kichik biznesdagi tarkibiy o‘zgarishlarning sohadagi innovatsion faollikka ta’siri.....	69
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	79
III BOB. O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI JADALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	83
§3.1. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini ekonometrik modellashtirish va uni rivojlantirishning istiqbollari.....	83
§3.2. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi va YIM o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish va uning istiqbollari.....	95
§3.3. O‘zbekistonda xususiy biznes va kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta’minlashni takomillashtirish yo‘llari.....	113
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	121
XULOSA.....	123
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	128

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyotning ahamiyati tobora kuchayib bormoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o'tishning izchil va barqaror omili sifatida kichik biznes alohida o'rin tutmoqda. "Turli baholarga ko'ra, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishidagi qo'shimcha o'sishning 75 dan 90 foizga qadar qismi aynan innovatsiyalardan foydalanish hisobiga ta'minlanmoqda. Buning ustiga, iqtisodiy inqirozga yuz tutgan mintaqalardagi ishlab chiqarishni jonlantirish innovatsion jarayonlarni faollashtirish hisobiga ro'y beradi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, innovatsion biznesning tashkil topishi va rivojlanishida kichik korxonalar ahamiyatli rol o'ynaydi. Yirik sanoat korxonalariga nisbatan davlatga soliq tushumi bo'yicha sezilarli darajada ortda qolsa ham, yangi texnologik ishlanmalarning rivojlanishi amalda kichik biznesning faol ishtirokisiz mumkin emas"¹. Shunga ko'ra, innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishidagi tendensiyalar va tarkibiy o'zgarishlarning maqsadga muvofiq yo'naltirilishini tartibga solish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda kichik innovatsion biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini e'tiborga olgan holda uning iqtisodiy salohiyatidan to'la va samarali foydalanish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada kichik biznes subyektlari innovatsion rivojlanish imkoniyatlari, innovatsion shaklda xo'jalik yuritish tizimi samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, kichik innovatsion biznes subyektlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, kichik biznes subyektlari tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish va innovatsion texnologiyalarni ayirboshlash muammolari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va barqaror rivojlanishni ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali

¹ Гусев А.К., Жеребцов В.И. Малый бизнес и инновации: основные проблемы и пути решения. – <https://cyberleninka.ru/article/n/malyy-biznes-i-innovatsii-osnovnye-problemy-i-puti-resheniya>

foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. "...Kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir. Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan"². O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi loyihasiga muvofiq "KBXTni rivojlantirishning maqsadi mamlakat aholisining umumiy daromadlaridagi tadbirkorlik ulushini 70 foizga yetkazish hisoblanadi". Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mamlakatda kichik biznes rivojlantirishda innovatsion omillardan foydalanishni yanada takomillashtirish, faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash asosida ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o'zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish yo'llarini asoslash, yirik va o'rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish, innovatsiyani joriy etishga mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o'tgan kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish, innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 22-

² Тadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga k'chirish – ustuvor vazifamizdir. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимиз тadbirkorlari билан очик мулоқот шаклида ўтказилган учрашувдаги нутқи. <https://president.uz/uz/lists/view/6561>

yanvardagi PF-5308-son “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2019-yil 14-maydagi PF-5718-son “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 3-apreldagi PF-5978-son “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”, 2019-yil 24-oktyabrdagi PQ-4498-son “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kichik biznes rivojlanishining mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri, innovatsion jarayonlarni kichik biznes subyektlari faoliyatiga tatbiq etish, kichik innovatsion biznesning iqtisodiy salohiyatini aniqlashga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar uzoq xorijlik S. Badal, A.S. Kritikos, R. Nallari, O.J. Ademola, I. Hazavey, R.Ye. Litan, T. Mikkiyvisz, F.V. Nyakudya, J. Valter, V. Dobes, J. Nevbert, N. Boso, M. Uddin kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

³ Nallari, R., et al. (2010). A Primer on Policies for Jobs. The World Bank.; Ademola, O.J. (2014). Working capital management and profitability of selected quoted food and beverages manufacturing firms in Nigeria. European Journal of Accounting Auditing and Finance Research, 2(3). 10-21.; Mickiewicz, T., Nyakudya, F.W., Theodorakopoulos, N. et al. Resource endowment and opportunity cost effects along the stages of entrepreneurship.

Yaqin xorij mamlakatlaridan kichik innovatsion biznesni tashkil etish, innovatsion biznes faoliyati samaradorligini baholash, innovatsion biznesni rivojlantirishning barqarorligini ta'minlash, davlat tomonidan kichik innovatsion biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash masalalari S.N.Yashin, Y.V. Zaxarova, Y.S.Soldatova, V.V.Krakovich, Y.N.Nesterenko, S.L.Parfenova, I.N.Vaveleva, N.S.Somenkova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan⁴.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Y.Abdullayev, G.K.Abduraxmonova, H.P.Abulqosimov, F.Karimov, M.R.Boltabayev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjayeva, U.V.G'afurov, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjayev, A.A.Qulmatov, S.Sh.To'rabekov, M.M.Muxammedov, N.K.Murodova, D.T.Yuldashev va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida kichik biznesni mamlakatimizda rivojlantirish xususiyatlari, uning iqtisodiyotimizda tutgan o'rni, kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish, sohada aholi bandligini ta'minlash, kichik biznesni moliyalashtirish amaliyoti, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga

Small Bus Econ 48, 953–976 (2017).; Franz Kellermanns, Jorge Walter, T. Russell Crook, Benedict Kemmerer & Vadake Narayanan (2016) The Resource-Based View in Entrepreneurship: A Content-Analytical Comparison of Researchers' and Entrepreneurs' Views, Journal of Small Business Management, 54:1, 26-48.; Dobes, V., Fresner, J., Krenn, C., Rinaldi, C., Cortesi, S., et al. Analysis and exploitation of resource efficiency potentials in industrial small and medium-sized enterprises – Experiences with the EDIT Value Tool in Central Europe. Journal of Cleaner Production. Volume 159, 15 August 2017, Pages 290-300; Rawhouser, H., Villanueva, J., Newbert, S.L. Strategies and Tools for Entrepreneurial Resource Access: A Cross-disciplinary Review and Typology. International Journal of Management Reviews. Apr 21, 2016; Boso, N., Danso, C., Leonidou, A., Uddin, M. Does financial resource slack drive sustainability expenditure in developing economy small and medium-sized enterprises? Journal of Business Research. Volume 80, November 2017, Pages 247256; Human Resource Strategies and Sustainability in Small Businesses by Christopher M. Rice Doctoral Study Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Business Administration Walden University December 2018.

⁴ Яшин С.Н., Амбацумян А.Э., Кульгина Е.Н. Некоторые подходы к оценке эффективности инновационных разработок промышленных предприятий Нижегородской области // Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 6-1. – с. 363-366; Захарова Ю.В., Купцов А.В., Кульгина Е.Н. Анализ реализации инновационной деятельности в Нижегородской области // Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 8. – с. 188-190; Яшин С.Н., Солдатова Ю.С. Оценка устойчивости инновационного развития предприятий // Финансы и кредит. – 2012. – № 32. – с. 9-17.; Кракович В.В. Интегрированное управление ресурсами малого инновационного предприятия в условиях экономической неопределенности: Диссертация кандидата экон. наук. – Санкт-Петербург, 2018.; Нестеренко Ю.Н. Развитие малых инновационных предприятий промышленности России: Автореферат диссертации д-ра экон. наук. – М.: 2008.; Парфенова С.Л., Грибовский А.В. Подход к оценке эффективности государственной поддержки малых инновационных предприятий в России // Наука. Инновации. Образование, 2016. – № 4.; Савельева И.Н. Развитие малого инновационного предпринимательства в промышленности: Автореферат диссертации кандидата экон. наук. – Екатеринбург, 2011.; Соменкова Н.С. Совершенствование методики оценки эффективности инновационного развития предприятия // Российское предпринимательство, 2017. – № 6. – дои: 10.18334/рп.18.6.37657.

oshirilgan⁵. Shu bilan birgalikda, innovatsiyalar jarayonida kichik biznesni rivojlantirish, kichik innovatsion biznes faoliyatini tashkil etish, innovatsion biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dastaklariga bag‘ishlangan nazariy-amaliy masalalar kompleks tarzda, tizimli, maxsus obykti sifatida tahlil etilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishidagi tendensiyalarni aniqlash, kichik innovatsion biznes faoliyati samaradorligini baholash, davlat tomonidan kichik biznesni innovatsion rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar va ularni amalga oshirish yo‘nalishlarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Muammoning dolzarbligi, iqtisodiy adabiyotda yetarlicha o‘rganilmaganligi, kutilayotgan ilmiy natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyatga egaligi ushbu mavzuni tadqiqot obekti sifatida tanlashga asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashning konseptual asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlantirish zarurligini asoslash va nazariy tadqiq etish;

⁵ Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тadbirkorлик асослари. – Т.: Мехнат, 2010. — 349 б.; Болтабаев М.Р., Қосимова М.С., Эргашходжаева Ш.Ж., Ғойибназаров Б.К., Самадов А.Н., Ходжаев Р. Кичик бизнес ва тadbirkorлик: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2010. – 275 б.; Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.; Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истикболлари // Иқтисод ва молия. 2016, №2. 33-38-б.; Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.; Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Дис. ... и.ф.д. – Т. 2016; Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Дис ... и.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2019.

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanish tamoyillari, xususiyatlari va amal qilish mexanizmini tahlil etish;

kichik biznes va va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasini qiyosiy tahlil qilish va undan O‘zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini asoslash;

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanish holati, tendensiyalari va tarkibiy o‘zgarishlarini tahlil etish;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligining milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini baholash;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish miqdoriga ta’sirini uzoq muddatli davr uchun prognozlashtirish.

Tadqiqotning obekti sifatida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududdagi kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga mas’ul idoralar tomonidan faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo‘lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish nuqtalaridan kelib chiqib, ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o‘zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish yo‘llari asoslangan;

yirik va o‘rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi

punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish taklifi asoslangan;

innovatsiyani joriy etishga mas'ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o'tgan kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalarga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'sirining ko'p omilli korrelyatsion modellari asosida soha rivojlanishining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasining mohiyati an'anaviy va innovatsion rivojlanish nuqtayi nazaridan ochib berilgan;

kichik innovatsion tadbirkorlik mohiyati tavsiflangan, bozor munosabatlari rivojlanishi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga joriy etish zaruriyati asoslangan;

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining holati, rivojlanishining hududiy va tarmoq xususiyatlari bilan bog'liq tarkibiy siljishlari aniqlangan;

kichik biznes va va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasidan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari asoslangan;

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini oshirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash borasida amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada keltirilgan xulosa va tavsiyalarining ishonchliligi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi amaliyotida mualliflik taklif va tavsiyalarining joriy qilinganligi, qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va

mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy ma’lumotlaridan, xalqaro moliya institutlarining rasmiy ma’lumotlari va hisobotlaridan foydalanilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsion faollikni oshirishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda va kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash tizimida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga tatbiq etilishi, palata tomonidan kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini, jumladan, kichik biznes subyektlari innovatsion faolligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan davlatning maqsadli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlantirish yo‘nalishlari borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

hududdagi kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga mas’ul idoralar tomonidan faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo‘lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash asosida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish nuqtalaridan kelib chiqib, ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o‘zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida

mamlakatda o‘zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish orqali innovatsion rivojlanishni ta’minlash imkoni yaratilgan;

yirik va o‘rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish orqali mamlakatda innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatning olis aholi punktlarida innovatsion ishlab chiqarishni shakllantirish hamda kichik biznes korxonalari faoliyatini jadal rivojlantirish imkoni yaratilgan;

innovatsiyani joriy etishga mas’ul idora va tashkilotlar tomonidan xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o‘tgan kichik ko‘lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta’minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PQ-307-son qaroriga 1-ilova “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2022–2023-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida xorij mamlakatlarida keng amaliy sinovdan o‘tgan kichik ko‘lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalarni aniq innovatsion loyihalar asosida kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta’minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali innovatsion rivojlanishni ta’minlash imkoni yaratilgan;

O‘zbekistonda innovatsion jarayonlarning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta’sirining ko‘p omilli korrelyatsion modellari asosida soha rivojlanishining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan mamlakatdagi kichik innovatsion korxonalarini rivojlantirish bo‘yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2023-yil 27-martdagi 11/03-15-3296-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakat hududlari bo‘yicha kichik innovatsion korxonalar faoliyati asosiy ko‘rsatkichlarini uzoq muddatli istiqbolda o‘zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 137 betni tashkil etadi.

I BOB. KICHIK BIZNESDAGI INNOVATSION TAMOYILLAR VA TIZIMLI O'ZGARISHLARNING NAZARIY-KONSEPTUAL JIHATLARI

1.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasiga an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning nazariy-uslubiy tahlili

Jahonda iqtisodiyotni innovatsion negizga ko'chirish va undagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan islohotlarning samaradorligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati katta. Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, o'rta mulkdorlar tabaqasini shakllantirish, aholi bandligini ta'minlash, bozorni turli tuman tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, sifat mezonlarini ta'minlaydigan raqobat muhitini kengaytirish, pirovardida ularning daromadlari va yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va soha taraqqiyotidagi mavjud muammolarni aniqlash, sohaning rivojlanish qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganish talab etiladi. Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va tadbirkorlik to'g'risida bildirilgan fikrlar umumiy holda tahlil etiladigan bo'lsa, biznes va tadbirkorlik tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'langan, turli xildagi ijtimoiy-iqtisodiy asoslar va tamoyillarga ega bo'lgan iqtisodiy kategoriya hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "tadbirkorlik" iqtisodiy kategoriya sifatida muomalaga ilk bor 18-asrda Irlandiya va Fransiya olimi Richard Kantilon tomonidan kiritilgan va faol iqtisodiy xulq-atvor sifatida tushuntirilib, uning asosiy xususiyati risk bilan bog'liq, deyiladi⁶.

Klassik iqtisodiy maktab vakillaridan A.Smit fikriga ko'ra, "tadbirkor – bu qandaydir tijorat g'oyasini amalga oshirish va foyda olish maqsadidagi iqtisodiy tavakkalchidir, uning o'zi ishlab chiqarishni rejalashtiradi, tashkil qiladi va

⁶ <https://spravochnick.ru/predprinim...>

natijalarni o‘zi tasarruf etadi”⁷. Mazkur holat o‘z navbatida klassik maktab vakillari tomonidan ilgari surilgan raqobat erkinligi holati bozor iqtisodiyotining muhim sharti ekanligidan dalolat beradi. Yana bir iqtisodchi olim J.B.Sey fikricha, “tadbirkor ishlab chiqarish doirasida boshqa insonlar faoliyatini tashkil etadi”⁸. Ushbu berilgan ta’rifning mohiyatiga nazar soladigan bo‘lsak, olim o‘z tadqiqotida tadbirkorlik faoliyati mohiyatini tushuntirishda ishlab chiqarish omillarini oqilona birlashtirish va ularni kombinatsiyalashtirish evaziga foydani maksimallashtirish mumkinligiga e’tiborni qaratadi.

Keyinchalik J.B.Sey va A.Marshal tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikning nazariy asoslarini asoslash borasida olib borilgan tadqiqotlari natijalari Y.Shumpeter tomonidan kengaytirildi va u G‘arb iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tizimdagi dinamik va rivojlantiruvchi kuch sifatida qaraldi. Unga ko‘ra, “tadbirkorlik – yaratuvchanlik, yangilikni izlash demakdir”⁹. Boshqacha qilib aytganda, tadbirkorlik faoliyati asosiga u insonlardagi novatorlikni, innovatsion g‘oyalarni qo‘yadi.

Y.Shumpeter innovatsiyani tadbirkorlik ruhi bilan rag‘batlantirilgan ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasi sifatida ko‘rib chiqadi. Shunday qilib, ishlab chiqarishning to‘rtinchi omili – tadbirkorlik qobiliyati ajratiladi. Ushbu konsepsiyada innovatsiyalarga iqtisodiy tizim rivojiga ta’sir etuvchi omil sifatida qarash zarurligi asoslanadi¹⁰.

R.Xizrich tadbirkorlikni innovatsiya tushunchasi bilan bog‘lagan holda: “tadbirkorlik – qiymatga ega bo‘lgan yangi narsani yaratish jarayoni bo‘lib, tadbirkor esa bunda tavakkalchilikni zimmasiga oluvchi kishidir”, – deb talqin qilgan¹¹.

⁷ Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов (Книга1-III). - М.:”Наука”,192. -С. 174, 176.

⁸Сэй Ж.Б. Трактат и политической экономии. – М.: Экономика. 1980. –С. 17.

⁹ Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс.1985. – С.178-180.

¹⁰ Шпалтаков В.П. Шумпетер о проблемах инновационного развития // Инновационная экономика и общество. 2017. № 2. С. 25–34.

¹¹ Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство//Вып.1. – М.: 1991 Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992

P.Druker “tadbirkorlik innovatsiyani boshqarish jarayoni bo‘lib, tadbirkor esa har bir imkoniyatdan maksimal foydalanuvchi shaxs”, – deb tushuntiradi. U innovatsiyalarning aynan iqtisodiy asosini ta’kidlab, “tadbirkorlar innovatsiya yordamida yangi xizmatlar yoki biznes turini amalga oshiradi”, - degan g‘oyani ilgari suradi¹².

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik daromad olish maqsadida muayyan tavakkalchilik sharoitida amalga oshiriladigan, yangi mahsulotlarni yaratish yoki mavjud mahsulotlarni takomillashtirishga hamda innovatsiyalarni joriy etishga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida qaraladi.

Demak, “tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritib berishga xizmat qiluvchi iqtisodiy qarashlar evolyusiyasi tahlili ushbu qarashlarni quyidagi ikki guruhga ajratish imkonini beradi. Birinchi guruh – tadbirkorlik subyekt tasarrufida mavjud resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan klassik tadbirkorlik (an’anaviy, eskirib qolgan). Tadbirkorlikning aynan klassik modelida ishlab chiqarishning o‘shish konsepsiyasi shakllantiriladi, uning amaliyotga tatbiq etilishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Ikkinchi guruh – rivojlanishning yangi yo‘llarini nazarda tutuvchi, innovatsiyalar yoki o‘shish konsepsiyasi haqida fikr yuritishga imkon beruvchi innovatsion tadbirkorlikdir. Innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyaga asoslangan, shuning uchun bunday faoliyat natijasi yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo‘lishi mumkin.

Kichik biznesning nazariy asoslarini rivojlanish evolyutsiyasi davrida iqtisodiy adabiyotlarda “tadbirkor”, “biznesmen”, “kichik biznes”, “kichik tadbirkorlik”, “kichik o‘rta va yirik korxonalar” kabi iqtisodiy kategoriyalar talqin etila boshlandi. Kichik biznesning nazariy asoslari rivojlanib borgani sari iqtisodiy adabiyotlarda olimlar tomonidan mazkur kategoriyaga berilgan ta’riflar va nazariyalar ham bir-birini inkor etuvchi va o‘zaro bog‘liqlikdagi xususiyatlarga ega bo‘lib bordi.

¹² Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992.

Qator mualliflar¹³ “kichik biznes”, «kichik biznes va xususiy tadbirkorlik», “kichik tadbirkorlik” va «kichik korxonalar» kabi atamalardan ma’nodosh tushunchalar sifatida foydalanishadi. Chunki “biznes” tushunchaning ingliz tilidagi versiyasi bo‘lib, daromad olish maqsadidagi faoliyatni anglatadi. “Tadbirkorlik” esa huddi shunday talqinga ega rus tilidagi tushunchadir. Biznes deganda xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun o‘zaro manfaatlar olish maqsadida tovarlar ishlab chiqarish, sotib olish yoki xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat tushuniladi¹⁴. Fikrimizcha, ushbu ta’rif tadbirkorlikning asosiy vazifasini, ya’ni foyda olish maqsadida tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish orqali aholi ehtiyojlarini qondirishni o‘zida aks ettiradi.

Kichik biznes – bu insonlarning tadbirkorlik faoliyati natijasida nafaqat daromad olishi, balki ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishning qonun yo‘li bilan man etilmagan, kichik korxonalar shaklida tashkil etilgan iqtisodiy xo‘jalik yuritishning unumli faoliyat turidir.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan qator ilmiy izlanishlarda innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish bilan bog‘liq ilmiy xulosalar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mazkur jarayonning nazariy-uslubiy jihatdan tadqiq etishda S.Jose va D.Mauricio ilmiy izlanishlari muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqot natijalari davomida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda texnologiyalarga ustuvorlik berish talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyatida texnologik jarayonni muvofiqlashtirishning moliyaviy mexanizmi samaradorligini oshirishda startaplar tizimidan foydalanish taklif etiladi¹⁵. A.Oosthuizen, J.Van Vuuren, M.Botha tadqiqotlarida kichik biznes va

¹³ Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning rivojlaniши: omillar, natijalar va istiqbollar. Monografiya. –T.: «Ma’naviyat», 2017. 7-б.; Смирнова И.Ю. Теоретические подходы к трактовке малого бизнеса и малого предпринимательства // Экономика строительства и природопользования. 2017. № 2. С. 82–86.; Артемов А.В. Малый и средний бизнес: понятие, критерии, категории субъектов, место и роль в рыночном хозяйстве // Социально-политические науки. 2016. № 2. С. 44–49.

¹⁴ Артемов А.В. Малый и средний бизнес: понятие, критерии, категории субъектов, место и роль в рыночном хозяйстве // Социально-политические науки. 2016. № 2. С. 44–49.; Кох Л.В. Трансформация сущности предпринимательства // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. 2011. № 1. С. 44–51.

¹⁵ José Santisteban and David Mauricio. Critical success factors for technology-based startups. The Authors(s) 2020. Published by Inderscience Publishers Ltd. This is an Open Access Article distributed under the CC BY license. (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>)

xususiyl tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish boshqaruv tizimining o'zni muhim xarakter kasb etadi¹⁶. A.G.Kiryakov, V.A.Maksimov tadqiqotlarida zamonaviy ilm-fan yutuqlari innovatsion tadbirkorlik kichik biznesni rivojlantirishning yangi usuli sifatida muhokama qilinadi¹⁷. T.N. Kosheleva ilmiy izlanishlarida biznes sohasida innovatsion jarayonlarning o'zni iqtisodiy jihatdan baholanadi.

1.1.1-jadval.

Milliy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishiga ilmiy yondashuvlar transformatsiyasi¹⁸

Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning rivojlanishi	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishi
Tadbirkorlik iqtisodiy kategoriya bo'lib, iqtisodiy xulq-atvor, u tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat turidir. (Richard Kantilon)	Tadbirkorlik qiymatga ega bo'lgan yangi narsani yaratish jarayoni bo'lib, tadbirkor tavakkalchilikni zimmasiga oluvchidir. (R.Xizrich)
Tadbirkorlik foyda olish maqsadidagi iqtisodiy tavakkalchilikdir, ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkil qilish va natijalarini tasarruf etish jarayonidir. (Adam Smit)	Tadbirkorlik innovatsiyani boshqarish jarayoni, tadbirkor bor imkoniyatidan maksimal foydalanuvchi shaxs, ular innovatsiya yordamida yangi xizmatlar va biznes turini yaratadi. (P. Druker)
Tadbirkorlik ishlab chiqarish jarayonida boshqalar faoliyatini tashkil etishdir. (J.B.Sey)	Tadbirkorlik yaratuvchanlik, yangilikni izlash demakdir. Tadbirkorlik qobiliyati innovatsiya iqtisodiy tizim rivojiga ta'sir etuvchi muhim omil. (Y. Shumpeter)
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish shart-sharoitlari va omillari orasida innovatsion faoliyatga ustuvorlik berish. (S.Jose, D.Maurisio)	Zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion tadbirkorlik – kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning yangi usuli. (A.G.Kiryakov, V.A.Maksimov)
Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishida boshqaruv tizimining o'zni muhim ahamiyatga ega. (A.Oosthuizen, J.Van Vuuren, M.Botha)	Tadbirkorlikni rivojlantirishning axborot oqimi va innovatsion asoslari o'rtasida integral aloqadorlik mavjud. (E.A.Gasanov)
Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning tarmoq jihatidan ixtisoslashuv jarayonlari samaradorligini oshirish innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq. (Q.B.Sharipov, A.B. Qurbonov, I.A.Bakiyeva)	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyatining kelajakdagi innovatsion modellarini shakllantirish strategiyasiga ustivorlik berish. (T.T.Jo'raev, R.A.Kalandarov)
Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlarida ish bilan bandlikning zamonaviy innovatsion shakllarini rivojlantirish. (G.K.Abduraxmonova)	Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda biznes muhit, marketing va klasterlarning ahamiyati (Sh.Sh.Boltayev, A.A.Raxmatov)
Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik faoliyatini innovatsion boshqaruv tamoyillarida asosiy ustuvorlik mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni rivojlantirishning strategik imkoniyatlari va kengaytirish rejasi bilan bog'liq. (A.Abdullayev, Q.Muftaydinov, X.Aybeshov)	Tadbirkorlik xo'jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorlikning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog'liq holda korxonaga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o'zaro maqbul kombinatsiyasini qo'llash yordamida yuqori daromadga ega bo'lish maqsadida tashabbusli innovatsion faoliyat turidir. (Muallif ta'rifi)

¹⁶ Adele Oosthuizen, Jurie Van Vuuren, Melodi Botha. Compliance or management: The benefits that small business owners gain from frequently sourcing accounting services. The Southern African Journal of Entrepreneurship and Small Business Management. Vol 12, No 1 DOI: <https://doi.org/10.4102/sajesbm.v12i1.330>

¹⁷ Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.

¹⁸ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Makroiqtisodiy darajada innovatsion muhitni shakllantirishda kichik innovatsion korxonalar innovatsiyalarni tashkil etish va innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etiladi¹⁹. E.A.Gasanov innovatsion tadbirkorlikni shakllantirishning konseptual jihatlariga alohida e'tibor qaratib, tadbirkorlikni rivojlantirishning axborot oqimi va innovatsion asoslari o'rtasida integral aloqadorlikning mavjud ekanligi asoslab beradi²⁰.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan A.Abdullayev, Q.Muftaydinov, X.Aybeshovlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanishining boshqaruv tamoyillariga e'tibor qaratadilar. Boshqaruv tamoyillarida asosiy ustuvorlik innovatsion jarayonlarga asoslangan mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni takomillashtirishning strategik imkoniyatlari va mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish rejasiga bog'liqligi qayd etiladi²¹. Sh.D.Ergashxodjaeva tadqiqotlarida tadbirkorlik faoliyatida innovatsion marketingning o'ziga xos xususiyatlari, asosiy rivojlanish bosqichlari, shakllari, turlari hamda uni korxonalar faoliyatiga tatbiq etish yo'llari va usullariga asosiy e'tibor qaratadi²². Q.B.Sharipov ilmiy tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq jihatidan ixtisoslashuv jarayonlarining samaradorligini oshirish innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishni talab etishini ta'kidlaydi²³. M.P.Eshov ilmiy tadqiqotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi va rag'batlantirish yo'llari innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida o'rganadi²⁴. T.T.Jo'rayev, R.A.Kalandarov tadqiqotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi

¹⁹ Кошелева Т.Н. Стратегическое развитие инновационных венчурных предприятий. СПб.: ГУАП, 2009. 236 с.

²⁰ Гасанов Э.А. Инновационный вектор развития информационной экономики // Инновации. 2014. № 5. С. 10–14

²¹ Абдуллаев А, Муфтайдinov Қ, Айбешов Х. Кичик бизнесни бошқариш. Дарслик. –Т., «Молия» нашриёти, 2003 йил. 192 б .

²² Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Дарслик.–Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. –178 бет.

²³ Шарипов Қ.Б. Кичик тadbirkorlik фаолиятида тarmoқ бўйича ихтисослашув жараёнларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: 2020. 61 б.

²⁴ Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истикболлари. Монография.Т, 2017. 80 б.

modellarini shakllantirishni strategik jarayonlariga ustuvorlik beriladi²⁵. Sh.Sh.Boltayev, A.A.Raxmatov ilmiy tadqiqotlarida tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning obyektiv zaruriyati, tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda qulay biznes muhiti, marketing va klsterlarning o‘rni va ahamiyatini yoritib beradi²⁶. O.A.Aripov kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanishini hududiy miqyosdan kelib chiqqan holda yaxshilashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni qo‘llash zaruriyatini qayd etadi²⁷.

Tadqiqotchi Sh.E.Sindarov innovatsion tadbirkorlikning mohiyatini “...texnik-texnologik yangiliklarni yaratish va ulardan tijorat maqsadlarida foydalanish jarayoni” sifatida talqin etadi. Uning fikricha, “...odatda, tadbirkorlik faoliyati asosida mahsulotlar ishlab chiqish yoki xizmatlar ko‘rsatish sohasida yangi ehtiyojlarni qondirish, yangi bozorlar yaratish imkonini beruvchi yangiliklarni joriy etish yotadi. Innovatsiyalar tadbirkorlikning o‘ziga xos dastagi sifatida o‘z-o‘zidan emas, balki tadbirkorlik turlarining uyushgan holda yangiliklarni qidirish, yangiliklarga maqsadli intilishga yo‘naltirilgan faoliyatlari” sifatida namoyon bo‘ladi²⁸.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqot izlanishlarining asosiy xususiyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayonlarini o‘zida aks ettiradi. Tadqiqotlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish jarayoni bozor omillari bilan bog‘liqligi qayd etilgan. Natijaviy jarayon sifatida tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishning bozor faoliyati tadqiq etilmagan.

Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy kategoriya bo‘lib “xo‘jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog‘liq

²⁵ Жўраев Т.Т, Каландаров Р.А. Кичик бизнес ва тadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyotning real sektorini innovatsion taraqqiyotini ta'minlash. Ilmий-ommaobod risola.- T., 2019 йил., 52 б

²⁶ Болтаев Ш.Ш, Рахматов А.А. Тadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning айрим жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил

²⁷ Арипов О.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni rivojlantirish ҳамда ишбилармонлик муҳитини яратиш. “Иқтисодий ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил

²⁸ Синдаров Ш.Э. Экономический механизм использования инновационных процессов в предпринимательской деятельности Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Т.: 2010. С. 7.

holda korxonada faoliyatiga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o‘zaro maqbul kombinatsiyasini qo‘llash yordamida yuqori daromadga ega bo‘lishga qaratilgan tashabbusli, innovatsion faoliyat turidir”.

Tadqiqotchi A.Ch.Boboyevning fikricha, kichik biznes, kichik tadbirkorlikka nisbatan keng ma‘noga ega... Shakllanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik korxonada tadbirkorlik faoliyatining bir shakli sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Bunday tadbirkorlik korxonalari hajman kichik bo‘lib, unda faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarish xodimlari va ularning ishlab chiqarish daromadlari ham cheklanganligi bilan farqlanadi²⁹. Uning fikricha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni belgilashda asosiy mezon xodimlar soni va mahsulot hajmi ekanligini payqash qiyin emas.

G.K.Abduraxmonova tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida munosib ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini keng joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, aholining mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lmagan toifalari – ayollar, ayniqsa, yoshlarni ish bilan barqaror ta‘minlash masalalariga asosiy e‘tibor qaratilgan³⁰. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim vazifalaridan biri ham aholi bandligini ta‘minlashdan iborat.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugun milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga kirib borgan ulkan voqelikdir. Shu jumladan, A.B.Qurbonov va I.A.Bakiyevalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida rivojlanishi masalalariga bag‘ishlagan³¹.

²⁹ Бобоев А.Ч. Тadbirkorlik faoliyati rivojlantirishning nazariy jihatlari va ustuvor iynalishlari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi darajasi oliy uchun takdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.:2012, 7-бет.

³⁰ Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат таъминлаши асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasi oliy uchun takdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2016.

³¹ Курбанов А.Б. Агротранспорт мажмуида кичик тadbirkorlikni rivojlantirish iynalishlari. Iqtisodiyot fanlari nomzodi darajasi oliy uchun takdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2010., Бакиева И.А. Развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в легкой промышленности Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – T.: 2012.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish xususiyatlari

Kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha xalqaro kengash ma'lumotlariga ko'ra, jahonda barcha korxonalarining 90 foizi mikro, kichik va o'rta korxonalar sirasiga kiradi. Ularning hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 50 foizi to'g'ri keladi va mehnatga layoqatli aholining 70 foizi ushbu sektorda band hisoblanadi³². O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion negizga ko'chirish tadbirkorlik faoliyatining yangi shakl va turlarini (xususan, innovatsion) rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Innovatsion biznes ish jarayonlari sifati va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, yangi iqtisodiy sohalarning rivojlanishi, korxonalar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishi kutilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, ilm-fan innovatsiyalarni yaratish yo'lidagi muhim vositadir. Biroq innovatsiyalarni tijoratlashtirish asosan biznes ishtirokida sodir bo'ladi. Shunday qilib, ilm-fan va biznesning o'zaro ta'siri innovatsion jarayonni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish kichik biznesning rivojlanishidagi ikki jihat bilan bevosita bog'liq. Birinchi jihat kichik biznesning bozor iqtisodiyoti sharoitida bajaradigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi jihati kichik biznes subyektlariga xos bo'lgan kamchiliklar hamda muayyan mamlakatda ushbu kamchiliklar tufayli uning rivojlanishi sust borayotganligi bilan bog'liq.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyatini u bajaradigan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar orqali ochib berish mumkin. Ushbu vazifalarni umumiy va xususiy vazifalarga ajratish lozim. Umumiy vazifalar tadbirkorlik subyektiining innovatsion maqsadlarini aks ettiradi. Xususiy vazifalar esa vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradigan, innovatsion faoliyat qatnashchilarining maqsadlaridan

³² Поддержка МСП в контексте COVID-19 [Электрон ресурс] // Счетная палата Российской Федерации. – Режим доступа: <https://ach.gov.ru/upload/pdf/Covid-19-SME.pdf>

ozmi-ko'pmi farq qiladi. A.Smitning ta'kidlashicha: "Biz ovqatlanayotgan paytda qassob, oshpaz yoki nonvoyning saxiyiligiga ishonmaymiz, biz ular xususiy manfaatlarini amalga oshirishga harakat qilishlariga ishonamiz, ular o'z manfaatlarini orqasidan quvib va "ko'rinmas qo'l" nazorati ostida o'zlarning xayollariga kelmagan natijalarga erishadilar"³³. Bu shuni anglatadiki, tadbirkor nafaqat boyishga qaratilgan individual vazifalarni, balki yashirin tabiatga ega, ijtimoiy xarakterdagi funksiyalarni ham bajaradi. Shuningdek, raqobatda o'zib ketish uchun maqsadga innovatsion yondashadi. Bu esa bizga tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy vazifalari tarkibidagi individual vazifalar bilan birga, ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan vazifalarni ajratishga imkon beradi.

Kichik biznesni iqtisodiy erkinlik omili sifatidagi asosiy vazifasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Kichik biznesning rivojlanishi bir tomondan insonga yollanma ishchi yoki mustaqil tadbirkor bo'lishni tanlash imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan kichik biznes subyekting faoliyati yirik korporatsiyalar faoliyatiga nisbatan ko'proq erkin bozor qonuniyatlariga bo'ysunadi³⁴. Ushbu vazifani bajaruvchi kichik biznes subyektlari yaratilgan innovatsion mahsulotni ommalashtirishga xizmat qiladi.

Kichik biznesning ko'plab vazifalari qatorida uning innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishga moyilligini alohida ko'rsatish mumkin. Ma'lumki, innovatsiya – faoliyatda yangi texnologiya, mahsulot va xizmat turlari, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish va boshqaruv ko'rinishidagi yangiliklarning qo'llanilishini anglatadi. Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish quyidagi omillar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Birinchidan, kichik biznesda iqtisodiy faoliyat ko'lamining ixchamligi unda innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishning nisbatan qulayligi va kam xarajat talab etishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, kichik biznes korxonalarini tashkiliy va boshqaruv tuzilmasining soddaligi innovatsiyalarni joriy etish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish jarayonlarining

³³ Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. М., 1962. с. 276.

³⁴ Брицьева М. Малое предпринимательство как экономическая категория. // Экономика и общество. 1999, №8

nisbatan qisqaligini ta'minlaydi. Uchinchidan, mazkur sohada mulkchilik yakka shakllarining ustuvorligi innovatsiyalarni joriy etishdan manfaatdorlikning kuchli bo'lishiga olib keladi. Masalan, ishlovchilar soni 1000 kishidan kam bo'lgan AQSh kompaniyalarida 10 ming kishi band bo'lgan firmalarga qaraganda yirik texnik yangiliklar 17 marta ko'proq ishlab chiqiladi. AQSh kichik innovatsion firmalarida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga xarajatlarning samaradorligi yirik korporatsiyalarga nisbatan 4 baravar yuqori. Bundan tashqari, kichik innovatsion biznes 1 nafar ishchiga to'g'ri keluvchi innovatsiyani yirik biznesga nisbatan 2,5 baravar ko'proq yaratib, bir yil muddatga tezroq amalga oshiradi. Ayni paytda buning uchun mablag'larni 75 foizga kamroq sarflaydi³⁵.

Iqtisodiy adabiyotlarda XX asrning 80-yillaridan boshlab kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion usulda rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarga ustuvorlik berildi. Natijada "kichik innovatsion tadbirkorlik" tushunchasi iqtisodiy adabiyotga kirib keldi. Lekin, hali hanuz ushbu iqtisodiy atamaga yagona, umum qabul qilingan ta'rif ishlab chiqilmagan. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, "kichik innovatsion tadbirkorlik" faoliyatining "kichik biznes va xususiy tadbirkorlik"dan farqli, o'ziga xos muhim jihati uning innovatsion faoliyati yo'nalishi maqsadidan kelib chiqqan holda belgilangan vazifalari bilan tavsiflanadi. Bunda kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyati orqali tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida innovatsion yondashuvning mavjudligi, ishlab chiqarish jarayonlarida yangi texnika va texnologiyalarni tatbiq etishga intilishning yuqori darajada ekanligi, pirovard natijada ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga erishish, shu bilan bir qatorda tegishli soha va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion ishlanmalar, g'oyalar va mahsulotlar turining ko'payishiga erishiladi. Kichik innovatsion tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi o'z o'rnida kichik innovatsion hududlar, jumladan,

³⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // <http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017>

innovatsion shaharlar, innovatsion tumanlar, innovatsion tarmoqlar va innovatsion viloyatlarning shakllanishi uchun qulay bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib beradi³⁶.

“Kichik innovatsion tadbirkorlik” bilan bevosita bog‘liq yana bir tushuncha bu “kichik innovatsion korxonalar” atamasidir. “Kichik innovatsion korxonalar” atamasi iqtisodiyot va huquq sohasi tadqiqotchilari tomonidan tobora ko‘proq qo‘llanilayotganligi va turli me‘yoriy hujjatlarda tez-tez uchrayotganligiga qaramasdan, “kichik innovatsion korxonalar” to‘g‘risida yagona tasavvur mavjud emas. Masalan, ayrim tadqiqotlarda³⁷ kichik innovatsion korxonalar bozor iqtisodiyoti sohasida nisbatan yangi xo‘jalik yurituvchi subyektlar bo‘lib, mustaqilligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadigan, ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish hamda innovatsiyalarni ishlab chiqish, rivojlantirish va joriy etish asosida mamlakatning jahondagi nufuzini oshirish kabi vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan korxonalar sifatida talqin etiladi. Boshqa manbalarda esa “kichik innovatsion korxonalar” – bu kichik korxonaning qonun hujjatlarida belgilangan ta‘rifiga javob beradigan korxonalar bo‘lib, uning asosiy faoliyati innovatsiyalardir, deya ta‘kidlanadi. Yuqorida keltirilgan ta‘riflarda “kichik innovatsion korxonalar” deganda, birinchi navbatda, xususiy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan mustaqil firma tushuniladi. Biroq bir qator tadqiqotchilarning fikricha, “kichik innovatsion korxonalar” bu intellektual faoliyat natijalarini amaliyotga joriy etish maqsadida universitetlar tomonidan ta‘sis etiladigan xo‘jalik birliklaridir, kichik innovatsion korxonalarini tashkil etish oliy o‘quv yurti negizida amalga oshiriladi³⁸.

Shunday qilib, “kichik innovatsion korxonalar”ni bajaradigan faoliyat turiga ko‘ra guruhlash mumkin. Bir qator tadqiqotchilar³⁹, masalan, kichik innovatsion

³⁶ Малое инновационное предпринимательство: Кейсы Российских компаний / Д.С. Андреев и др. Под. ред. Д.С. Медовникова – М.: МАКС Пресс, 2013. – 196 с.

³⁷ Смагулова Ж.Б., Бисенова Р.А., Айдосова Б.Х. Роль малых инновационных предприятий в современной экономике // Современные наукоемкие технологии. 2014. № 12–2. С. 213–216.

³⁸ МИП своими руками: как идею превратить в бизнес // Сайт СПбГУ. URL: <https://spbu.ru/news-events/krupnym-planom/mip-svoimi-rukami-kakideyu-prevratit-v-biznes>; Смицких К.В. Теоретические основы образования и тенденции развития малых инновационных предприятий в Дальневосточном экономическом регионе // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. № 9. С. 693–697.

³⁹ <https://translate.academic.ru/малое%20инновационное%20предприятие/ru/xx/>

korxonalarining asosiy faoliyati innovatsiyalar ekanligini ta'kidlasa, boshqa tadqiqotchilarning fikricha, kichik innovatsion korxonalarining mohiyati innovatsiyalarni rivojlantirishda emas, balki ularni tijoratlashtirishdadir. Boshqa tomondan, agar ta'sischi korxonalarining huquqiy maqomi kichik innovatsion korxonalarini tavsiflash uchun asos sifatida tanlangan bo'lsa, "kichik innovatsion korxonalar" tushunchasining mazmunini ochib beruvchi ikkita yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchi yondashuvda, kichik innovatsion korxonalar xususiy mulk egalari tomonidan mustaqil kompaniyalar sifatida tomonidan taqdim etiladi; ikkinchi yondashuvda esa "kichik innovatsion korxonalar" deganda aralash mulkka ega firmalar tushuniladi (masalan, universitetlar ta'sischi sifatida ishtirok etishi mumkin).

Kichik innovatsion tadbirkorlikning shakllanishi va bu turdagi faoliyatni yo'lga qo'yish uchun uning tarkibiy tuzilishi, turlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish zarur. Kichik innovatsion tadbirkorlikni turli guruhlarga ajratishda avvalo uning quyidagi xususiyatlariga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq⁴⁰:

– subyekt faoliyat yuritayotgan tarmoqda u tomonidan qabul qilingan innovatsiyalarning qanday muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishi bo'yicha (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqalar);

– innovatsion tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan qo'yilgan maqsad va vazifalarning yo'nalishlari bo'yicha (ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, ilmiy-texnik, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etuvchi va boshqalar);

– iste'molni qondirish xarakteriga ko'ra (shaxsiy iste'molga yo'naltirilgan, ishlab chiqaruvchilarga xom ashyo ta'minoti uchun yo'naltirilgan, ilm-fanga yo'naltirilgan va boshqalar).

Kichik innovatsion tadbirkorlikning iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda, uni turli guruhlarga ajratishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

– innovatsiyalarning tarkibi bo'yicha (innovatsion mahsulot, innovatsion texnologiya, innovatsion boshqaruv, tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy yangilanish);

⁴⁰ Малое инновационное предпринимательство: Кейсы Российских компаний / Д.С. Андреюк и др. Под. ред. Д.С. Медовникова – М.: МАКС Пресс, 2013. – 196 с.; <https://moodle.kstu.ru/mod/page/view.php?id=57809>; Нестеров А.К. Инновационное предпринимательство // Энциклопедия Нестеровых - <http://odiplom.ru/lab/innovacionnoe-predprinimatelstvo.html>

– erishilgan natija yoki ishlanmalarning innovatsiyalashganlik darajasi (to‘liq yangi mahsulot, modernizatsiyalashtirilgan, yangi texnologik-konstruktorlik qarorlari bilan takomillashtirilgan);

– amalga oshiriladigan ishlarning tarkibiga ko‘ra (ilmiy-texnikaviy, ilmiy-ishlab chiqarish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etuvchi va maslahat beruvchi, ilmiy-texnik xizmatlar);

– innovatsiyalashganlik darajasiga ko‘ra (innovatsiyalarni ishlab chiqish jarayonida, innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish holatida, innovatsiyalarni o‘zlashtirgan va ularni ekspluatatsiya qilish);

– innovatsiyalarning yo‘naltirilganligi (tashqi bozorga – eksport yoki import – ichki bozorga);

– risklilik darajasi (yuqori; o‘rta; va quyi darajalardagi riskli holatlar)⁴¹.

Yuqorida keltirilgan tartibdagi kichik innovatsion biznesni turlariga ko‘ra guruhlashtirish quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

– ularning shakllanishi va rivojlanish yo‘nalishlarini ilmiy asoslash;

– moliyalashtirish manbalari va shakllarini aniqlash;

– tashkiliy-iqtisodiy tuzilishini takomillashtirish;

– konkurentlilik darajasini baholash, ya‘ni innovatsion kichik biznesni rejadagi va amaldagi holatlarini qiyosiy taqqoslash;


– to‘g‘ri va aniq hisobotlarni yuritish⁴².

Yuqorida keltirilgan vazifalarni hal etish orqali mamlakatda kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishdagi mavjud muammolarni tezda aniqlash, ularni hal etish va kichik innovatsion tadbirkorlikni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish imkoniyati vujudga keladi.

⁴¹ Малое инновационное предпринимательство: Кейсы Российских компаний / Д.С. Андреев и др. Под. ред. Д.С. Медовникова – М.: МАКС Пресс, 2013. – 196 с.; <https://moodle.kstu.ru/mod/page/view.php?id=57809>; Источник: Нестеров А.К. Инновационное предпринимательство // Энциклопедия Нестеровых - <http://odiplom.ru/lab/innovacionnoe-predprinimatelstvo.html>

⁴² Малое инновационное предпринимательство: Кейсы Российских компаний / Д.С. Андреев и др. Под. ред. Д.С. Медовникова – М.: МАКС Пресс, 2013. – 196 с.; <https://moodle.kstu.ru/mod/page/view.php?id=57809>; Источник: Нестеров А.К. Инновационное предпринимательство // Энциклопедия Нестеровых - <http://odiplom.ru/lab/innovacionnoe-predprinimatelstvo.html>; Счастливая Н.В. Малый инновационный бизнес в экономике высокоразвитых стран – <https://www.vestnik.osu.ru>; Кокин А.С., Суевалова М.А. Анализ развития инновационного малого бизнеса в рамках национальных инновационных систем зарубежных стран – <https://www.cyberleninka.ru>

Bozor munosabatlarining rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlar tizimida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi bosqichida innovatsion kichik biznesni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, XXI asrning boshlaridan bugunga qadar jahonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida aksariyat mamlakatlarda amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy siyosatda iqtisodiy subyektlarning, ayniqsa, kichik innovatsion biznes vakillarining innovatsion faoliyatini kengaytirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Pirovardida kichik innovatsion biznes zamonaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantiruvchi omil sifatida qarala boshlandi.



1.2.1-rasm. Oʻzaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish tartibi⁴³.

⁴³ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Kichik biznes rivojlanishida innovatsion jarayonlardan samarali foydalanish, birinchi navbatda, mahalliy boshqaruv organlarining mas'uliyati va bevosita ta'sir doirasidagi vazifalar qatoriga kiradi. Chunki, innovatsion salohiyatni aniqlash, amalga oshirish va rivojlantirish alohida yondashuvni taqozo etadi.

Shunga ko'ra, har bir hududdagi kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga mas'ul idoralar, masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari, mahalliy hokimiyatlar tomonidan faoliyatida innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi (1.2.1-rasm).

1.2.1-jadval

Korxonalar innovatsion salohiyatining xususiy ko'rsatkichlari⁴⁴

T/r	Ko'rsatkichlar nomi
1	Sarf-xarajatlar tavsifidagi ko'rsatkichlar
1.1	Korxonalar mahsuloti ilmiy sig'imini tavsiflovchi sotuv hajmidagi ITTKI mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi umumiy xarajatlar
1.2	Litsenziya, patentlar, nou-xauni sotib olish uchun umumlashgan xarajatlar
1.3	Innovatsion korxonalar xizmatlaridan foydalanganlik uchun sarf-xarajatlar
1.4	Tashabbusga oid ishlanmalarni rivojlantirish fondlaridan foydalanganlik uchun sarf-xarajatlar
2	Innovatsion jarayonning dinamik ko'rsatkichlari
2.1	TATning innovatsionlik ko'rsatkichi
2.2	Yangi mahsulotni ishlab chiqarish jarayonining davomiyligi
2.3	Yangi mahsulotni ishlab chiqarishga tayyorgarlikning davomiyligi
2.4	Yangi mahsulotni ishlab chiqarish siklining davomiyligi
3	Yangilanish ko'rsatkichlari
3.1	Yangi mahsulot (jarayon)larni ishlab chiqish yoki joriy etishlar soni
3.2	Mahsulot portfelini rivojlantirish dinamikasi ma'lumotlari (2, 3, 5 va 10 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning solishtirma salmog'i)
3.3	Takomillashtirilgan yangi texnologiyalarning soni
3.4	Eksport qilinayotgan innovatsion mahsulotlar hajmi
3.5	Taqdim etilayotgan yangi mahsulotlar hajmi
4	Tarkibiy tuzilmaga oid ko'rsatkichlar
4.1	Korxonalar, tajriba va sinov komplekslarining tadqiqot o'tkaziluvchi, ishlanmalar qilinuvchi va boshqa ilmiy-texnikaviy bo'limlari tarkibi va soni
4.2	Yangi texnologiyalarni yaratish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan birlashtirilgan korxonalar soni va professional xodimlari
4.3	ITTKI bilan shug'ullanuvchi xodimlarning soni va tarkibi
4.4	Korxonalar xodimlari kreativ takliflarining soni va yig'indisi

Bu o'rinda innovatsion salohiyati nisbatan yuqori bo'lgan kichik biznes korxonalarini aniqlash nisbiy ahamiyat kasb etadi. Chunki kichik biznes

⁴⁴ Кузьмина О.Е. Показатели, характеризующие инновационный потенциал предприятий // Вестник УрФУ. Серия экономика и управление. № 6/2014. - https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/55129/1/vestnik_2014_6_003.pdf

korxonalarida innovatsiyalarga moyillik yuqori bo'lsa-da, biroq mazkur yo'nalish bo'yicha yirik va o'rta korxonalar oldida ularning imkoniyati cheklangan hisoblanadi. Shunga ko'ra, fikrimizcha, innovatsion salohiyatni aniqlashda kichik biznes toifasi ichidagi korxonalargina nazarda tutiladi. Bunda har bir hudud va tarmoq bo'yicha eng yuqori innovatsion salohiyatga ega kichik korxonaning ko'rsatkichi 1 indeksga teng deb qabul qilinadi va unga nisbatan qolgan korxonalar darajasi baholanadi.

Innovatsion salohiyatni baholash ko'rsatkichlari tizimi bo'yicha ko'plab yondashuvlar mavjud. Masalan, O.E.Kuzmina tomonidan taklif etilgan ko'rsatkichlar tizimini quyidagi jadval orqali ifodalash mumkin (1.2.1-jadval).

Y.V.Zaxarova, O.I.Mityakova innovatsion salohiyatni baholash ko'rsatkichlari tizimiga ishlab chiqarish-texnikaviy resurslar, moliyaviy-boshqaruv resurslari, innovatsion faollik omillari, axborot bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari guruhlaridan iborat 19 ta ko'rsatkichni kiritadilar⁴⁵.

Fikrimizcha, innovatsion salohiyatni baholash ko'rsatkichlarini tanlashda har bir hudud va tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Kichik biznes korxonasi innovatsion salohiyatini baholashning umumiy tartibini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$IS_{K BK} = \frac{MBQ_{IS}}{EYuQ_{IS}},$$

bu yerda:

$IS_{K BK}$ – kichik biznes korxonasi innovatsion salohiyati darajasi;

$EYuQ_{IS}$ – tarmoq/hudud bo'yicha korxonalaridagi iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlarining eng yuqori baholangan qiymati;

MBQ_{IS} – muayyan korxonadagi iqtisodiy salohiyat ko'rsatkichlarining baholanayotgan qiymati.

Ushbu uslub orqali tanlab olingan 0,85 – 1,0 darajalari oralig'idagi innovatsion salohiyati nisbatan yuqori kichik biznes korxonalarini o'zaro hamkorlik

⁴⁵ Захарова Е.В., Митякова О.И. Оценка инновационного потенциала предприятия с учетом цифровизации экономики // Вопросы инновационной экономики. – 2020. – Том 10. – № 3. – С. 1653-1666. – doi: 10.18334/vines.10.3.110601.

qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhida ishtirok etishga jalb etish mumkin.

Navbatdagi jarayon hududdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash hisoblanadi.

“O'sish nuqtalari tushunchasini aniqlash bo'yicha qarashlarning turli-tumanligiga qaramay, mintaqalardagi o'sish nuqtalari bo'lib sanoatning yetakchi tarmoqlari hisoblanishi hozirga qadar ko'plab zamonaviy mualliflar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, T.O.Lasheva “iqtisodiy o'sish nuqtasi” tushunchasi orqali faollashtirish natijasida mintaqa iqtisodiyoti tarkibiy tuzilmasini diversifikatsiyalash va ratsionalizatsiyalashni ta'minlovchi, uning yangi elementlari paydo bo'lishi va rivojlanishini rag'batlantiruvchi, aholi turmush sifatini oshirishga ko'maklashuvchi iqtisodiy (xo'jalik yurituvchi) subyekt, tarmoq yoki faoliyat turini tushunishni taklif etadi⁴⁶.

Innovatsion yondashuvga asoslangan holda, mintaqa uchun “o'sish nuqtasi” bo'lib faoliyatning yangi turi, iqtisodiyot sektori (sanoat tarmog'i) yoki hududning muayyan salohiyati asosida yoki ishlab chiqarish omillarini samarali uyg'unlashtirish va foydalanish natijasida vujudga keluvchi innovatsion loyiha hisoblanib, u bir vaqtning o'zida ustuvor investitsion loyiha hisoblanadi hamda uning rivojlanishi mintaqa iqtisodiyoti tarkibiy tuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy tizimida ijobiy o'zgarishlarni ta'minlaydi⁴⁷.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy o'sish nuqtalaridan kelib chiqib, ilm-fan yutuqlariga, texnologiyalar transferi va ratsionalizatorlik takliflariga asoslangan holda o'zaro hamkorlik qiluvchi kichik innovatsion korxonalar guruhini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatda innovatsion rivojlanishni ta'minlash imkonini yaratadi.

⁴⁶ Лашева Т.О. Полюса экономического роста как приоритеты развития региона на стратегическую перспективу: дис. канд. экон. наук: 08.00.05 / Лашева Татьяна Олеговна. – СПб., 2008. – С.25.

⁴⁷ Ляшенко А. Ю. Определение точек экономического роста промышленного региона на примере Днепропетровской области

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, kichik innovatsion biznesning rivojlanishiga qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

birinchidan, jamiyatning ijtimoiy tarkibi – jamiyat tarkibida oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqarolarning ko'payishi, iste'molchilarning innovatsion mahsulotlarga bo'lgan talablarining ortishida o'z aksini topadi. Bunda jamiyat a'zolarining innovatsion jarayonlarga bo'lgan qiziqishi, intilishi va moyilligi yuqori darajada bo'ladi.

ikkinchidan, moslashuvchanlik qobiliyati – bu kichik biznes vakillarining innovatsion jarayonlarga tezda moslashishi va ularni amaliyotga tatbiq etishi davrining qisqa muddatlarda bo'lishini anglatadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi bilan uzviy bog'liq omil hisoblanadi.

uchinchidan, ilmiy-texnik ixtisoslashuv – ya'ni, kichik biznes vakillarining innovatsion jarayonlarning u yoki bu turiga chuqur ixtisoslashuvini anglatadi. Bunda oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etilgan texnoparklar, ilmiy tadqiqot institutlari va mamlakatda ilmiy tadqiqot-tajriba va konstruktorlik ishlanmalarining qaysi sohada yuqori darajada ishlab chiqilishi, innovatsion tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va kadrlarning mutaxassisliklaridan kelib chiqqan holda, kichik innovatsion biznes vakillarining ilmiy-texnik ixtisoslashuvi yo'nalishlari aniqlab beriladi. Ushbu omilni yuqoridagi ikki omilning mahsuli sifatida qarash mumkin.

to'rtinchidan, iqtisodiy munosabatlarning harakatlanish inersiyasi – bunda mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlar tizimida innovatsiyalarga bo'lgan ishonch va talabning yuqori darajada bo'lishi oqibatida kichik innovatsion biznesni iqtisodiyotni rivojlantiruvchi omilga aylanishi nazarda tutiladi.

Tahlillar ko'rsatishicha, kichik innovatsion biznesni rivojlantiruvchi har to'rttala omil o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ular mamlakatda innovatsion iqtisodiy munosabatlarni, jumladan, kichik innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi. Pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining innovatsion imkoniyatlari kuchayib yuqori darajadagi qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'tiladi. Bu

esa o‘z navbatida, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shishga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fikrimizcha, kichik innovatsion biznes – bu iqtisodiy kategoriya sifatida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha shaklda xo‘jalik faoliyati yuritayotgan, mustaqil hisoblangan, o‘ta moslashuvchan kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanib, ularning ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishdagi intilishining yuqoriligi va bu boradagi axborotlar bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan, innovatsiyalarni o‘zlashtiruvchi va ixtiro qiluvchi iqtisodiy subyektlari hisoblanadi.

1.3. Kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning xorij tajribasini

O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari

Innovatsion faoliyatni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o‘shish va milliy raqobatbardoshlikni ta‘minlashning asosiy omillaridan biridir. Ko‘pgina mamlakatlar hukumatlari innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirish yo‘liga o‘tkazish tadbirkorlik faoliyatining yangi shakl va turlarini (xususan, innovatsion) rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Innovatsion biznes ish jarayonlari sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omiliga aylanmoqda. Innovatsiyalarni joriy etish hisobiga ishlab chiqarish tannarxining pasayishi, yangi iqtisodiy sohalarning rivojlanishi, korxonalar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligining oshishi kuzatilmoqda. Shuni ta‘kidlash kerakki, ilm-fan innovatsiyalarni yaratish yo‘lidagi eng muhim elementdir. Biroq innovatsiyalarni tijoratlashtirish (innovatsiyalarni innovatsiyalar toifasiga o‘tkazish) asosan biznes ishtirokida sodir bo‘ladi. Shunday qilib, ilm-fan va biznesning o‘zaro ta‘siri innovatsion jarayonni amalga oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy rivojlanish xususiyati sifatida hozirda innovatsion kichik biznesni rivojlantirish borasida taraqqiy etgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlar va ularning natijalari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Avvalo, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlik rivojlanishining miqdoriy ko‘rsatkichlari tahliliga e‘tiborni qaratish zarur. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, mikro, kichik va o‘rta biznes korxonalarini hissasiga jami band aholining 50 foizi to‘g‘ri keladi⁴⁸. Ushbu korxonalar ekologiya, energiya samaradorligi, tiklanadigan energiya va qurilish sohasida COVID19 inqirozi ta‘siriga qadar innovatsion, “yashil” va barqaror rivojlanish tashabbuslarini amalga oshirish darajasiga erishganligi ta‘kidlanmoqda⁴⁹.

Ayrim bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan va shakllanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi, tez sur‘atlarda jadal rivojlanayotgan Xitoy va Hindiston kabi mamlakatlarda kichik innovatsion tadbirkorlikning yalpi sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 2000-yillarning boshlarida 60 foizdan yuqori ko‘rsatkichga ega edi⁵⁰. Kichik innovatsion biznes rivojlanishining jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiyalar jarayonida ushbu turdagi iqtisodiy subyektlarning ishtiroki yuqori darajada bo‘lib, innovatsiyalarning aksariyat qismi ushbu soha hissasiga to‘g‘ri keladi. Masalan, AQSh iqtisodiyotida kichik biznes vakillari tomonidan yirik korporatsiyalarga nisbatan 13 marta ko‘p bo‘lgan hajmdagi patentlar va innovatsion ishlanmalar ishlab chiqiladi⁵¹.

Jahon xo‘jaligida yangi texnologiyalar va innovatsiyalarning qariyb 50 foizi aynan kichik biznes vakillari hissasiga to‘g‘ri kelib, ular zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida ilmiy-texnik rivojlanishning harakatlantiruvchi

⁴⁸ <https://www.clustercollaboration.eu/achievements/spain-learnings-and-opportunities-covid-19-crisis>

⁴⁹ <http://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/coronavirus-covid-19-sme-policy-esponses04440101/#section-d1e167>

⁵⁰ Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.riep.ru>

⁵¹ Основные направления политики администрации США в сфере малого и среднего бизнеса – <https://rustradeusa.org/Attach-ment.aspx?id=319>

kuchi sifatida xarakterlanadi⁵². Bugungi kunda innovatsion jarayonlarning tobora kengayib, ularning qamrov darajasi ortib borishi bilan bir qatorda, uning ishtirokchilari va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlarning turi ko'payib, sifat jihatdan takomillashib borishi zamonaviy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyati sifatida baholanmoqda.


Taraqqiy etgan mamlakatlarda kichik innovatsion biznesni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Buning sababi kichik innovatsion biznes innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda kam xarajat talab etgan holda, qisqa muddatda ko'zlangan natijaga erishish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, tashkiliy jihatdan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yo'naltirilgan bo'lib, amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning intensivligini oshiradi. Qamrov darajasining pastligi sababli risk darajasini kamaytirib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning keskin o'zgarishlariga tez moslashadi va yangi texnologiya, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish yo'nalishlarini o'z amaliyotiga tatbiq etish tezligi yuqori hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatining innovatsion yo'naltirilganligi mamlakatda amal qilayotgan innovatsion rivojlanish modeli bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Hozirgi kunga qadar jahon xo'jaligida innovatsion rivojlanishning uch xil modeli shakllangan. Birinchi model fan va innovatsiyalar bo'yicha dunyoda yetakchilik mamlakatlar uchun xos bo'lgan model hisoblanib, fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishga asoslanadi. Bu tarzda innovatsion rivojlanish modeli AQSh, Angliya va Fransiya mamlakatlari uchun xos hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar guruhi fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni rag'batlantirish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga erishadilar. Ikkinchi model uchun innovatsiyalar rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish orqali innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish xos bo'lib, Germaniya, Shvetsiya va Shvetsariya kabi mamlakatlar uchun xos hisoblanadi. Uchinchi model jahon xo'jaligining ilmiy-

⁵² Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.gier.ru>

texnikaviy rivojlanishiga ixtisoslashgan innovatsion iqtisodiyot modeli hisoblanib, Yaponiya va Janubiy Koreya mamlakatlari uchun xos model hisoblanadi⁵³. Mamlakatlarda amal qilayotgan innovatsion rivojlanish modellari kichik innovatsion biznes sohasida faoliyat va ixtisoslashuv yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Jahon xo‘jaligida innovatsion faoliyatni amalga oshirishning o‘zaro bog‘langan mikro va makro darajadagi mexanizmi amal qiladi. Innovatsion jarayonlarni amalga oshirishning mikromexanizmi kichik tadbirkorlik subyektlari amaliyotida innovatsiyalarni o‘zlashtirish dastaklari orqali namoyon bo‘ladi. Innovatsiyalarni o‘z amaliyotiga tatbiq etish ko‘lami kichik biznes vakillarining innovatsion salohiyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda ularning innovatsiyalarni ishlab chiqish hajmi, yangiliklarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilishi inobatga olinadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kichik innovatsion biznes subyektlarining innovatsion salohiyati 1.3.1-rasmda keltirilgan darajalarga ajratiladi.



1.3.1-rasm. Kichik innovatsion biznes subyektlarining innovatsion salohiyatining rivojlanganlik darajasi bo‘yicha guruhlanishi⁵⁴

⁵³ Арутюнов Ю.А. , Гончаренко Л.П. Инновационная политика. // <https://www.litres.ru>

⁵⁴ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

Quyi darajadagi innovatsion salohiyat, ya'ni innovatsiyalarni o'zlashtirishga yoki ishlab chiqishga moslashmagan kichik biznes vakillari hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda ularni innovatsion salohiyati rivojlanmagan kichik biznes subyektlari deb ham ataladi.

O'rta darajadagi innovatsion salohiyat – bu innovatsiyalarni o'z amaliyotiga tatbiq etib yoki ularni ishlab chiqib, bozordagi o'z o'rnini yo'qotmaslik uchun harakat qilayotgan kichik biznes subyektlarini anglatadi. Bu turdagi kichik innovatsion biznes vakillarining moslashuvchanlik tezligi va muddati biroz sust bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Yuqori darajadagi innovatsion salohiyat – bu bozorda o'z innovatsion pozitsiyasiga ega bo'lgan, innovatsion ishlanmalarni zudlik bilan o'z amaliyotiga tatbiq eta oladigan, doimiy innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqishda ilg'orlik qilib kelayotgan kichik innovatsion biznes vakillari hisoblanadi⁵⁵.

Kichik innovatsion biznes rivojlanishiga oid jahon tajribasi ko'rsatishicha, korxonalar innovatsion salohiyatining rivojlanganlik darajasini baholash orqali ular innovatsion jarayonlarga kirishish uchun amaliy dasturlarni ishlab chiqa oladilar. Innovatsion jarayonlarga kirishish uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi, maqsadni aniqlash. Bunda kichik biznesning ixtisoslashuv sohasi inobatga olinib, quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin: innovatsion mahsulotni ishlab chiqarish yoki yangi texnologiyalarni ishlab chiqish orqali korxonaning bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish; yangi bozorlarga chiqish; ish yuritish ko'lamini kengaytirish va boshqalar.

Ikkinchi, korxonaning innovatsion imkoniyatlarini baholash. Bunda korxonaning innovatsion imkoniyatlarini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi: korxonaning ilmiy-texnik salohiyati (ilmiy darajaga ega bo'lgan xodimlari soni; yangicha fikrlovchi, yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlar soni; korxonadagi innovatsion loyihalar soni va boshqalar); korxonaning kommersalizatsiya

⁵⁵ Васюхин О.В., Павлова Е.А. Развитие инновационного потенциала промышленного предприятия // <https://www.mongraphies.ru>

ko'rsatkichlari (innovatsion mahsulotlar sotilishining umumiy sotilgan mahsulot hajmidagi ulushi, litsenziyalashtirilgan shartnomalarning soni va boshqalar); korxonaning innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha xarakteristikasi (korxonadagi innovatsion g'oyalarni va ularni amalga oshirishni rag'batlantirish tizimining holati, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda rahbariyatning ishtiroki, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarning erkinligi darajasi va boshqalar); innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi⁵⁶. Jahon amaliyotida korxonalarining innovatsion imkoniyatlarini baholashda "TAT" ko'rsatkichlar itizmidan keng foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkilar tizimi yapon korxonalarini tomonidan amaliyotga tatbiq etilgan bo'lib, inglizcha "Turn Around Time (burilish vaqti)" so'zidan olingan. Ushbu ko'rsatkich innovatsion mahsulotning bozorga kirib kelishi yoki unga talabning uyg'onishidan boshlab, bozorning ushbu tovar bilan to'yingunga qadar bo'lgan davrdagi korxonaning innovatsion salohiyatini baholash imkonini beradi. Masalan, maishiy texnika bozorida innovatsion mahsulotni ishlab chiqarishdan boshlab, ushbu mahsulot bilan bozorni to'yintirgunga qadar bo'lgan davri ko'rsatkichi Yaponiyaning Matsushita korxonasida 4,7 oyni tashkil etadi⁵⁷.

Uchinchi, korxonaning innovatsion faoliyati yo'nalishini aniqlash. Bunda korxonada innovatsiyalarni ishlab chiqaruvchi yoki innovatsiyalarni o'zlashtiruvchi sifatidagi innovatsion jarayonlardagi o'z ishtirokini belgilab oladi. Agarda korxonada innovatsiyalarni ishlab chiqaruvchi bo'lish yo'lini tanlasa, u holda, innovatsion ishlanmalar ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar olib borish, yangi texnologiyalarni yaratish bilan shug'ullanuvchi maxsus xodimlardan tashkil topgan o'z ishchi guruhini shakllantirishi va ularga mehnat qilish uchun qulay shart-sharoit yaratishi lozim bo'ladi. Korxonada innovatsion jarayonlarda o'zlashtiruvchi sifatida ishtirok etishni tanlasa, u holda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan shartnomalar tuzish orqali, amalga oshirilayotgan yoki ishlab chiqilayotgan yangi innovatsion mahsulot va texnologiyalarni o'z amaliyotida qo'llash uchun rozilik bildirishi zarur bo'ladi.

⁵⁶Королев В.И., Королева Е.Н. Инновационный потенциал: содержание, организационные формы его реализации российскими и зарубежными компаниями // Российский внешнеэкономический вестник. 2014. №5. С.41

⁵⁷ Инновационный потенциал предприятия, его оценка и методы реализации // <https://www.np.tubryansk.ru>

Germaniyada kichik biznesning innovatsion faolligini oshirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni moliyalashtirish va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun zarur mablag'larni kredit shaklida jalb etishda subsidiyalashgan foiz stavkasi shaklida ajratish usullari aralash qo'llaniladi⁵⁸.

Germaniyada inqirozga qarshi davlat siyosati doirasida intellektual sohani ustuvor moliyalashtirish ilm-fan sig'imkorligi kichik va o'rta biznes korxonalarini sonining o'sishiga olib keldi. Jumladan, davlat shartnomasi bo'yicha 46 ta yuqori texnologiyali mahsulotlarni xarid qilish, soliq to'lovlarini oshirish orqali innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlariga kreditlar va ilmiy-tadqiqot ishlari sohasida grantlar ajratish hajmi ortdi⁵⁹.

Finlyandiyada kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash nuqtayi nazaridan fanni talab qiluvchi texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalar va tashkilotlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Misol sifatida mamlakatda innovatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik va o'rta biznesga nisbatan soliq imtiyozlarining joriy etilganligini keltirish mumkin. Bundan tashqari, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar sifatida (masalan, innovatsiyalarni rivojlantirish uchun) imtiyozli shartlar asosida maqsadli kreditlar ajratiladi⁶⁰.

Kichik innovatsion biznes subyektlari tomonidan innovatsion jarayonlarni tashkil etish borasidagi jahon tajribasi ko'rsatishicha, kadrlar masalalari bu boradagi muhim omil hisoblanadi. Ya'ni, innovatsion biznes subyektlarining yuqori malakali innovatsiyalar bo'yicha menedjerlarga bo'lgan talablari yuqori darajada. Chunki innovatsion jarayonlarning samaradorligi innovatsiyalar bo'yicha menedjerlarning kasbiy malakalari va ko'nikmalari bilan uzviy bog'liqligi amaliyotda o'z isbotini topgan. Shu bilan bir qatorda, yuqori malakali innovatsiyalarni boshqaruvchilar, innovatsion injenerlar va olimlarga bo'lgan talab

⁵⁸ Данильченко, Т.С. Инструменты государственной политики в продвижении интересов малого и среднего бизнеса в Германии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 6-4. – С. 732–737.

⁵⁹ Червова, Л.Г., Бачурин, А.А. Зарубежный опыт регулирования развития предпринимательской деятельности // Вестник Института экономических исследований. – 2017. – № 2(6). – С. 17–24.

⁶⁰ Бородкина, В.В. и др. Государственная поддержка субъектов малого и среднего бизнеса северных стран: Канада, США, Финляндия, Швеция // Российское предпринимательство. – 2015. – 16(21). – С. 3743–3764.

ham yuqori hisoblanadi. Aksariyat holatlarda innovatsion biznes vakillari tomonidan pensiya yoshidagi yetakchi mutaxassislar xizmatlaridan foydalanilayotganligi ham bu boradagi kadrlar muammosi mavjudligidan dalolat beradi. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshidagi innovatsion biznes sohasida faoliyat olib borgan yetakchi mutaxassislar tomonidan innovatsion biznes uchun konsultativ markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Masalan, AQShda bu turdagi 389 ta konsultativ markaz faoliyat yuritib, ularda 11 400 nafar yuqori malakali, innovatsion biznes sohasida faoliyat yuritgan pensioner ishlaydi⁶¹. Tokio shahrida “Sanoat sohasi konstruksiyasi bo‘yicha Yaponiya tashkiloti” faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, kichik va o‘rta innovatsion biznes vakillari uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, innovatsion mahsulotlarni yaratish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va innovatsion jarayonlarda korxonalarining ishtirokini ta’minlash bo‘yicha ilmiy va amaliy ko‘mak berish bilan shug‘ullanadi. Shunga o‘xshash tashkilot Yevropa Komissiyati qoshida ham tashkil etilgan bo‘lib, bunda yetakchi mutaxassislar Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi innovatsion biznes korxonalariga borgan holda joriy holatni o‘rganib, tegishli maslahatlar berish bilan shug‘ullanadilar⁶².

Kichik innovatsion biznes subyektlari tomonidan innovatsion jarayonlarni tashkil etishning yana bir mexanizmi bu yirik biznes vakillari bilan integratsiyalashuv hisoblanadi. Bunda kichik innovatsion biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan innovatsion mahsulotlarni yoki yangi texnologiyalarni yirik biznes vakillari tomonidan o‘zlashtirilishi ularning yangi bozorlarga kirib borishlari uchun zamin yaratadi. Bunda kichik biznes vakillari innovatsion jarayonlarni yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ega bo‘ladilar, xalqaro miqyosda o‘zlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulotni sinovdan o‘tkazib, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalarni olishlari mumkin. Jumladan, kichik biznes vakillari xalqaro ilmiy-texnik ayirboshlash jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishlari

⁶¹ Free Small Business Advice // <https://www.sore.org>

⁶² Ногин В.А., Хоменко Я.В. Зарубежный опыт инновационной деятельности малых и средних предприятий. // <https://www.uecs.ru>

mumkin bo‘ladi. Masalan, AQShda yirik kompaniyalar tomonidan eksport qilinayotgan litsenziyalangan mahsulotlarning 50 foizi kichik innovatsion biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan⁶³.

Kichik innovatsion biznesni rivojlantirishning makromexanizmi – davlat miqyosida kichik innovatsion biznesni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimida o‘z aksini topadi. Mamlakatda kichik innovatsion biznesni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati quyidagi shakllarda bo‘ladi:

- kichik biznesni erkin rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanayotgan, innovatsion jarayonlarda ishtirok etayotgan kichik biznes vakillari uchun maqsadli, manzilli yo‘nalishdagi qo‘llab-quvvatlash dasturlari.

Birinchi yo‘nalishda davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirish va uning amal qilishi uchun tegishli huquqiy-institutsional asoslar yaratib beriladi. Ularning erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar bilan ta‘minlanadi. Shu bilan bir qatorda, mamlakatda innovatsion faoliyat, jumladan, kichik innovatsion tadbirkorlikni tashkil etishga oid huquqiy-normativ baza yaratiladi. Kichik biznes subyektlarining ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilishini rag‘batlantirish bo‘yicha aniq dasturlar ishlab chiqiladi. Masalan, AQSh, Kanada, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va Angliya mamlakatlarida davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan dasturida ularning barcha turdagi innovatsion faoliyatlari davlatning faol dasturlari orqali qo‘llab quvvatlanishi belgilab qo‘yilgan. Ushbu mamlakatlarda innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishni boshlayotgan kichik innovatsion biznes subyektlari xarajatlarlarining 20-50 foizi davlat tomonidan qoplanadi⁶⁴.

Kichik innovatsion biznesni manzilli qo‘llab-quvvatlashda har bir mamlakat o‘ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Masalan, AQShda davlatning innovatsion loyihalari yoki ilmiy-texnik xizmatlar bo‘yicha davlat buyurtmalari kichik

⁶³ Small Business Trade Hearing Wash. 2013. P.190

⁶⁴ Модели инновационного развития зарубежных стран // <https://studme.org>

innovatsion biznes subyektlari tomonidan bajariladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, xususan, Germaniyada kichik innovatsion biznes subyektlarining oliy o'quv yurtlari, ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlik qilishlariga ustuvorlik qaratiladi.

Kichik innovatsion biznesni qo'llab-quvvatlashda davlatning innovatsion loyihalarida ularning ishtirokini ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, AQShda "Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi (SBIR)" amal qiladi. Ushbu dasturda ishtirok etish uchun qat'iy shartlar belgilangan bo'lib, buning uchun, avvalo, loyiha taqdim etayotgan korxonalar kichik biznes subyekti hisoblanib, u tomonidan taklif etilayotgan innovatsion loyihaning foydaliligi ilmiy asoslangan bo'lishi va loyihaga jalb qilinadigan ishchilar soni 500 kishidan oshmasligi lozim⁶⁵.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, XXI asrda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik innovatsion biznesni rivojlantirishga ustuvorlik berib kelinmoqda. 2020-yilda boshlangan "COVID-19" pandemiyasi davrida ham taraqqiy etgan mamlakatlar tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash inqirozga qarshi dasturlarning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ldi. Jumladan, AQShda banklar korporativ kreditlashni qo'llab-quvvatlashning maxsus dasturi doirasida portfel kafolati ostida qayta moliyalashtirishni oladilar va aholiga student ssudalari, avtokreditlar, kredit kartalari bo'yicha kreditlar va kichik biznes uchun kreditlar beradi; soliq to'lovchilarga koronavirusdan ko'rgan zararini qoplash uchun katta kishilarga 1200 dollardan, farzandlariga esa 500 dollardan to'lovlar to'lanadi. Germaniyada pandemiyadan zarar ko'rgan kichik va o'rta korxonalar uchun ishchilari soni 5 kishigacha bo'lgan korxonalar bir martalik 9000 yevrogacha, ishchilari soni 10 kishigacha bo'lgan korxonalar 15000 yevrogacha subsidiya oladilar. Ushbu mablag'lar bino ijara haqini to'lash, uskunalarni lizingga olish va kreditlarni qaytarish uchun beriladi. Shuningdek, davlat kompaniya xodimlariga ishlamayotgan davrida sof ish haqining 60%i hajmida, jumladan, yosh

⁶⁵ Кокин А.С., Суевалова М.А. Анализ развития инновационного малого бизнеса в рамках национальных инновационных систем зарубежных стран // <https://www.cyberleninka.ru>

bolali xodimga 67 foiz hajmda ish haqi to‘lanadi. Buyuk Britaniyada biznes subyektlariga davlat tomonidan kafolatlangan kreditlar berish dasturi doirasida ipoteka uchun uch oylik ta‘tillar joriy qilingan, karantin davrida ishlab chiqarish faoliyatini qisqartirgan kichik va o‘rta biznes korxonalariga berilgan kreditlarning asosiy qismi va foizini to‘lashda kompensatsiya berish joriy etilgan. Berilgan kreditlarning maksimal hajmi 5 mln. funt sterlinggacha bo‘lib, 6 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi. Biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturi hajmi mamlakat YIMining 15 foizini tashkil qiladi⁶⁶.

Yuqorida qayd etilgan jahon tajribasidan kelib chiqib, kichik innovatsion biznesni maqsadli, manzilli qo‘llab-quvvatlashning xorij tajribasi tahlili ushbu ilg‘or tajribaning quyidagi jihatlarini mamlakatimiz amaliyotida qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda:

- ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishni moliyalashtirish va aylanma mablag‘lar uchun zarur mablag‘larni kredit shaklida jalb etishda subsidiyalashgan foiz stavkasi shaklida ajratish (Germaniya tajribasi);

- innovatsiyalarni rivojlantirish uchun imtiyozli shartlar asosida maqsadli kreditlar ajratish (Finlyandiya tajribasi);

- ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyani ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy o‘quv yurtlarida qo‘llash uchun ishlab chiqarilganligi yoki ularga sotilganligi holatlarida foyda solig‘iga nisbatan imtiyoz berish;

- innovatsion maqsadlarda sarflanayotgan mablag‘larni to‘liq soliqdan ozod etish;

- ilmiy tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini yakka tartibda yoki hamkorlikda amalga oshirish maqsadida sarflanayotgan mablag‘larga nisbatan soliq imtiyozi joriy etish;

- ichki va tashqi innovatsiyalarni jalb etishda innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ustuvorlik berish.

⁶⁶ <https://www.eg-online.ru/print/news/419750/>

Birinchi bob bo'yicha xulosa

1. “Tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritib berishga xizmat qiluvchi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi tahlili ushbu qarashlarni quyidagi ikki guruhga ajratish imkonini beradi. Birinchi guruh – tadbirkorlik subyekt tasarrufida mavjud resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan klassik tadbirkorlik (an’anaviy, sermahsul, eskirib qolgan). Tadbirkorlikning aynan klassik modelida ishlab chiqarishning o’sish konsepsiyasi shakllantiriladi, uning amaliyotga tatbiq etilishi davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni talab etadi. Ikkinchi guruh – rivojlanishning yangi yo’llarini nazarda tutuvchi, innovatsiyalar yoki o’sish konsepsiyasi haqida fikr yuritishga imkon beruvchi innovatsion tadbirkorlikdir. Innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyaga asoslangan, shuning uchun bunday faoliyat natijasi yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo’lishi mumkin.

2. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy kategoriya sifatida “xo’jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog’liq holda korxonada faoliyatiga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o’zaro maqbul kombinatsiyasini qo’llash yordamida yuqori daromadga ega bo’lishga qaratilgan tashabbusli, innovatsion faoliyat turidir”.

3. Kichik innovatsion biznes – bu iqtisodiy kategoriya sifatida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha shaklda xo’jalik faoliyati yuritayotgan, mustaqil, o’ta moslashuvchan kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanib, ularning ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishdagi intilishining yuqoriligi va bu boradagi axborotlar bilan to’liq tanishish imkoniyatiga ega bo’lgan, innovatsiyalarni o’zlashtiruvchi va ixtiro qiluvchi iqtisodiy subyektlaridir.

II BOB. KICHIK BIZNES TARMOQ VA HUDUDIY TARKIBINING TAKOMILLASHUVIDA INNOVATSION OMILLARNING ROLI

2.1. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada faollashib bormoqda. Mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining tobora kengayishi kichik biznes subyektlarining rag‘bat asosidagi faoliyatini ta‘minlashga olib kelmoqdaki, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes subyektlari yildan-yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda. Jumladan, 2022-2026-yillarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlarni yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish, mamlakatda 2026-yil yakuniga qadar ishsizlik darajasini kamida 2 baravar qisqartirish rejasi qabul qilindi⁶⁷.

Mamlakatda qabul qilinayotgan me‘yoriy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoit yaratish, ularning erkin faoliyatini ta‘minlash va amalga oshayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar o‘z aksini topgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bosqichlarini tahlil etish ushbu jarayonni besh bosqichga bo‘lish imkonini berdi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznesni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratila boshladi (2.1.1-jadval).

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlari⁶⁸

Bosqichlar	Tavsifi
Birinchi bosqich – 1991-1995-yillar	Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslari yaratilishi
Ikkinchi bosqich – 1996-2005-yillar	Milliy iqtisodiyotning import o‘rnini qoplashni kengaytirish hisobiga rivojlanishi. Kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining faollashuvi
Uchinchi bosqich – 2006-2016-yillar	2005-yildan boshlab iqtisodiyotni chuqur modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish ishlarining boshlanishi. Biznes muhitining yaxshilanishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va modernizatsiya jarayonlarining kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta’siri
To‘rtinchi bosqich – 2016-yildan hozirga qadar	Kichik biznes sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini yanada erkinlashtirish, innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish

Birinchi bosqich – 1991-1995-yillar. Mazkur bosqichda mamlakatimizda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining shakllanishi va ular miqdorining keskin sur’atlarda o‘sishi bilan tavsiflanadi. 1991-1995-yillarda O‘zbekistondagi kichik biznes subyektlari 4,5 baravardan ortiq miqdorda o‘sgan bo‘lsa, ulardagi ish bilan band bo‘lganlar soni deyarli 2 baravar oshdi⁶⁹. Kichik korxonalar asosan yakka tartibdagi va oilaviy kichik korxonalar hamda mas’uliyati cheklangan jamiyatlar sifatida tashkil etildi. Umuman olganda, boshlang‘ich bosqichda kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatdi:

- sobiq Ittifoq davrida noqonuniy tarzda “yashirin” faoliyat ko‘rsatib kelgan xususiy kichik biznes birliklari qonuniy subyektlarga aylantirildi;
- “kichik xususiylashtirish” dasturining amalga oshirilishi natijasida savdo, mahalliy sanoat, xizmat ko‘rsatish korxonalari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini

⁶⁸ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

⁶⁹ Курманбаева Ф., Пугач И., Абдуллаев Р. и др. Малый и средний бизнес в Узбекистане: современное состояние, проблемы и перспективы. – Экономическое обозрение. №3 (13) июнь 2000.

tayyorlash tizimi va boshqa tarmoqlardagi ko‘plab kichik korxonalar xususiy tadbirkorlik subyektlariga aylantirildi;

- 1994-yilgacha bo‘lgan davrda mamlakatda hukm surgan nisbatan liberal iqtisodiy muhit ta‘sirida kichik biznesning rivojlanishi davlat tomonidan yetarli darajada tartibga solinmadi, boshqacha qilib aytganda, kichik korxonalarining asosan “o‘z-o‘zicha” rivojlanish holati kuzatildi;

- qadimdan o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan tadbirkorlik va ishbilarmonlik xususiyatlarini qo‘llab-quvvatlovchi, kichik (ayniqsa, oilaviy) korxonalarining rivojlanishiga imkon yaratuvchi bir necha asrlik an‘analar qayta tiklandi;

- ichki iste‘mol tovarlari va xizmatlar bozorining to‘yinmaganligi natijasida import sohasidagi kichik tadbirkorlik rivojlandi. Chunki kichik tadbirkorlik subyektlarining miqdori boshqa har qanday mulchilik shaklidagi korxonalariga nisbatan ichki bozor talablariga tezda moslasha olishi bilan yuqori darajada o‘rishga erishdi va hokazo.

Shu bilan bir qatorda, kichik korxonalarni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli fondlar (masalan, 1993-yilda “Biznes-fond” tashkil etildi va u 1995-yili xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga ko‘maklashish Fondiga aylantirildi) tashkil etildi.

Ikkinchi bosqich – 1996-2005-yillarni o‘z ichiga oladi. 1995-yil 28-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash Davlat dasturi” qabul qilinishi va uning amaliyotga tatbiq etila boshlanishi bilan bog‘liq jarayonlar mamlakatimizda kichik korxonalar faoliyatini tashkil etish va ularni olib borishdagi yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu bosqichda respublikadagi kichik biznes subyektlarining rivojlanishi oldingi bosqichga qaraganda ma‘lum darajada sustlashdi. 1996-1998-yillarda kichik korxonalar sonining qisqarishi bilan ulardagi band bo‘lganlarning soni ham qisqardi. 1998-yilda bu ko‘rsatkich 1995-yildagiga nisbatan 54 foizni tashkil etdi. Bunday holatni quyidagi vaziyatlar bilan tushuntirish mumkin:

- ikkinchi bosqichda davlat investitsiya faolligining o'sishi moliyaviy resurslarning davlat sektori foydasiga qayta taqsimlanishiga olib keldi;

- 1996-yilning kuzidan boshlab importni davlat tomonidan tartibga solish tizimining kuchaytirilishi natijasida kichik korxonalarining import tovarlarga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatidan ko'radigan daromadliligi ma'lum darajada qisqardi;

- faol investitsiya siyosatni amalga oshirishda davlat turli xil imtiyozli shart-sharoitlarni yaratish orqali alohida tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini qo'llab-quvvatlay boshladi. Tabiiy ravishda, bunda yirik korxonalarining rivojlanishiga e'tibor qaratila boshlandi. Buning natijasida kichik korxonalarining rivojlanishiga nisbatan kam yondashish hollari kuzatildi.

Umuman olganda, bu bosqichda davlat faolligining o'sishi, bir tomondan, kichik biznes subyektlarining faoliyatini qonuniy jihatdan tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ko'p miqdorda qabul qilinishi, shuningdek, ushbu iqtisodiy sektorning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishda namoyon bo'lsa, boshqa tomondan, kichik biznes faoliyatiga davlat va mahalliy boshqaruv organlarining asossiz aralashuvi ma'lum darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Buning oqibatida 1999-yilga kelib, O'zbekistonda kichik korxonalarini rivojlantirish salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganligi namoyon bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznes faoliyatining rivojlanishiga xalaqit beruvchi davlat aralashuvini cheklash hamda uning rivojlanishi uchun yanada qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

- 2001-yilning 1-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasida xususiy tadbirkorlik to'g'risida"gi Nizom o'rniga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 347-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'kazish tartibi to'g'risida"gi Nizom amaliyotga tatbiq etildi. Natijada yangi kiritilgan

tartibga asosan ro'yxatdan o'tish uchun zarur bo'lgan hujjatlar soni 42 tadan 7-25 tagacha kamaydi va ro'yxatdan o'tish jarayoni ham 17-19 kundan 8-12 kungacha qisqardi;

– 2003-yil 20-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori qabul qilindi. Shu yilda tuman va shahar hokimliklari huzurida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tuzildi va davlat ro'yxatidan o'tkazishda rozilik beruvchi tashkilotlar soni keskin kamaydi.

2006-2016-yillar esa uchinchi bosqich hisoblanib, bunda mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiya jarayonlarining kichik korxonalar faoliyatiga ta'siri, ularning kengayishi va kapitalga bo'lgan ehtiyojlarining ortishi, yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talablarining o'sib borishi bilan tavsiflanadi. 2011-yilning “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi⁷⁰ning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida hududlarda biznes muhitining yaxshilanishi, korxonalarni tashkil qilish hamda kichik korxonalar va tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalari, kichik biznes subyektlari uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlarda imtiyozlarning joriy etilishi bilan bir qatorda davlat mutasaddi tashkilotlari uchun topshiriladigan hisobotlariga yanada soddalik va yengilliklar kiritila boshlandi.

Mamlakatimiz amaliyotida kichik biznesning keng tarqalgan turlaridan yana biri bu yakka tartibdagi tadbirkorlik hisoblanadi. Bu turdagi tadbirkorlik faoliyatini olib borayotgan fuqarolar shaxsiy ish hujjatlari, blankalar, muhr, shtamlardan foydalanishga haqli bo'lib, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligidan dalolat berishi talab etiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, xususan, nikoh shartnomasida

⁷⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 4 апрелдаги «Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизimini такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПФ-4296-сон Фармони.

yoxud er-xotin o‘rtasidagi boshqa turdagi kelishuvda mulkiy munosabatlarga oid turli holatlar nazarda tutilgan bo‘lmasa, er (xotin) ning roziligi talab etiladi⁷¹.

Hozirda mamlakatimizda kichik biznes faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi PF-4453-sonli “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi PF-4455-sonli “Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va boshqalar.

2016-yildan hozirga qadar bo‘lgan davrdagi muhim jihat bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi va unda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional

⁷¹ Kўшимча маълумот учун: Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 225-моддаси, Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 24-моддаси ва Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2011 йил 20 июлдаги 6-сон “Судлар томонидан никоҳни бекор қилишга оид ишларни кўришда қонунчиликнинг қўлланилиши тўғрисида”ги қарорнинг 22-банди

va tarkibiy islohotlarni davom ettirish ustuvor yoʻnalish sifatida belgilab qoʻyilishi bilan alohida eʼtibordir⁷².

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini yanada erkinlashtirishga qaratilgan meʼyoriy hujjatlarning qabul qilinishi yildan-yilga iqtisodiy munosabatlar tizimida kichik korxonalarining ishtirokini kengaytirib borish uchun zamin yaratmoqda deb aytish maqsadga muvofiq.

2017-yil sentyabr oyidan boshlab mamlakatimizda erkin valyuta konvertatsiyasini amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi, kredit-moliya tizimidagi qayta moliyalash stavkasining 9 foizdan 14 foizga ortishi, banklardagi kreditlash tartibidagi ssuda stavkalarining oʻzgarib borishi oʻz navbatida kichik korxonalar shakllanishining mamlakatimizdagi keyingi bosqichni boshlab berdi deb aytish maqsadga muvofiq.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida”gi PF-5106-son Farmoni ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktyabrda “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi 834-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror doirasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

– yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish uchun klaster hududida ishlab chiqarish maydonlari taqdim etish orqali ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

– yosh tadbirkorlarga ruxsat beruvchi hujjatlarni, kreditlar olish, biznes-rejalar tayyorlash, marketing tadqiqotlari oʻtkazish, savdo bozorlarini topish va boshqalar uchun zarur hujjatlarni tayyorlashda amaliy koʻmaklashish;

⁷² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон Фармони

– yoshlarga biznesni yuritish asoslarini o‘rgatish, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, shuningdek, yosh tadbirkorlarga malakali xodimlarni tanlashda yordam berish;

– startaplar tashkil etish uchun biznes-inkubatorlar vazifalarini amalga oshirish, yosh tadbirkorlarning raqobatbardoshligini oshirish, ular faoliyatini barqaror rivojlantirish⁷³.

Shu bilan bir qatorda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ajratiladigan imtiyozli kreditlarni olish uchun quyidagi talablar qo‘yildi:

– klasterlar hududida joylashgan ishlab chiqarish maydonlari faqat O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga a‘zo bo‘lgan yosh tadbirkorlarga korxonalar tashkil topguniga qadar, ammo 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara haqining “nol” stavkasi bo‘yicha ijaraga beriladi;

– klasterlarda yoshlarga maslahat berish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq zarur hujjatlarni tayyorlashda amaliy yordam ko‘rsatish xizmatlari bepul amalga oshiriladi;

– klaster hududida joylashtiriladigan tadbirkorlik subyekt xodimlarining shtati 35 yoshgacha bo‘lgan shaxslar bilan to‘ldirilishi va ular xodimlar umumiy sonining kamida 70 foizini tashkil etishi kerak;

– foydalanilmayotgan, shu jumladan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki O‘zbekiston yoshlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston yoshlar ittifoqining shahar hamda tuman kengashlarining iltimosiga ko‘ra 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara haqining “nol” stavkasi bo‘yicha ijaraga beriladi.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan 2018-yilga yurtimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nomlandi. Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya’ni zamonaviy yondashuvlar, ilg‘or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo‘nalishdir.

⁷³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 октябрдаги “Ёшлар тadbirkorlik кластерларини ташкил этишга доир ташкилий чора-таdbирлар тўғрисида”ги 834-сонли Қарори

Faol tadbirkorlik biznes faoliyatini innovatsion, ya'ni zamonaviy yondashuvlar, ilg'or texnologiya va boshqaruv usullari asosida tashkil etadigan iqtisodiy yo'nalishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi farmoniga muvofiq esa 2018-yilda iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruviga zamonaviy ilm-fan yutuqlari, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard AQSh dollariga teng 76 mingta loyiha amalga oshirildi. “Har bir oila – tadbirkor” va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari doirasida 2 trillion so'mga yaqin mablag' ajratilib, joylarda 2 600 dan ortiq biznes loyihalar amalga oshirildi⁷⁴.

Bundan tashqari, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish, ishbilarmonlik muhiti va investitsiyaviy jozibadorlikni yaxshilash, aholi daromadlarini oshirish va biznes uchun soliq yukini kamaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi. Xususan, yagona ijtimoiy to'lov stavkasining 12 foizgacha pasaytirilishi hamda yuridik shaxslarning aylanmasi (tushumi)dan davlat maqsadli jamg'armalariga undiriladigan majburiy ajratmalarning bekor qilinishi korxonalar ixtiyorida qo'shimcha mablag'lar qolishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Mamlakatimizda har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbasiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2018-yil 7-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to'g'risida”gi PQ-3777-sonli Qarori qabul qilindi. Qaror doirasida davlat dasturini amalga oshirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilandi:

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5635-сон Фармони.

– tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash;

– tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko‘rsatish;

– tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish;

– kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo‘shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish;

– qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini-klasterlar tashkil etish;

– joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini tubdan kengaytirish, tadbirkor oilalarning ishlab chiqargan mahsulotlari savdosini tashkil qiluvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko‘rsatish va servis shoxobchalarini barpo etish;

– qishloq va mahallalarda bo‘sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berish orqali aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratish;

– vaqtinchalik moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan hamda davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlab, ular

faoliyatini tiklash va qonuniylashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish⁷⁵.

Qarorda tijorat banklari tomonidan oilaviy tadbirkorlikka kreditlar ajratish tartibi bo'yicha quyidagi yo'nalishlar belgilandi:

bazaviy hisoblash miqdorining yuz ellik baravarigacha miqdorda – oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar rahbarlari va mahalla fuqarolar yig'ini tavsiyanomalari;

bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda – belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga uchinchi shaxs kafilligi, sug'urta polislari, kredit hisobiga sotib olinayotgan mol-mulklar garovi, Jamg'armaning kafilligi va qonun hujjatlari doirasidagi boshqa ta'minot turlari;

bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan ortiq miqdorda – tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy loyihalarini kreditlashda qonun hujjatlari doirasida belgilangan ta'minot turlariga asosan ajratiladi⁷⁶.

2019-yilning 14-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5718-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmon doirasida mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va biznesni yuritish uchun qulay muhit yaratish, tadbirkorlarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan amaliy vazifalar belgilab berildi.

2019-yilning 20-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4525-sonli Qarori qabul qilindi. Qarorning ijrosini ta'minlash orqali O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag'batlantirish maqsadida sohaga oid qator tartibotlar tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, eskirgan,

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги "“Хар бир оила – тadbirkor” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги ПҚ-3777-сонли Қарори.

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги "“Хар бир оила – тadbirkor” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги ПҚ-3777-сонли Қарори.

zamon talabiga javob bermaydigan byurokratik to'siq va g'ovlar bekor qilindi. Ko'rilgan choralar natijasida respublikada ishbilarmonlik muhiti yaxshilandi, tadbirkorlik subyektlari va xususiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

2020-yilda jahonda global darajada avj olgan "COVID-19" pandemiyasi davrida ham mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar izchil davom ettirildi. Xususan, 2020-yil 3-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, karantin tadbirlari davrida o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovlarini hisoblash va undirish, o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qat'iy belgilangan summasini hisoblash to'xtatildi, o'z faoliyatini to'xtatgan yoki tovarlar realizatsiyasidan tushumi joriy yilning birinchi choragidagi o'rtacha oylik miqdoriga nisbatan ko'proqqa kamaygan mikrofirma va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq organlarini xabardor qilgan holda 2020-yil 1-oktyabrigha qadar soliqlarni foizsiz (bo'lib-bo'lib to'lash) huquqi berildi⁷⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy dastur hisoblanadi. Ushbu farmonga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish ko'zda tutilgan. Har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan "Ochiq muloqoti"ni o'tkazish, hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги ПФ-5978-сонли "Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони

tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini va xorijiy tajriba asosida faktoring amaliyotini rivojlantirish rejalashtirilgan.

2026-yil borib tadbirkorlik subyektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish. Hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish. Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatini boshlashi uchun zarur ma‘lumotlarni erkin foydalanishga chiqarish. Qurilish faoliyatida qurilish nuqsonlari yoki muammolarining oldini olish. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo‘l ochish. Iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan⁷⁸.


Fikrimizcha, qayd etib o‘tilgan chora-tadbirlar mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni faollashtirishga, innovatsion g‘oyalarni keng joriy etishga va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga jiddiy e‘tiborni qaratish bu kabi muammolarni bartaraf etishga olib keladi.

2.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tarkibiy siljishlar va hududiy o‘zgarishlar

Kichik biznes rivojlanishida innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishni ta‘minlashning yana bir muhim yo‘nalishi – mamlakat hududlari bo‘ylab innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi. Bu boradagi asosiy muammolardan biri – hududlar bo‘yicha innovatsion kichik korxonalarining tekis taqsimlanmaganligidir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion tavsifdagi kichik korxonalarining salmoqli qismi mamlakatning markaziy (poytaxt va uning atrofi) hududlarida, viloyat markazlari va yirik shaharlarda joylashgan. Shunga ko‘ra, olis aholi punktlaridagi innovatsion kichik biznes korxonalarini tashkil etish hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

⁷⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармонида 1-илова. 16-бет.

Fikrimizcha, bu o‘rinda mazkur jarayonlarni tegishli hududiy idoralar tomonidan tartibga solish maqsadga muvofiq. Buning uchun yirik va o‘rta korxonalar hamda markaziy hududlarda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik innovatsion korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishning muayyan jarayoni yoki qismini kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish zarur. Mazkur jarayonlarni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Innovatsion jarayonlarni kooperatsiya asosida hududlarning olis aholi punktlaridagi kichik biznes korxonalarida tashkil etish⁷⁹.

Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning olis aholi punktlarida innovatsion ishlab chiqarishni shakllantirish hamda kichik biznes korxonalarini faoliyatini jadal rivojlantirishga qo‘shimcha imkon beradi.

Mamlakat iqtisodiyotini chuqur modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirishga qaratilgan izchil iqtisodiy islohotlar davom etmoqda. Ushbu jarayonlar O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal sur‘atlarda rivojlanishi, sohada chuqur tarkibiy siljishlar va hududiy o‘zgarishlarning yuz berishiga olib kelmoqda. Tahlillar ko‘rsatishicha, 2015–2020-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki

⁷⁹ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

mahsulotidagi ulushi 54,5 foizdan 55,7 foizga ortgan bo'lsa-da, pandemiya inqirozining salbiy ta'sirida 2021- va 2022-yillarda mos tegishlicha 54,9 va 51,8 foizga qadar qisqarganligini kuzatish mumkin (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot sohasidagi ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)⁸⁰

Yillar	YIM	Sanoat	Qurilish	Bandlik	Ekspart	Import	Xizmat-lar	Investitsiya-lar
2015	54,5	40,6	66,7	77,9	27,0	44,5	57,8	35,8
2016	57,3	45,3	66,9	78,2	26,0	46,8	61,4	37,0
2017	65,3	41,2	64,8	78,0	22,0	53,6	58,3	38,1
2018	62,4	37,4	73,2	76,3	27,2	56,2	56,0	38,0
2019	56,0	25,8	75,8	76,2	27,0	61,6	53,2	44,3
2020	55,7	27,9	72,5	74,5	20,5	51,7	51,8	46,0
2021	54,9	27,0	72,4	74,4	22,3	48,7	35,9	45,6
2022	51,8	25,9	71,6	74,4	29,5	49,4	50,4	47,6

2.2.1-jadval tahlillari 2015–2022-yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 40,6 foizdan 25,9 foizga qadar qisqargani holda, qurilish sohasidagi ulushining 66,7 foizdan 71,6 foizga qadar oshganligi ko'rsatmoqda. Ushbu holat pandemiya sharoitida aksariyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini faoliyati, jumladan tashqi iqtisodiy aloqalarning vaqtinchalik to'xtatilishi kabi omillar bilan izohlash mumkin. 2018-yilga nisbatan 2019- va 2022-yillardagi pasayish holati kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport va import hajmidagi, xizmatlar ko'rsatish sohasidagi hamda investitsiyalar sarflashdagi faoliyatlarida ham kuzatiladi.

So'nggi yillarda qurilish sohasida amalga oshirilayotgan maqsadli dasturlar va keng ko'lamda yangi binolar, aholi uchun turar joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish kabi amaliy ishlarga katta e'tibor qaratilib kelinayotganligi

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

ushbu sohada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ham ishtirokini barqaror ortishga olib keldi.

Qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faol ishtirok etmoqdalar. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bandlik sohasidagi, jumladan, ijtimoiy jihatdan muhtoj, kambag'al aholi ijtimoiy guruhlarini ish bilan bandligini ta'minlashda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda kichik biznes subyektlari o'z faoliyatida mehnat resurslarini bir necha kanallar orqali jalb etish imkoniyati yuqori bo'lgan soha hisoblanadi. Tanish-bilishlar, yaqin qarindoshlar; korxonalar tashkil etilgan hudud aholisi; mehnat birjalari va yarmarkalari; turli shaklda bo'sh ish o'rni haqidagi e'lonlarni tarqatish va boshqalar shular jumlasidandir. 2.2.1-jadvalda keltirilgan statistik ma'lumotlar tahlili ko'rsatishicha, 2015–2022-yillarda mamlakatimiz mehnat bozorida band bo'lganlarning aksariyat qismi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushiga to'g'ri keladi. Tadqiq etilayotgan davrda sohada band bo'lganlarning jami band aholiga nisbatan ulushi 1,5 marta ortgan holda, 49,7 foizdan 74,5 foizga yetdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari o'yicha tahlili tadqiqot davrida jiddiy tarkibiy siljishlar ro'y berayotganligini ko'rsatmoqda. 2015–2023-yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy subyektlar soni qariyb 2,3 marta ortib, 2023-yilning 1-yanvar holatiga 555,9 mingtani tashkil etdi. Bu davrda iqtisodiy subyektlar sonining tarmoq tarkibida savdo sohasining ulushi 29,4 foizdan 34,8 foizgacha, qishloq, o'rmon va baliq xo'jiligidan ulushi 8,5 foizdan 10,3 foizga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushi 6,6 foizdan 7,1 foizga qadar oshgan. Sanoat tarmog'ining ulushi 19,9 foizdan 18,8 foizgacha, qurilish (10,0 dan 8,8 foizgacha), tashish va saqlash (4,3 foizdan 3,9 foizgacha), axborot va aloqa sohasi (3,3 foizdan 2,2 foizgacha), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (2,9 foizdan 1,8 foizgacha) va boshqa sohalar (15,0 foizdan 12,3 foizgacha) ulushi esa pandemiya inqirozi ta'sirida qisqarganligini kuzatish mumkin. Tahlillar,

mamlakatimizda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (1,8 foiz), axborot va aloqa (2,2 foiz), tashish va saqlash (3,9 foiz) xizmatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushining bir muncha pastligini ko‘rsatmoqda. Tadqiq etilayotgan davrda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish (2,3 marta), qurilish (2,1 marta), sanoat (2,1 marta), tashish va saqlash (2,0 marta) va savdo (2,3 marta) sohalarida faoliyat olib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni sezilarli darajada ortdi (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxonalar va firmalar soni tarmoq tarkibining o‘zgarishi (fermer va dehqon xo‘jaliklarsiz, 1-yanvar holatiga, jamiga nisbatan foiz hisobida)⁸¹

	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	O‘zgarish, -+ 2023 yilda 2015 yilga nisbatan
Jami faol kichik korxonalar soni	100	100	100	100	100	100	100	100	100	
<i>shundan:</i>										
<i>qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi</i>	8,5	8,4	8,5	8,9	9,1	8,6	9,9	10,0	10,3	+1,8
<i>sanoat</i>	19,9	19,8	20,3	21,2	21,4	20,9	20,1	19,5	18,8	-1,1
<i>qurilish</i>	10,0	10,1	10,4	10,4	11,0	10,8	9,9	9,3	8,8	-1,2
<i>savdo</i>	29,4	28,4	29,1	27,3	26,8	30,0	32,0	33,8	34,8	+5,4
<i>tashish va saqlash</i>	4,3	4,6	5,0	5,1	5,0	4,5	4,2	3,9	3,9	-0,4
<i>yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</i>	6,6	6,9	7,3	7,4	7,5	7,6	7,3	7,2	7,1	+0,5
<i>axborot va aloqa</i>	3,3	3,0	2,9	2,7	2,5	2,3	2,2	2,2	2,2	-1,1
<i>sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar</i>	2,9	2,8	1,8	1,9	2,1	1,9	1,8	1,9	1,8	-1,1
<i>boshqa turlari</i>	15,0	16,0	14,7	15,1	14,6	13,4	12,5	12,2	12,3	-2,7


⁸¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimiz mintaqalarida mavjud moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvafaqqiyatini ta'minlovchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Mintaqaviy omillar iqtisodiy islohotlar xarakteri va yo'nalishiga, ishlab chiqarish omillarining rivojlanish sur'atlari va nisbatlariga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar jarayoniga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, respublikamiz mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi ularning geografik joylashuvi, tabiiy-iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanganligi, mehnat resurslarining bilim va malakalari kabi omillar ta'sirida bir-biridan farq qiladi. Shu sababli mintaqalar rivojlanish darajasi o'rtasidagi tafovutlarga barham berish, har bir mintaqaga aholisini munosib hayot sharoitlari bilan ta'minlash iqtisodiy islohotlar oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida bu sohada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli dasturlari (kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq joylarida bandlik, energetika mustaqilligini ta'minlash va boshqalar) ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi – erkinlashtirish sharoitida davlatning bir qator vakolatli vazifalarini mahalliy hokimiyat organlariga, jamoat tuzilmalariga va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish, iqtisodiy islohotlarda mintaqalarning roli va faolligini oshirish ko'zda tutilgan.

Tahlillar, 2015–2022-yillarda kichik tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi respublika bo'yicha 54,5 foizdan 55,7 foizgacha oshganligiga qaramasdan, sohaning rivojlanishi bo'yicha hududlar o'rtasida chuqur nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Jumladan, sanoatlashish darajasi yuqori, infratuzilma obyektlari yaxshi rivojlangan Toshkent shahri (51,3%), Toshkent (50,2%) va Navoiy (26,6%) viloyatlari yalpi hududiy mahsulotida kichik tadbirkorlik ulushi respublika ko'rsatkichidan pastligicha qolmoqda. Mamlakatimizning boshqa, ayniqsa qishloq xo'jaligi yetakchi mavqega ega Jizzax (83,4 foiz), Namangan (74,9 foiz), Surxondaryo (77,9 foiz), Samarqand (74,8 foiz)

Buxoro (75,3 foiz) va Qashqadaryo (71,1 foiz) viloyatlarida viloyatlarida esa kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70 foizdan yuqori ko'rsatkichga ega viloyatlar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, 2015–2020-yillarda Toshkent shahri (-8,8 p.p.), Toshkent (-4,1 p.p.), Navoiy (-13,9 p.p.), Andijon (-2,6 p.p.) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (-1,9 p.p.) hududiy mahsulotida kichik biznes subyektlari ulushi qisqarganligini kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimizning boshqa hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi ortgan. Xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlari yalpi hududiy mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi keskin ortgan (2.2.2-rasm).



2.2.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi (foizda)⁸²

⁸² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlarini hududlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik korxonalarining umumiy soni sezilarli darajada o‘zgarmagan bo‘lsada, ularning sanoatdagi ulushi 2015-yilda 40,6 foizdan 2022-yilda 26,0 foizga qadar qisqargan. Yirik sanoati rivojlangan Toshkent va Navoiy viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi nisbatan past darajada qolmoqda. Ularning ulushi 2015–2022-yillarda kichik biznes tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotida tegishlicha 30,8 foizdan 20,9 foizgacha va 19,5 foizdan 7,2 foizgacha qisqargan. Ushbu holat mazkur viloyatlarda yirik sanoat obyektlariga ko‘proq e‘tibor qaratilayotganligi, investitsiyalarning aksariyat qismi yirik sanoat korxonalarini tomonidan amalga oshirilayotganligi bilan izohlanadi. Toshkent shahri, Jizzax, Namangan va Samarqand viloyatlarida kichik biznes vakillarining iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishda nisbatan faol ko‘rsatkichlarga erishganlarini qayd etishimiz mumkin. Bu hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan qariyb 50 %dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (2.2.3-jadval).

Mintaqalarda asosiy kapitalga sarflanayotgan jami investitsiyalar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlari ulushi tahlilida ham nomutanosibliklarni kuzatish mumkin. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida jami investitsiyalar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 45 foizdan oshmaydi va respublika ko‘rsatkichidan past. Bu holatni ham ushbu mintaqalardagi yirik sanoat obyektlarini o‘zlashtirish bilan bog‘liq yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilayotganligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan bir vaqtda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Sirdaryo , Farg‘ona va Namangan viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlari investitsion faolligining ortganligini kuzatish mumkin.

2.2.3-jadval

Kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, %⁸³

	Sanoat		Bandlik		Investitsiyalar	
	2015	2022	2015	2022	2015	2022
O'zbekiston Respublikasi	40,6	26,0	77,9	73,9	35,8	47,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	42,1	20,5	74,5	74,1	10,7	26,7
<i>viloyatlar:</i>						
<i>Andijon</i>	32,0	22,4	83,8	80,2	50,5	59,0
<i>Buxoro</i>	41,2	33,5	78,5	74,3	20,9	45,1
<i>Jizzax</i>	52,5	50,0	81,7	77,3	56,0	72,1
<i>Qashqadaryo</i>	25,1	23,0	79,6	78,2	14,6	26,9
<i>Navoiy</i>	19,4	7,2	60,3	51,1	28,3	42,8
<i>Namangan</i>	62,0	44,8	83,3	81,0	42,9	65,2
<i>Samarqand</i>	56,0	38,1	84,1	80,9	61,1	60,5
<i>Surxondaryo</i>	39,1	42,4	80,3	76,9	48,8	49,5
<i>Sirdaryo</i>	40,3	30,6	79,4	72,9	32,2	76,5
<i>Toshkent</i>	30,8	20,9	76,8	70,0	31,0	36,8
<i>Farg'ona</i>	42,9	44,0	80,3	78,7	49,8	62,0
<i>Xorazm</i>	38,9	16,0	82,4	78,1	54,2	52,4
<i>Toshkent sh.</i>	68,6	36,9	57,0	50,0	58,2	41,6

O'zbekiston Respublikasi hududlarida kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida 23,9 foizni, sanoat tarmog'ida 23,0 foizni, qurilish tarmog'ida 13,0 foizni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,4 foizni, yashash va ovqatlanishda 8,0 foizni, tashish va saqlashda 4,3 foizni tashkil qilgan. O'zbekiston Respublikasi boshqa davlatlar singari raqamli texnologiyalarga investitsiyalarni jalb etish, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining istiqboldagi rivojini ta'minlash – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini qamrab olgan ushbu sohani barqaror rivojlantirishda tizimli, klasterli yondashuv zarur ekanligini ko'rsatib berdi.

⁸³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Hududlar bo'yicha faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar va firmalar sonining o'zgarishi (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz, 1-yanvar holatiga), ming birlik⁸⁴

	2015-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2023-yilda 2015-yilga nisbatan o'zgarish, marta
O'zbekiston Respublikasi	196,0	334,8	411,2	462,8	523,6	2,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9,3	14,7	18,3	20,0	22,7	2,4
<i>viloyatlar:</i>						
<i>Andijon</i>	20,9	25,8	31,7	35,0	39,0	1,9
<i>Buxoro</i>	9,4	20,0	24,8	27,7	30,1	3,2
<i>Jizzax</i>	7,5	14,0	17,7	19,5	22,5	3,0
<i>Qashqadaryo</i>	15,8	20,3	25,3	32,2	36,4	2,3
<i>Navoiy</i>	6,3	14,9	17,9	20,5	22,8	3,6
<i>Namangan</i>	13,1	21,5	26,5	29,0	32,3	2,5
<i>Samarqand</i>	12,8	25,6	33,1	40,7	47,9	3,7
<i>Surxondaryo</i>	9,1	15,5	21,6	24,4	27,4	3,0
<i>Sirdaryo</i>	6,4	11,0	13,4	13,8	15,0	2,3
<i>Toshkent</i>	19,0	32,6	40,2	44,2	49,1	2,6
<i>Farg'ona</i>	16,9	29,3	36,1	40,4	46,4	2,7
<i>Xorazm</i>	10,4	15,5	18,9	22,0	25,6	2,5
<i>Toshkent sh.</i>	39,1	74,1	85,7	94,6	106,0	2,7


Tahlil etilayotgan davrda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalarining 20,3 foizi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keladi. Toshkent (9,4 foiz), Farg'ona (8,9 foiz), Samarqand (9,2 foiz) va Andijon (7,5 foiz) viloyatlari ko'rsatkichlari Toshkent shahri ko'rsatkichida ikki martadan ziyodroq kam hisoblanadi. Sirdaryo (2,9 foiz), Jizzax (4,3 foiz), Navoiy (4,4 foiz), Surxondaryo (5,2 foiz), Xorazm (4,9 foiz) viloyatlari bilan bir qatorda Qoraqalpog'iston

⁸⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikasi (4,4 foiz) xududida kichik korxonlar ulushi boshqa viloyatlarga nisbatan bir muncha past hisoblanadi. Tadqiq etilayotgan davrda hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun yaratilayotgan erkinlar o‘z samarasini ko‘rsatdi.

Jumladan, hududlarda faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar soni ushbu davrda Navoiy (3,6), Samarqand (3,7), Buxoro (3,2), Jizzax (3,0), Surxondaryo (3,0), viloyatlarida uch baravardan ko‘proqqa oshgan (2.2.4-jadval).

Tadqiqot natijalariga yanada aniqlik kiritish maqsadida hududlar kesimida har ming aholiga to‘g‘ri keluvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha ma‘lumotlarni keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha eng yuqori natija Toshkent shahrida bo‘lib, 28,8 birlikka teng bo‘ldi. Keyingi o‘rinlarni Navoiy viloyati 18,1 birlik, Sirdaryo viloyati 17,9 birlik va Jizzax viloyatlari 15,6 birlik natija bilan egalladilar. Surxondaryo (8,3 birlik), Samarqand (9,7 birlik), Namangan (10,0 birlik) va Xorazm (11,4 birlik) viloyatlari esa Respublika bo‘yicha quyi ko‘rsatkichni qayd etdilar (2.2.3-rasmga qarang).



2.2.3-rasm. O‘zbekistonda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga nisbatan, birlikda, 2022-y.)⁸⁵

⁸⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni izchil amalga oshirilishi natijasida aholi daromadlari tarkibida ham uning ulushi ortib bormoqda. Jumladan, aholi jami daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi 2015–2021-yillarda 52,4 foizdan 58,5 foizga qadar oshgan (2.2.5-jadval).

2.2.5-jadval

O‘zbekiston aholisining umumiy daromadlari tarkibining o‘zgarishi va unda tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi, foizda⁸⁶

	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar	72,8	73,3	73,7	69,3	69,7	69,8	65,0	61,6
Transfertlardan mol-mulk va boshqa manbalardan olingan daromadlar	27,2	26,7	26,3	28,9	30,9	30,7	28,3	32,1
Kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar	52,4	55,2	56,1	64,2	61,8	60,3	59,4	56,9

Faqatgina Toshkent shahri (47,3 foiz) va Navoiy viloyatidan (49,8 foiz) tashqari qolgan barcha hududlarda aholi daromadlari tarkibidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 50 foizdan yuqori ko‘rsatkichga ega. Xususan, Jizzax (67,9 foiz), Buxoro (62,9 foiz), Namangan (60,5 foiz) va Xorazm (60,2 foiz) viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori hisoblanadi.

⁸⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Shunday qilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining mintaqaviy jihatlarini tahlil qilish quyidagi muammolarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

- mintaqalar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish;

- mintaqalar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini rivojlantirish evaziga aholi daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish va ularga barham berishga ko'maklashish;

- mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish;

- mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning malakasini oshirish va boshqalar. Ushbu muammolarni ijobiy hal etish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

- iqtisodiy jihatdan nisbatan past rivojlangan qishloq aholi punktlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun soliq va boshqa imtiyozlarni joriy etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlarni tashqi bozorlarda faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirish choralari ko'rish;

- bozor infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda yirik shaharlarda faoliyat yurituvchi bozor infratuzilmasi subyektlarining filiallarini tashkil etishni rag'batlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar malakasini oshirish maqsadida, biznes-maktablar, kasbiy mahorat treninglar tarmog'ini kengaytirish, shuningdek, rivojlangan davlatlar tadbirkorlari bilan online aloqalarni yo'lga qo'yish;

- kichik korxonalarining xomashyo, asbob-uskuna, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo.

2.3. Kichik biznesdagi tarkibiy o‘zgarishlarning sohadagi innovatsion faollikka ta’siri

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat turmush farovonligini barqaror rivojlantirishning asosiy unsuri sifatida baholanadi. Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha, bugungi kunda kichik biznes, xususan, kichik innovatsion biznesni rivojlantirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi, balki mamlakatlarda amalga oshirilayotgan siyosiy dasturlarda ham o‘z aksini topmoqda. Kichik biznesni rivojlantirish jamiyat tarkibida o‘rta qatlamning ulushini ortishi, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor munosabatlari tizimida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion, raqobat muhitidagi keskin o‘zgarishlarga zudlik bilan moslashuvchanlik xarakteriga ega hisoblanadi. Barqaror iqtisodiy o‘shishning samarali resurslaridan biri sifatida iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini rag‘batlantirish birinchi o‘ringa qo‘yilmoqda. Iqtisodiyotning fan, ilg‘or texnologiyalar, texnologik bazasining holati mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish bir tarafdin ta’lim tizimining rivojlanishi, ikkinchi tarafdin esa biznes muhitni takomillagstirish bilan bog‘liq. Chunki aynan qulay biznes muhit raqobatni shakllantirishga, ishlab chiqarilgan mahsulotni eksportga yo‘naltirishga yordam beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazishning ustuvor vazifasi “aqli iqtisodiyot”, jamiyatni raqamlashtirish, barqaror o‘rta tadbirkorlar sinfini shakllantirish orqali iqtisodiyotning yangi tarkibini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish innovatsion jarayonlarga tadbirkorlik sektorini keng miyosda jalb etishni taqozo etadi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, texnik taraqqiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuchlardan biri kichik tadbirkorlik

hisoblanadi. Misol uchun, ayrim manbalar AQShda kichik tadbirkorlik subyektlari xodimlariga to'g'ri keluvchi yangiliklar yirik korxonalariga nisbatan to'rt baravar, kichik biznes sohasida band bo'lgan xodimlarga to'g'ri keluvchi patentlar orqali ifodalanidigan innovatsion faollik ko'rsatkichi yirik korxonalariga nisbatan 16 baravar yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar, jumladan, Rossiyada innovatsion tovarlar va xizmatlar ishlab chiqaruvchi kichik va o'rta korxonalar ulushi 7 foizdan oshmaydi va ushbu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlari (25-30%) ko'rsatkichiga nisbatan 4,5 marta pastligicha qolmoqda⁸⁷. Rossiyada 2019 yilda kichik sanoat korxonalarining innovatsion faollik darajasi esa 5,8 foizni tashkil etgan⁸⁸. Ushbu muammo O'zbekiston kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati bilan ham bog'liq bo'lib, milliy korxonalarining innovatsion faolligi nisbatan pastligi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taqqoslaganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, daromadi o'rtacha ko'rsatkichdan past bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda firmalarning 36 foizi mahsulotga doir, 35 foizi jarayonga doir innovatsiyalarni joriy qilgan. Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 29 foiz va 20 foizni tashkil etgan. Barcha yirik korxonalarining 32 foizi mahsulotga doir innovatsiyalarni joriy etganligini ma'lum qilgan, o'rta biznesda bu ko'rsatkich 30 foizni va kichik firmalar orasida 28 foizni tashkil qilgan. Bunday qonuniyat innovatsion faoliyatning boshqa barcha ko'rsatkichlari bo'yicha ham kuzatiladi. Buni shu bilan izohlash mumkinki, innovatsiyalarni joriy etish asosan yirik moliyaviy resurslarga ega bo'lgan korxonalariga osonroq⁸⁹.

Innovatsion faollik bilan bog'liq kichik korxonalariga xos xususiyatlarga yirik korxonalariga nisbatan ularda moliyaviy mablag'lar, malakali kadrlarning yetishmasligi, bozorlarda asosan iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashish tufayli to'lov qobiliyatining pastligi kabilarni misol qilish mumkin. Fikrimizcha, kichik korxonalarining innovatsion faolligiga salbiy ta'sir qiluvchi muhim omil

⁸⁷ Власов М. В. Политика инновационного поведения малых и средних предприятий старопромышленного региона. Экономика региона, Т.16, вып. 4 (2020). С. 1336.

⁸⁸ <https://issek.hse.ru/news/392498475.html>

⁸⁹ <https://review.uz/oz/post/innovacionnaya-aktivnost-kompaniy-v-uzbekistane>

amaldagi qonunchilikda kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashda yirik korxonalariga nisbatan bir xil sharoit yaratib beruvchi huquqiy sharoitlarning mavjud emasligi hisoblanadi. Bundan tashqari kichik biznes subyektlari asosiy vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirish darajasining yuqoriligi (2020-yilda 21,3%) ham ushbu subyektlar innovatsion faolligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish omillaridan biri investitsiyalar hisoblanib, investitsiya jarayonlarini faollashtirish vazifasi tegishli tartibga soluvchi vositalarni shakllantirishdan iboratdir. Ularsiz bozor munosabatlarini rivojlantirish sari tabiiy harakatni amalga oshirib bo'lmaydi. Investitsiya siyosati milliy iqtisodiyot, tarmoqlar hamda hududlar rivojlanishi bilan uyg'un bo'lsagina o'zining kutilgan samarasini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi ham ortib bormoqda. Xususan, 2015–2022-yillarda kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 13,5 marta o'sib, 2022-yilda 100 trln. so'mni tashkil etdi. Kichik biznesning investitsiya resurslardan foydalanish holatini uning texnologik hamda moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibini tahlil qilish orqali baholash mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, 2015–2022-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'rtacha 72-74 foizi mashina, uskunalar va xo'jalik jihozlarini sotib olishga, 22-30 foizi qurilish-montaj ishlariga to'g'ri kelgan. Kichik biznes korxonalarini tomonidan asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida korxonaning o'z mablag'lari ulushi qisqarib borish tendensiyasig'isha bo'lib, 2015–2022-yillarda 53,9 foizdan 28,0 foizga (-25,9 p.p.), bank kreditlari 25,5 foizdan 12,4 foizga qadar (-13,1 p.p.) qisqargani holda, chet el investorlarining mablag'lari ulushi 4,9 foizdan 31,8 foizga (+26,9 p.p.), chet el kreditlari ulushi esa 7,6 foizdan 25,7 foizga (+18,1 p.p.) ortganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarning amaliyotga joriy etilishi natijasidir. Shu bilan bir vaqtda kichik biznes korxonalarining investitsiya

mablagʻlari tarkibida bank kreditlari ulushnig pasayib borayotganligi (-13,1 p.p.) salbiy tendensiya hisoblanadi (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

Oʻzbekistonda kichik biznes korxonalarining investitsiya resurslaridan foydalanish tarkibi, jamiga nisbatan foizda⁹⁰

	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022 yilda 2015 yilga nisbatan oʻzgarish, p.p.
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	100	100	100	100	100	100	100	100	
<i>Shundan, texnologik tarkibi boʻyicha</i>									
mashina, uskunalar va xoʻjalik jihozlarini sotib olishga investitsiyalar	72,1	75,6	74,1	73,9	74,4	71,6	63,1	57,4	-14,7
qurilish-montaj ishlari	26,1	23,0	23,5	22,1	21,3	24,4	32,3	37,0	+10,9
boshqa xarajatlar	1,8	1,4	2,5	4,0	4,3	4,0	4,6	5,6	+3,8
<i>Shu jumladan, moliyalashtirish manbalari boʻyicha</i>									
korxonaning oʻz mablagʻlari	53,9	53,0	50,8	40,3	19,9	36,9	30,7	28,0	-25,9
chet el investorlari mablagʻlari, ularning reinvestitsiyalarini qoʻshgan holda	4,9	9,7	6,1	11,9	47,6	25,3	31,6	31,8	+26,9
chet el kreditlari	7,6	2,1	3,4	5,0	15,1	23,8	23,3	25,7	+18,1
bank kreditlari	25,5	24,3	32,4	34,3	15,8	13,4	13,7	12,4	-13,1
boshqalar	8,1	10,9	7,2	8,5	1,6	0,6	0,7	2,1	-6,0

Kichik biznes korxonalarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat hududlari boʻyicha solishtirma salmogʻida ham sezilarli tafovutlar mavjud. Jumladan, 2022-yilda barcha investitsiyalarning 21,9 foizi Toshkent shahri, 10,1 foizi Toshkent, 9,2 foizi Sirdaryo va 9,1 foizi Samarqand viloyatlaridagi kichik biznes korxonalariga toʻgʻri kelgan. Shuningdek, ayrim hududlarda investitsiyalar hajmining oʻsishida barqarorlik mavjud emas. 2015–2022-yillar davomida kichik biznes korxonalarini tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi boʻyicha ayrim tarmoqlardagi oʻsish salmoqli boʻlgan: taʼlim sohasida 23,5 marta, sanoat tarmogʻida 22,5 marta, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi tarmogʻida 22,1 marta, sanʼat, koʻngil ochish va dam olish

⁹⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida tuzilgan.

tarmog'ida 21,1 marta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarmog'ida 19,6 marta⁹¹.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ko'rsatadi. Bu borada iqtisodiyotimiz oldida turgan muammoli jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-maydagi "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shartsharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ3697-sonli qarorida atroflicha aks etgan bo'lib, mamlakatimizda innovatsion tadbirkorlikni ommalashtirish ishlarini samarali tashkil etish jarayoni tizimlashtirilgan. Mazkur qarorga muvofiq faol tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyotning real sektoriga ilgari surish uchun qulay huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish lozim. Shu sababli tadbirkorlik faoliyatining innovatsion rivojlanish jarayonlariga to'la ustuvorlik berish talab etiladi.

Jahonda ro'y berayotgan globallashev jarayonlarining chuqurlashuvi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion rivojlanish omillaridan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining o'rni yuksak ahamiyat kasb etib, yangi tovar va xizmat turlarini yaratish, ishlab chiqarishda innovatsion loyihalar va ilm-fanni talab qiladigan ishlanmalarni shakllantirish, bozor segmentatsiyasini iste'molchi talablariga muvofiqlashtirish orqali segment diversifikatsiyasini ta'minlash jarayonlarida namoyon bo'ladi. O'z navbatida tadbirkorlik faoliyatida innovatsion va investitsion omillarning yuqori konsentratsiyasi iste'molchi talablarini qondirishning potensial imkoniyatlari va shart-sharoitlarini muvofiqlashtirish orqali bozor faoliyatini kengaytirish jarayonini yuzaga keltiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning potensial imkoniyatlari va uning mavjud shart-sharoitlardan maksimal foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotida ushbu faoliyat yo'nalishiga alohida ustuvorlik

⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

berilmoqda. Xususan bu borada davlat tomonidan ustuvorlik berilayotgan pul-kredit va byudjet soliq siyosatidagi imtiyozlar bilan birga, investorlar va innovatsion mahsulot (ish, xizmat)lar iste'molchilarini qidirib topish ishlarini, jumladan, innovatsion infratuzilma subyektlari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish orqali tashkil etish tizimiga ustuvorlik berilishini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

2.3.2-jadval

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining innovatsion resurslardan foydalanish holati⁹²

Ko'rsatkichlar	2015-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'zgarish	
					farqi	foizda
Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va firmalar soni, mingta	201,6	373,0	437,0	493,2	+291,6	+244,5
Joriy qilingan innovatsiyalar, birlik	884	3535	2974	1635	+751	+185,0
Ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar, mlrd so'm	1681,8	14129,1	10667	11470,1	+9788,3	+708,6
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	x
Shundan:						
korxonaning o'z mablag'lari	89,7	68,8	73,8	62,1	-27,6	x
chet el investitsiyalari	1,7	7,6	8,2	7,6	+5,9	x
tijorat banklarining kreditlari	7,0	16,4	14,3	27,6	+20,6	x
boshqa mablag'lar	1,6	7,2	3,7	2,7	+1,1	x

Mamlakatimiz kichik biznes korxonalarida innovatsion faoliyat ko'rsatkichlarini baholash orqali innovatsion salohiyatdan foydalanish darajasi tahlilini amalga oshirish mumkin. Tahlillar ko'rsatishicha, 2015–2022-yillarda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes korxonalarida mikrofirmalar soni 2,4 martaga ortgani holda, ular tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar soni 1,8 martaga ko'paygan. Mazkur iqtisodiy subyektlar tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi 6,8 martaga, texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar esa qariyb martaga 3,0 oshgan. Xususan, 2022-yilda innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalari tarkibida korxonaning o'z mablag'lari katta salmoqqa (62,1%) ega bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda kichik biznes korxonalarida tomonidan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga

⁹² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

qilingan xarajatlarni tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Jumladan, 2015–2022-yillarda ushbu sohaga sarflanayotgan mablag'lar tarkibida korxonalar o'z mablag'lari ulushi 89,7 foizdan 62,1 foizga qisqargani holda, chet el investitsiyalari ulushi 1,7 foizdan 7,6 foizga, tijorat banklari kreditlari 7,0 foizdan 27,6 foizga, boshqa mablag'lar ulushi esa 1,6 foizdan 2,7 foizgacha o'sganligini kuzatish mumkin (2.3.2-jadval). Ushbu holat mamlakatimizda kichik biznes korxonalarini innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning faollashganligi bilan izohlanadi.

2.3.3-jadval

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlik)⁹³

	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2022- yilda 2015- yilga nisbatan o'zgarish, marta +,-
O'zbekiston Respublikasi	884	818	1223	1292	4038	3535	2974	1635	+1,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	35	23	36	17	66	16	6	43	+1,2
<i>viloyatlar:</i>									
<i>Andijon</i>	28	26	131	58	81	57	22	252	+9,0
<i>Buxoro</i>	28	48	75	56	208	243	191	77	+2,8
<i>Jizzax</i>	34	38	21	27	97	128	38	7	-5,3
<i>Qashqadaryo</i>	9	3	12	8	126	35	147	269	+29,9
<i>Navoiy</i>	34	91	92	98	451	293	408	70	+2,1
<i>Namangan</i>	43	40	127	108	139	188	38	19	-2,3
<i>Samarqand</i>	53	53	39	42	38	190	178	207	+3,9
<i>Surxondaryo</i>	106	83	99	102	167	147	108	52	-2,0
<i>Sirdaryo</i>	40	76	74	83	278	112	134	16	-2,5
<i>Toshkent</i>	137	95	132	156	482	521	247	77	-1,8
<i>Farg'ona</i>	82	80	161	117	265	225	234	64	-1,3
<i>Xorazm</i>	23	18	30	12	39	20	29	181	+7,9
<i>Toshkent sh.</i>	232	144	194	306	1601	1360	1194	301	+1,3

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalarning hududiy tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, 2015–2021- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amaliyotga joriy etilgan innovatsiyalar miqdori respublikamizning barcha

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

hududlarida o‘sib borish tendensiyasiga ega bo‘lgani holda Andijon (11,5 marta), Qashqadaryo (1,8 marta), Samarqand (1,2 marta), Xorazm (6,2 marta) viloyatlarida 2022 yilda 2021 yilga nisbatan keskin oshgan. Shu bilan bir vaqtda Buxoro (2,5 marta), Navoiy (5,8 marta), Sirdaryo (8,4 marta), Toshkent (3,2 marta), Farg‘ona (3,7 marta) viloyatlari va Toshkent shahrida (4,0 marta) keskin qisqarganligini kuzatish mumkin. 2015–2022-yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar Qashqadaryo (29,9 marta), Andijon (9,0 marta), Xorazm (7,9 marta) viloyatlarida keskin oshganligi, Jizzax (5,3 marta), Sirdaryo (2,5 marta) viloyatlarida esa ikki martadan ko‘proqqa qisqargan (2.3.3-jadval).

2.3.4-jadval

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning innovatsion faollik darajasi, foiz hisobida⁹⁴

	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
O‘zbekiston Respublikasi	1,0	0,9	1,3	1,9	1,8	0,25	0,25
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1,1	0,6	0,6	0,4	0,6	0,05	0,05
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	0,2	0,4	0,4	0,5	0,5	0,04	0,05
Buxoro	0,9	0,8	1,4	1	1,2	0,13	0,14
Jizzax	0,8	0,6	0,5	0,9	0,7	0,18	0,20
Qashqadaryo	0,2	0,1	0,5	0,7	0,8	0,14	0,14
Navoiy	1,8	2,5	3,8	4,8	2,4	1,04	1,02
Namangan	0,7	1,1	1,2	0,9	1,5	0,08	0,10
Samarqand	1,9	0,2	1,4	0,9	1,6	0,12	0,13
Surxondaryo	2,2	1,7	1,9	1,6	2,4	0,47	0,48
Sirdaryo	2,3	1,8	2,4	3,2	1,8	0,54	0,62
Toshkent	0,8	0,8	1,6	1,3	2,8	0,26	0,28
Farg‘ona	1,5	2,2	2,3	1,6	2,1	0,26	0,26
Xorazm	1	0,3	0,5	0,5	0,4	0,09	0,12
Toshkent sh.	0,8	0,8	1,3	1,2	2,7	0,27	0,28


Kichik biznes rivojlanishida innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishni ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri mamlakat hududlari bo‘ylab innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish hisoblanadi. Respublika

⁹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faollik darajasi⁹⁵ 2016–2022-yillarda 1,0 foizdan 1,8 foizga qadar oshgani holda yuqorida qayd etib o'tilgan omillar ta'sirida 2021–2022-yillarda 0,25 foizlik ko'rsatkichni qayd etdi (2.3.4-jadval).

Tahlillar, kichik biznes subyektlarining innovatsion faollik darajasi dinamikasi va mintaqalar kesimida keskin tafovutlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2022-yilda Navoiy (1,02), Sirdaryo (0,62), Surxondaryo (0,48), Toshkent (0,28), Farg'ona (0,26) viloyatlari va Toshkent shahrida (0,28) innovatsion faollik darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi (2.3.4-jadval).

Ushbu holat innovatsion salohiyati nisbatan yuqori kichik korxonalarining salmoqli qismi mamlakatning sanoatlashgan markaziy (poytaxt va uning atrofi) hududlarida, viloyat markazlari va yirik shaharlarda joylashganligi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, olis aholi punktlaridagi innovatsion kichik biznes korxonalarini tashkil etish hal etilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.



2.3.1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari⁹⁶

⁹⁵ Innovatsion faollik darajasi innovatsion faoliyatni amalga oshirayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining jami kichik tadbirkorlik subyektlari soniga nisbati sifatida hisoblanadi.

⁹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ta'siri o'laroq kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligi oshib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda ushbu faoliyatning susayishiga sabab bo'layotgan COVID-19 sanitar inqirozi, Rossiya-Ukraina munosabatlari bilan bog'liq xalqaro iqtisodiy sanksiyalar kabi tashqi omillar ta'sirini e'tiborga olish zarur. Tahlillarga ko'ra, 2015-2020-yillarda innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlari soni 2036 nafardan 6639 nafarga (3,3-marta) oshgani holda 2021-2022-yillarda ularning soni mos ravishda 1038 va 1224 nafarga qadar qisqargan. Natijada innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi bir nafar kichik biznes subyektiga to'g'ri keluvchi innovatsiyalar soni 2015-2020-yillarda 4 tadan 10 tagacha oshgani holda 2022-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1,3 tagacha kamaygan. Bir nafar kichik korxonadan tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar miqdori esa 2015-2022-yillarda 8,6 mln. so'mdan 42,2 mln. so'mga oshgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 24,8 mln. so'mga tenglashdi (2.3.1-rasm).

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, kichik korxonlarga innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi tizimning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu turdagi islohot dasturlariga ustuvorlikning qaratilishi mamlakatimizda kichik innovatsion biznesni rivojlantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zamin yaratadi. Ammo sohani rivojlantirishning potensial imkoniyatlaridan tegishli tartibda foydalanish imkoniyatining mavjud emasligi, bu boradagi tizimli islohotlarni amalga oshirish jarayonida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion menejmentni rivojlantirish, yangi va talab yuqori bo'lgan mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqish bo'yicha innovatsion loyihalar-startaplarni, jumladan, xorijda qo'llaniladigan ilg'or uslub va texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqish, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot (ish, xizmat)lar bozorlarini shakllantirish bilan bog'liq innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishni talab etadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining iqtisodiy o‘shirishga ta’sirini o‘rganish kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini quyidagi omillar hisobiga amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatmoqda:

– kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor kon’yunkturasini o‘zgarishlari va iste’molchilar ehtiyojiga nisbatan tez moslasha olish xususiyatlariga ega ekanligi innovatsion texnologiyalarni joriy etishda yirik korxonalariga nisbatan tavakkalchilik darajasining pastligi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etilishi ularni yuqori transaksion xarajatlarining kamaytirib, rentabellik ko‘rsatkichlarini oshirishini kuzatish imkonini beradi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining yangiliklarni tezkorlik bilan o‘zlashtira olish salohiyati ularga innovatsiyalarni tijoratlashtirishdan yuqori daromad olish imkonini beradi;

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga boshqaruvning innovatsion texnologiyalarini joriy etilishi ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini kamaytirish, tovar va xizmatlar nomenklaturasini oshirish, shuningdek, yangi tovarlar turlarini sotish hajmlarini kengaytirish va mahsulotlarni sotishning istiqbolli bozorlarini o‘zlashtirish hisobiga ularning eksport salohiyati va raqobatbardoshlik qobiliyatini oshirishdan iborat bo‘ladi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarini tahlil etish ushbu jarayonlarni shartli to‘rtta bosqichga bo‘lish imkonini berdi. Birinchi bosqichda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanirishning huquqiy-institutsional asoslari yaratilgan bo‘lsa, ikkinchi bosqich milliy iqtisodiyotni import o‘rnini qoplashni kengaytirish hisobiga rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining faollashuvi bilan ajralib turadi. Uchinchi bosqich iqtisodiyotni chuqur modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish

jarayonlarining kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'siri sifatida baholansa, to'rtinchi bosqich kichik biznes sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini yanada erkinlashtirish, innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining mintaqaviy jihatlarini tahlil qilish quyidagi muammolarga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

- mintaqalar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish;

- mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning malakasini oshirish va boshqalar.

Ushbu muammolarni ijobiy hal etish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

- iqtisodiy jihatdan nisbatan past rivojlangan qishloq aholi punktlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun soliq va boshqa imtiyozlarni joriy etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlarni tashqi bozorlarda faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirish choralari ko'rish;

- bozor infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda yirik shaharlarda faoliyat yurituvchi bozor infratuzilmasi subyektlarining filiallarini tashkil etishni rag'batlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar malakasini oshirish maqsadida, biznes-maktablar, kasbiy mahorat treninglar tarmog'ini kengaytirish, shuningdek, rivojlangan davlatlar tadbirkorlari bilan onlayn aloqalarni yo'lga qo'yish;

- kichik korxonalarining xomashyo, asbob-uskuna, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo.

3. Tahlillar kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirish bilan bog‘liq quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

innovatsiyalarga talabning pastligi tufayli innovatsion faoliyatni amalga oshirish zaruriyatining yuqori emasligi;

innovatsion g‘oyalarning yetishmasligi va iste’molchilar to‘g‘risida axborotlarning kamligi;

yangicha fikrlaydigan, malakali kadrlarning yetishmasligi, innovatsion menejment va marketingning rivojlanmaganligi;

innovatsiya sohasida ilm-fan va biznes hamkorligining sust yo‘lga qo‘yilganligi;

kichik tadbirkorlik subyektlarining yoshi (aksariyat kichik tadbirkorlik subyektlari soliq va boshqa imtiyozlar davri (3-4 yil) tugagandan so‘ng o‘z faoliyatlarini to‘xtatib qo‘ymoqda);

kichik tadbirkorlik subyektlari o‘z mablag‘larining yetishmasligi;

yangiliklarni amaliyotga joriy etish qiymatining yuqoriligi va iqtisodiy risklar;

davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash miqyosining yetarli emasligi.

4. O‘zbekistonda korxonalar innovatsion faoliyatiga nisbatan kam urg‘u berayotganini hisobga olib davlat xususiy sektorni innovatsiyalarni amalga oshirish uchun rag‘batlantirishni boshlashi kerak. Bu korxonalarining eksport faoliyatini yoki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag‘batlantirish (energiya tejash, mehnat unumdorligi, suvni tejash, kapital samaradorligi va boshqalar) chora-tadbirlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, firmalarning hajmi va yoshini oshirishni rag‘batlantiradigan qo‘shimcha mexanizmlarni yaratish lozim, chunki u innovatsiyalarga sarmoya kiritish uchun zarur resurslarga faqat tajribali va yirik firmalar ega bo‘ladi.

5. Fikrimizcha, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo‘nalishlari shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni tijoratlashirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar oqimini shakllantirish;

– tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga maksimal darajada ta’sirchanligini ta’minlaydigan sharoitlarni (soliq rejimi, bojxona siyosati, shu jumladan qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni) yaratish;

– tadbirkorlik faoliyatining innovatsion siklidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan amaliy va fundamental tadqiqotlar olib borish;

– ilg‘or texnologiyalarni tijoratlashirish sohasidagi mavjud vaziyatni tubdan o‘zgartirish zaruriyatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi innovatsion infratuzilmalar faoliyatini shakllantirish va boshqalar.

III BOB. O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI JADALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

3.1. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini ekonometrik modellashtirish va uni rivojlantirishning istiqbollari

Kichik biznesning hajmini oshishiga ta’sir etuvchi omillarni ta’sirini ko‘p omilli ekonometrik model asosida tadqiq etish, modellarni turli testlar orqali tekshirish hamda uning statistik ahamiyatligini aniqlash, xozirgi raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha yo‘nalishlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Tahlilda 2010-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan davrdagi kichik biznes faoliyatiga oid makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida ko‘p omilli ekonometrik model tuzilib, investitsiyalarning tarkibiy o‘zgarishlarga ta’siri miqdoriy baholandi.

Mamlakatimizda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishiga ta’sir etuvchi ekzogen omillarni aniqlash uchun natijaviy hamda ta’sir etuvchi quyidagi omillar tanlab olindi: *smb_ind* – sanoat sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m), *smb_sales* – savdo sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar hajmi (mlrd so‘m), *smb_agr* – qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (mlrd so‘m), *smb_serv* – kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar hajmi (mlrd so‘m), *Invest* – mamlakat bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd so‘m), *E_com* – axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi, *IT* – iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha “Axborot va aloqa” sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlik), *Sales* – ulgurji savdo tovar aylanmasi (mlrd so‘m), *Prod* – iste’mol mollari ishlab chiqarish (amaldagi narxlarda, mlrd so‘m), *ind_prod* – sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so‘m).


Bu yerda quyidagi ilmiy farazlar (gipotezalar)ni tekshirib ko‘rish maqsad qilib olingan:

N_0 – kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining oshishi tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sir etmaydi.

N_1 – kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining oshishi tarkibiy o‘zgarishlarga ijobiy ta’sir etib, tarmoqlarning mamlakat YIMdagi ulushini o‘zgartirishga va iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarga xizmat qiladi.

N_2 – kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining oshishi tarkibiy o‘zgarishlarga salbiy ta’sir etib, iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarga to‘liq xizmat qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida ko‘p omilli ekonometrik model tuzishdan oldin «Eviews 10» dasturidan foydalangan holda omillar bo‘yicha tavsifiy statistika o‘tkazildi.



3.1.1-rasm. O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillari⁹⁷

Hisob-kitob ma’lumotlariga ko‘ra har bir omilning o‘rtacha qiymatini (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Devation) – standart chetlanish koeffitsienti har bir

⁹⁷ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

3.1.1-jadval

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini etishda tanlab olingan omillarining normal taqsimoti⁹⁸

Skewness/Kurtosis tests for Normality					
Variable	Obs	Pr(Skewness)	Pr(Kurtosis)	adj chi2(2)	joint Prob>chi2
ehat	13	0.8754	0.4877	0.53	0.7681

```
. hist ehat, norm
(bin=3, start=-14922.497, width=9774.665)
```

Tanlab olingan omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 3.1.1-rasmda keltirilgan.

Normal taqsimot funksiyasi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$p(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi\sigma}} \cdot e^{-\frac{(x-a)^2}{2\sigma^2}}, \quad -\infty < x < \infty, \quad (2.1.)$$

Tadqiqot natijalariga ko'ra barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunadi. Barcha omillarning asimmetriya koeffitsientlari musbat bo'lganligi sababli ular grafiklarining o'ng «dumi» nazariy normal taqsimot grafiklaridan o'ngga surilgan. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan. Umuman olganda, o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysungan.

⁹⁸ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

3.1.2-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini etishda tanlab olingan omillarining normal taqsimoti⁹⁹

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	12
Model	1.9683e+10	3	6.5609e+09	F(3, 8)	=	232.29
Residual	225955464	8	28244433	Prob > F	=	0.0000
Total	1.9909e+10	11	1.8099e+09	R-squared	=	0.9887
				Adj R-squared	=	0.9844
				Root MSE	=	5314.5

smb_ind	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
invest L1.	-.2891629	.1118117	-2.59	0.032	-.5470012	-.0313246
prod	2.432523	.547214	4.45	0.002	1.170646	3.694401
ind_prod	-.4105252	.1824052	-2.25	0.055	-.8311524	.0101019
_cons	-7768.125	4786.702	-1.62	0.143	-18806.28	3270.031

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_ind = -0,28 invest_{t-1} + 2,43 prod - 0,41Ind_prod - 7768,125$$

Yuqoridagi regression modelni interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalar hajmining keyingi yilga o‘zgarishi kichik biznesning sanoat tarmog‘iga ta’siri salbiy ekanligi ko‘rinadi. Mamlakatda iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi sanoat sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmining 2,4 birlikka ortishiga olib keladi.

⁹⁹ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

3.1.3-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini etishda tanlab olingan omillarining normal taqsimoti¹⁰⁰

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	12
Model	5.3017e+10	3	1.7672e+10	F(3, 8)	=	949.05
Residual	148968674	8	18621084.3	Prob > F	=	0.0000
Total	5.3166e+10	11	4.8333e+09	R-squared	=	0.9972
				Adj R-squared	=	0.9961
				Root MSE	=	4315.2

smb_sales	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
invest					
L1.	-.1222057	.090787	-1.35	0.215	-.3315608 .0871494
prod	2.774425	.4443173	6.24	0.000	1.749828 3.799023
ind_prod	-.4396446	.1481062	-2.97	0.018	-.7811781 -.098111
_cons	-3509.614	3886.624	-0.90	0.393	-12472.18 5452.957

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_ind = -0,12 invest_{t-1} + 2,77 prod - 0,43Ind_prod - 3509,61$$

Yuqoridagi regression modelni interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, mamlakat bo‘yicha iste‘mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi sanoat sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmining 2,8 birlikka ortishiga olib keladi.

3.1.4-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirini etishda tanlab olingan omillarining normal taqsimoti¹⁰¹

smb_agr	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
invest					
L1.	-.3947293	.131669	-3.00	0.017	-.6983586 -.0910999
prod	3.93873	.6443969	6.11	0.000	2.452748 5.424712
ind_prod	-.4870209	.2147996	-2.27	0.053	-.9823497 .0083079
_cons	2410.127	5636.801	0.43	0.680	-10588.36 15408.61

¹⁰⁰ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

¹⁰¹ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_agr = -0,39 invest_{t-1} + 3,93 prod - 0,48Ind_prod + 2410,12$$

Ko'p omilli ekonometrik model uchun zarur omillarni tanlash maqsadida korrelyatsion tahlil o'tkazish zarur. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsientlari hisoblanadi. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsientlari matritsasi quyidagi 3.1.5-jadvalda keltirilgan.

3.1.5-jadval

O'zbekistonda kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini tahlil etishda tanlab olingan omillarining normal taqsimoti¹⁰²

smb_serv	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
invest						
L1.	-.1788406	.1003515	-1.78	0.113	-.4102515	.0525703
prod	2.144372	.4911266	4.37	0.002	1.011832	3.276913
ind_prod	-.3247099	.1637094	-1.98	0.083	-.7022243	.0528046
_cons	-1902.2	4296.083	-0.44	0.670	-11808.99	8004.586

3.1.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari natijaviy va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsientlari qiymati 0,7 dan katta.

Bu yerda asosiy masala ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi shartidir. Ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lmasligi lozim bo'lib, ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsienti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikolleniarlik mavjud hisoblanadi. Barcha ta'sir etuvchi omillar o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsientlariga qiymatlari 0,5 dan kichik. Bu esa ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud emasligidan dalolat beradi.

¹⁰² Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’sirining ma’lumotlari bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning parametrlari hisoblangan.

3.1.7-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’siri bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari¹⁰⁴

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	13
				F(2, 10)	=	228.16
Model	2.2144e+10	2	1.1072e+10	Prob > F	=	0.0000
Residual	485270643	10	48527064.3	R-squared	=	0.9786
				Adj R-squared	=	0.9743
Total	2.2629e+10	12	1.8858e+09	Root MSE	=	6966.1

smb_ind	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
sales	-.366094	.1833021	-2.00	0.074	-.7745165	.0423286
prod	1.180629	.207733	5.68	0.000	.7177715	1.643487
_cons	580.9112	4040.416	0.14	0.889	-8421.697	9583.519

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_ind = -0,36 sales + 1,18 prod + 580,91$$

Yuqoridagi regression modelni interpretatsiya qiladigan bo‘lsak, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining 1 birlikka oshishi sanoat sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmining 0,36 birlikka kamayishiga hamda iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 1 birlikka oshishi esa sanoat sohasida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmining 1,2 birlikka ortishiga olib keladi.

¹⁰⁴ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

3.1.8-jadval

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari¹⁰⁵

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	13
Model	1.3381e+11	2	6.6903e+10	F(2, 10)	=	984.04
Residual	679873660	10	67987366	Prob > F	=	0.0000
Total	1.3448e+11	12	1.1207e+10	R-squared	=	0.9949
				Adj R-squared	=	0.9939
				Root MSE	=	8245.4

smb_agr	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
ind_prod	-.6695378	.248191	-2.70	0.022	-1.222542 - .1165338
prod	3.919552	.7488122	5.23	0.000	2.251095 5.58801
_cons	6898.275	5629.386	1.23	0.249	-5644.78 19441.33

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_agr = 3,91 prod - 0,66Ind_prod + 6898,275$$

3.1.9-jadval

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari¹⁰⁶

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	13
Model	5.9600e+10	2	2.9800e+10	F(2, 10)	=	1621.28
Residual	183805670	10	18380567	Prob > F	=	0.0000
Total	5.9784e+10	12	4.9820e+09	R-squared	=	0.9969
				Adj R-squared	=	0.9963
				Root MSE	=	4287.3

smb_sales	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
prod	2.663041	.3893483	6.84	0.000	1.795519 3.530563
ind_prod	-.4625519	.129048	-3.58	0.005	-.7500888 -.1750149
_cons	-1048.281	2927.025	-0.36	0.728	-7570.099 5473.536

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

¹⁰⁵ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

¹⁰⁶ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

$$smb_sales = 2,66 prod - 0,46Ind_prod - 1048,281$$

3.1.10-jadval

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'siri bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari¹⁰⁷

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	13
				F(2, 10)	=	125.36
Model	1.2933e+11	2	6.4663e+10	Prob > F	=	0.0000
Residual	5.1583e+09	10	515825231	R-squared	=	0.9616
				Adj R-squared	=	0.9540
Total	1.3448e+11	12	1.1207e+10	Root MSE	=	22712

smb_agr	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]	
sales	.8688668	.4554709	1.91	0.086	-.1459855	1.883719
e_com	10.9313	6.254822	1.75	0.111	-3.005309	24.86791
_cons	35290.01	10809.32	3.26	0.009	11205.34	59374.68

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_agr = 0,868 sales + 10,93 e_com + 35290,01$$

Ko'p omilli ekonometrik modellarning statistik jihatdan ahamiyatligini tekshirishda Fisherning F-mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan F-mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar $F_{hisob} > F_{jadval}$ bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik modellar (2.4) va (2.5) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkichlarning elektrotexnika mahsulotlari hajmlarini kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

¹⁰⁷ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

3.1.11-jadval

O‘zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o‘zgarishlarga ta’siri bo‘yicha ko‘p omilli ekonometrik modelning hisoblangan parametrlari¹⁰⁸

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	13
				F(2, 10)	=	332.26
Model	3.0057e+10	2	1.5028e+10	Prob > F	=	0.0000
Residual	452303908	10	45230390.8	R-squared	=	0.9852
				Adj R-squared	=	0.9822
Total	3.0509e+10	12	2.5424e+09	Root MSE	=	6725.4

smb_serv	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
invest	.224168	.0558996	4.01	0.002	.099616 .34872
e_com	6.798951	1.08786	6.25	0.000	4.375048 9.222855
_cons	11414.13	3003.941	3.80	0.003	4720.929 18107.32

Ushbu regression modelning tenglamasini quyidagicha keltirish mumkin:

$$smb_serv = 6,79 e_com + 0,22 Invest + 11414,13$$

Ceteris paribus sharoitida, mamlakatimizda axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohalarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining 1 birlikka oshishi kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarish hajmining 6,8 birlikka ortishiga hamda milliy iqtisodiyot miqyosida asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalar hajmining 0,22 birlikka ortishiga olib keladi.

Ushbu modellarni avtokorrelyatsiyaga tekshirishda, Breush-Godfri testi o‘tkaziladi. Agar qo‘shni kuzatuvlarda korrelyatsiya mavjud bo‘lsa, ushbu tenglamada

$$e_t = p * e_{t-1} + v_t, t = 1, \dots, n$$

(bu yerda e_t – eng kichik kvadratlar usuli orqali olingan regressiya qoldiqlari) p koeffitsienti noldan farqli bo‘ladi.

Modelning avtokorrelyatsiyaga Breush-Godfri testi orqali tekshiruv natijalari ushbu jadvalda keltirilgan (3.1.11-jadval).

¹⁰⁸ Muallifning Eviews10 dasturidagi hisob-kitoblari

Ushbu jadvaldagi ikkala lag ham (resid (-1) hamda resid (-2)) qiymati mos ravishda 0,20 va 0,34 ga teng bo'lib, tasodifiy chetlanishlarning avtokorrelyatsiyasi mavjud emas degan xulosaga kelamiz.

Modelning getoskedodastlikka tekshiruv Uayt testi natijalari ham modelni adekvatligini tasdiqlamoqda. Ushbu test natijalariga ko'ra, regressiya qiymatlari (p) 0,05 dan katta bo'lib, geteroskedotastiklik mavjud emasligi to'g'risidagi H_0 gipotezani rad etamiz, muqobil gipoteza geteroskedotastiklik mavjud hisoblanadi.

Ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollenearlik mavjud emasligini tekshirishning yana bitta usuli - bu VIF (Variance Inflation Factors - multikollinearlik samarasini) koeffitsientlarini hisoblashdir. Har bir omil bo'yicha hisoblangan VIF koeffitsientlari hisoblandi.

O'zgaruvchi omillar hisoblangan determinatsiya koeffitsienti (R^2 - R-squared) 0,8896 ga teng. Bu esa mazkur omillar elektrotexnika mahsulot hajmining 88,96 foizi ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 11,04 foizi esa hisobga olinmagan omillar ta'siridir.

3.1.12-jadval

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirining ekonometrik tahlili

Yillar	Sanoat (mlrd so'm)	Sanoat (mlrd so'm)	Savdo (mlrd so'm)	Savdo (mlrd so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd so'm)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd so'm)	Xizmatla r (mlrd so'm)	Xizmatla r (mlrd so'm)
	<i>Iner-sion ssenariy</i>	<i>Inno- vatsion ssenariy</i>	<i>Iner-sion ssenariy</i>	<i>Inno- vatsion ssenariy</i>	<i>Iner- sion ssenariy</i>	<i>Inno- vatsion ssenariy</i>	<i>Iner-sion ssenariy</i>	<i>Inno- vatsion ssenariy</i>
2023	103888,1	138260,5	143743,4	232169,1	220149,0	358160,9	104895,8	179997,3
2024	109647,9	150410,8	151444,8	261094,1	231920,5	401757,6	110419,1	195133,7
2025	115407,8	163901,6	159146,2	290382,1	243692,0	445921,0	115942,5	219224,7
2026	121167,6	177392,4	166847,6	319670,2	255463,5	490084,4	121465,8	243315,6
2027	126927,4	190883,2	174549,0	348958,2	267235,0	534247,7	126989,1	267406,6
2028	132687,3	204374,0	182250,4	378246,3	279006,5	578411,1	132512,4	291497,5
2029	138447,1	217864,8	189951,8	407534,3	290778,0	622574,5	138035,7	315588,5
2030	144206,9	231355,6	197653,2	436822,4	302549,4	666737,9	143559,0	339679,4

Xulosa qiladigan bo'lsak, biz N_1 gipotezani, ya'ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining oshishi innovatsion iqtisodiyot sharoitida tarkibiy o'zgarishlarga ijobiy ta'sir etib, tarmoqlarning

mamlakat YIMdagi ulushini o'zgartirishga va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarga xizmat qiladi degan gipotezani qabul qilamiz.

Shuningdek, N_0 va N_2 – gipotezalarni tekshirish natijalariga ko'ra ularni rad etamiz.

Prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo'lgan trend funksiyasi orqali kichik biznes sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni o'sishini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirining obyektiv sharoitlarini aks ettiradigan alohida kichik biznes bilan boshqa tarmoqlarning munosabatlarining mavjudligi tartibga solishning mustaqil predmeti bo'lishini taqozo etadi.

O'zbekistonda innovatsiyalar jarayonida kichik biznes rivojlanishining tarkibiy o'zgarishlarga ta'sirini inobatga olgan holdagi prognozi shuni ko'rsatmoqdaki, inersion ssenariy bo'yicha 2030-yilda sanoat tarmog'idagi kichik biznes subyektlari hajmi 144206,9 mlrd so'm, innovatsion ssenariy sanoat tarmog'idagi kichik biznes su'bektleri hajmi 231355,6 mlrd so'mga yetishi aniqlangan. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyot sharoitida savdo s'hasidagi kichik biznes subyektlarining savdo haylanmasi hajmi inersion ssenariy bo'yicha 2030-yilda 197653,2 mlrd so'm, innovatsion ssenariy bo'yicha 436822,4 mlrd so'mga yetishi aniqlangan.

3.2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi va YIM o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish va uning istiqbollari

Mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalar miqdori ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga qaratilayotgan e'tibor natijasida uning YIMdagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda (3.2.1-jadval).

O'zgarmas narxlarda yalpi ichki mahsulot va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori¹⁰⁹

Yillar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd so'm (X₁)	Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm (X₂)	Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yalpi ichki mahsuloti hajmi, mlrd so'm (Y)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi, foiz (= $\frac{X_1}{Y} \times 100\%$)
1	2	3	4	5
2000	12710,4	5361,502	41001,22	31,0
2001	14435,5	5575,962	42708,45	33,8
2002	15364,3	5776,697	44405,46	34,6
2003	16199,7	6053,978	46284,98	35,0
2004	17704,9	6495,919	49732,75	35,6
2005	20318,3	6866,186	53189,18	38,2
2006	24061,2	7504,741	57152,52	42,1
2007	28592,9	9440,964	62566,59	45,7
2008	32880	12660,33	68215,82	48,2
2009	36927,6	15800,1	73707,83	50,1
2010	47993,5	16463,7	78936,62	60,8
2011	52538,7	16891,76	84876,71	61,9
2012	55270,3	18682,28	90905,03	60,8
2013	59400,6	20793,38	97537,96	60,9
2014	64526,1	22831,13	104242,6	61,9
2015	72201,9	24977,26	111767,6	64,6
2016	79089,7	26001,33	118397,8	66,8
2017	80711,9	31045,58	123601,7	65,3
2018	81257,7	40328,21	130220,6	62,4
2019	77087,2	55693,26	137655,7	56,0
2020	78121,6	53242,76	140254,2	55,7
2021	82713	54786,8	150661,2	54,9

Umuman, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar miqdori

¹⁰⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

YIMga nisbatan funksiya deb olindi. Buning uchun ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti hisoblandi. O'zgaruvchilar o'rtasidagi korrelyatsiya matritsasi quyidagicha:

3.2.2-jadval

O'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya matritsasi¹¹⁰

	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi, mlrd so'm (X1)</i>	<i>Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd so'm (X2)</i>	<i>Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yalpi ichki mahsuloti hajmi, mlrd so'm (Y)</i>
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi, mlrd so'm (X1)	1		
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi, mlrd so'm (X2)	0,873607	1	
Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yalpi ichki mahsuloti hajmi, mlrd so'm (Y)	0,97994	0,948326	1

Keyingi bosqichda YIM hajmini natijaviy ko'rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritamiz va "Y" bilan belgilaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi (X_1) hamda asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi (X_2) funksiyaga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi. 3.2.1-jadval ma'lumotlari asosida Microsoft Excel dasturi yordamida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (3.2.3-jadval).

3.2.3-jadval

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);b);c);¹¹¹

<i>Regression statistika</i>	a)
Ko'p miqdorli R	0,998105
R-kvadrat	0,996214
Norma R-kvadrat	0,995815
Sandart xatolik	2313,16
Kuzatuvlar	22

¹¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

3.2.3-jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, R korrelyatsiya koefficienti bo‘lib, u omillar o‘rtasidagi bog‘lanish zichligini ko‘rsatadi. Omil ko‘rsatkichlar - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi hamda natijaviy ko‘rsatkich – YIM hajmi o‘rtasidagi bog‘lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmas bo‘lgan holatda 0,998 ga teng ekan. Bu ko‘rsatkich ushbu omillar o‘rtasida juda kuchli bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Dispersion analiz				b)
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>
Regressiya	2	2,68E+10	1,34E+10	2499,726
Qoldiq	19	1,02E+08	5350708	
Jami	21	2,69E+10		

c)

	<i>Koeffitsientlar</i>	<i>Standart xatolik</i>	<i>t-statistika</i>	<i>Past 95%</i>	<i>Yuqori 95%</i>
Ozod had (a)	27521,34	1085,403	25,35588	25249,57	29793,11
O‘zgaruvchi (X_1)	0,867622	0,039346	22,05103	0,785269	0,949974
O‘zgaruvchi (X_2)	0,844981	0,062926	13,42825	0,713276	0,976686

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzamiz:

$$Y = 27521,34 + 0,867622 \times X_1 + 0,844981 \times X_2$$

$$R = 0,998 \quad D = R^2 = 0,996 \quad F = 2499,7$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining 1 mlrd so‘mga o‘sishi yalpi ichki mahsulot hajmini 0,867622 mlrd so‘mga o‘shiga, asosiy kapitalga sarflanayotgan

investitsiyalar hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shisi esa yalpi ichki mahsulot hajmining 0,844981 mlrd so‘mga o‘shiga olib kelar ekan.

Prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga sarflanayotgan investitsiyalar hajmini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz. Bunda trend $y=a_0+b_1 \times t$ funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funktsiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra o‘zgaruvchilar yillar (t) hisoblanadi (3.2.4-jadval).

3.2.4-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar sonining istiqbolli davr uchun o‘shish funksiyasi¹¹²

	a_0	b_1	Y	R (korrelyatsiya koef-ti)	F (Fisher mezon)	t-(Styudent mezon)
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd so‘m (Y1)	1967,185	3979,561	$Y= 1967,185+ 3979,561 \times t$	0,98	490,8	30,39
Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so‘m (Y2)	-5803,47	2335,771	$Y= -5803,47+ 2335,771 \times t$	0,92	110,4	14,19

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyatsiya koeffitsientining ahamiyatligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Styudentning t-mezonidan foydalaniladi.

Yuqorida ta’kidlaginmizdek, t-mezonning haqiqiy va Styudent jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo‘lishi uchun:

¹¹² Muallif ishlanmasi.

$t_{haqiqiy} > t_{jadval}$ bo'lishi kerak

Styudentning t -mezoni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi (d.f. = $n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni .

3.2.4-jadval ma'lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi d.f.=22-2-1=19 bo'lganda, t -mezonning jadval qiymati $t_{jadval} = 2.0739$ ga teng. Barcha hisoblangan t -mezonning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

Endi 3.2.4-jadvaldagi funksiyalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz (3.2.5-jadval).

3.2.5-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini trend funksiyasi orqali aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari¹¹³

Yillar	t	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi, mlrd so'm (X1)	Asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi, mlrd so'm (X2)
2022	23	93497,08	47919,27
2023	24	97476,64	50255,04
2024	25	101456,2	52590,82
2025	26	105435,8	54926,59
2026	27	109415,3	57262,36
2027	28	113394,9	59598,13
2028	29	117374,4	61933,9
2029	30	121354	64269,67
2030	31	125333,6	66605,44

Yuqorida, mamlakatda YIM hajmining oshishiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi va asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi ta'sir qilishi hamda ular yalpi ichki mahsulotga

¹¹³ Muallif ishlanmasi.

nisbatan funksiya deb olinib, Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzgan edik.

$$Y = 27521,34 + 0,867622 \times X_1 + 0,844981 \times X_2$$

Endi yuqorida aniqlangan sifatida X_1 - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi, mlrd so‘m, X_2 - asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m deb modelga kiritib, yalpi ichki mahsulotning istiqbolli davr uchun qiymatlarini aniqlaymiz (3.2.6-jadval).

3.2.6-jadval


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning istiqbolli davr uchun prognoz ko‘rsatkichlari¹¹⁴

Yillar	t	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi, mlrd so‘m (X_1)	Asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmi, mlrd so‘m (X_2)	Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yalpi ichki mahsuloti hajmi, mlrd so‘m (Y)	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi, foiz ($= \frac{X_1}{Y} \times 100\%$)
2022	23	93497,08	47919,27	149132,3	62,7
2023	24	97476,64	50255,04	154558,7	63,1
2024	25	101456,2	52590,82	159985,2	63,4
2025	26	105435,8	54926,59	165411,6	63,7
2026	27	109415,3	57262,36	170838	64,0
2027	28	113394,9	59598,13	176264,5	64,3
2028	29	117374,4	61933,9	181690,9	64,6
2029	30	121354	64269,67	187117,3	64,9
2030	31	125333,6	66605,44	192543,8	65,1

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2030-yilda prognoz qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi 192543,8 mlrd so‘mni tashkil qiladi. Agarda bu qiymatni 2021 yildagi qiymat (150661,18 mlrd so‘m) bilan taqqoslasak, yalpi ichki mahsulot hajmi 1,3 barobarga yaqin o‘sar ekan. Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘ati prognoz qilinayotgan yillarda barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘ladi va 2030-yilgacha o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 2,8 ($1,028^9 = 1,3$) foizdan yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

¹¹⁴ Muallif ishlanmasi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi yildan yilga ortib borish tendensiyasiga ega bo‘ladi (3.2.1-rasm.)



3.2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi, foiz¹¹⁵

3.2.1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 65,1 foizni tashkil etadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining o‘shish sur‘ati YIMning o‘shish sur‘atidan yuqori bo‘ladi.

Kichik biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik biznes sharoitga tez moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik biznes yirik biznes uchun qulay bo‘lmagan sohalarda rivojlanadi. Kichik biznes kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan yanada samarali foydalanish, ishsizlik muammosini xal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o‘rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Kichik korxonalar kishilarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka

¹¹⁵ Muallif ishlanmasi.

egalik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

3.2.8-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi asosiy ko'rsatkichlari hajmi¹¹⁶

Ko'rsatkichlar	Sanoat (mlrd so'm)	Qurilish (mlrd so'm)	Bandlik (ming kishi)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (mlrd so'm)	Xizmatlar (mlrd so'm)
2007	2432,4	1514,2	7743,1	9078,2	6202,7
2008	3489,5	2090,0	8071,1	11052,1	8534,7
2009	5072,3	2996,0	8370,1	13328,1	11182,1
2010	10132,9	4163,2	8643,9	31900,4	15214,1
2011	13586,8	6188,3	8950,7	46704,5	19556,5
2012	17114,6	7925,5	9239,7	56926,6	24841,8
2013	23312,0	10377,7	9604,0	67510,7	31409,1
2014	30907,0	13944,9	9950,8	82957,2	40187,9
2015	39643,5	16954,0	10170,4	101197,5	47269,6
2016	50654,5	19671,0	10397,5	118011,4	61346,2
2017	61367,8	22469,4	10541,5	152010,5	69212,7
2018	87962,0	37451,7	10128,8	191759,2	84433,4
2019	83344,2	53960,9	10318,9	219466,9	103106,6
2020	103020,8	63866,6	9865,7	253238,2	114052,7
2021	121719,2	77762,0	10070,7	307280,2	144812,7

Mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Bu borada Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "Mamlakatimizda har yili yaratilayotgan ish o'rinlarining 90 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda ushbu tarmoqda 5 milliondan ziyod aholi, ayniqsa, yoshlarimiz mehnat qilayotgani uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotimizdagi o'rni ham ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu boisdan ham agar biz iqtisodiyotimizni, ijtimoiy sohani yanada

¹¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari

yuksaltiramiz desak, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratib berishimiz zarur”¹¹⁷ deb ta’kidlab o‘tdilar.

3.2.9-jadval

Nominal YIM qiymatini real YIMga aylantirish¹¹⁸

Yillar	Nominal YIM miqdori, mlrd so‘m	YIM deflyatori: bog‘liq qatorlar (bazaviy yil = 2010 y.)	2010 yilgi narxlarda YIM miqdori (Real YIM), mlrd so‘m (4) = ((2)/(3))×100
1	2	3	4
2007	28 190,0	45,1	62566,59
2008	38 969,8	57,1	68215,82
2009	49 375,6	67,0	73707,83
2010	78 936,6	100,0	78936,62
2011	103 232,6	121,6	84876,71
2012	127 590,2	140,4	90905,03
2013	153 311,3	157,2	97537,96
2014	186 829,5	179,2	104242,6
2015	221 350,9	198,0	111767,6
2016	255 421,9	215,7	118397,8
2017	317 476,4	256,9	123601,7
2018	424 728,7	326,2	130220,6
2019	529 391,4	384,6	137655,7
2020	602 551,4	430,3	140016,2
2021	734 587,7	487,6	150661,2

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan bir vaqtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulotning o‘shishiga mazkur soha tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi va bandlar soni ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu bog‘liqlikni aniqlash maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat, qurilish, qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, xizmatlar sohasida yaratilgan mahsulotning joriy narxlardagi qiymatlari va sohada band bo‘lganlar sonini aniqlab olamiz (3.2.8-jadval).

¹¹⁷ <https://xs.uz/uzkr/post/> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqi (20.08.2021 yil).

¹¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

Hisob-kitoblarni taqqoslama narxlar asosida amalga oshirish maqsadida, dastlab nominal YIM miqdorini deflyatorlash yordamida real YIM hajmini aniqlaymiz.

3.2.9-jadvaldagi YIM deflyatori asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasida yaratilgan mahsulotlarning real qiymatini aniqlaymiz (3.2.10-jadval).

3.2.10-jadval

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni¹¹⁹

Yillar	Sanoat (mlrd so‘m)	Qurilish (mlrd so‘m)	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd so‘m)	Xizmatlar (mlrd so‘m)
2007	5398,615	3360,707	20148,7	13766,6
2008	6108,297	3658,501	19346,47	14939,8
2009	7571,923	4472,425	19896,17	16692,6
2010	10132,9	4163,2	31900,4	15214,1
2011	11170,92	5087,953	38399,93	16079,1
2012	12193,75	5646,732	40558,86	17699,2
2013	14831,29	6602,38	42950,88	19982,7
2014	17244,73	7780,635	46286,43	22423,1
2015	20017,35	8560,651	51098,06	23868,0
2016	23480,3	9118,262	54702,81	28436,3
2017	23892,07	8747,916	59181,6	26946,3
2018	26968,89	11482,58	58792,81	25887,0
2019	21671,69	14031,26	57067,18	26810,4
2020	23994,13	14874,89	58980,62	26563,5
2021	24964,16	15948,7	63022,02	29700,6

¹¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan real mahsulot miqdorini uni YIMdagi ulushidan kelib chiqib aniqlaymiz (3.2.11-jadval).

3.2.11-jadval

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan
real mahsulot miqdori, mlrd so‘m¹²⁰**

Yillar	2010 yilgi narxlarda YIM miqdori (Real YIM), mlrd so‘m	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdorining YIMdagi ulushi, foiz	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot miqdori), mlrd so‘m (=2)×(3) / 100)
1	2	3	4
2007	62566,59	45,7	28592,93
2008	68215,82	48,2	32880,03
2009	73707,83	50,1	36927,62
2010	78936,62	60,8	47993,46
2011	84876,71	61,9	52538,68
2012	90905,03	60,8	55270,26
2013	97537,96	60,9	59400,62
2014	104242,6	61,9	64526,15
2015	111767,6	64,6	72201,87
2016	118397,8	66,8	79089,75
2017	123601,7	65,3	80711,93
2018	130220,6	62,4	81257,65
2019	137655,7	56,0	77087,2
2020	140254,2	55,7	78121,57
2021	150661,2	54,9	82712,99

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini natijaviy ko‘rsatkich sifatida, mazkur soha tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi va bandlar sonini omil ko‘rsatkichlar sifatida qarab, ularning o‘zaro ta‘sirini o‘rganamiz (3.2.12-jadval).

¹²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni¹²¹

Yillar	t	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd so‘m (Y)	Sanoat (mlrd so‘m)	Qurilish (mlrd so‘m)	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (mlrd so‘m)	Bandlar soni (ming kishi)	Xizmatlar (mlrd so‘m)
2007	1	28592,9	5398,615	3360,707	20148,7	7743,1	13766,6
2008	2	32880	6108,297	3658,501	19346,47	8071,1	14939,8
2009	3	36927,6	7571,923	4472,425	19896,17	8370,1	16692,6
2010	4	47993,5	10132,9	4163,2	31900,4	8643,9	15214,1
2011	5	52538,7	11170,92	5087,953	38399,93	8950,7	16079,1
2012	6	55270,3	12193,75	5646,732	40558,86	9239,7	17699,2
2013	7	59400,6	14831,29	6602,38	42950,88	9604	19982,7
2014	8	64526,1	17244,73	7780,635	46286,43	9950,8	22423,1
2015	9	72201,9	20017,35	8560,651	51098,06	10170,4	23868,0
2016	10	79089,7	23480,3	9118,262	54702,81	10397,5	28436,3
2017	11	80711,9	23892,07	8747,916	59181,6	10541,5	26946,3
2018	12	81257,7	26968,89	11482,58	58792,81	10128,8	25887,0
2019	13	77087,2	21671,69	14031,26	57067,18	10318,9	26810,4
2020	14	78121,6	23994,13	14874,89	58980,62	9865,696	26563,5
2021	15	82713	24964,16	15948,7	63022,02	10070,7	29700,6

Umuman, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga nisbatan funksiya deb olindi. Buning uchun ushbu o‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya koeffitsienti hisoblandi. O‘zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya matritsasi esa quyidagi ko‘rinishga ega:

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining (stat.uz) ma’lumotlari asosida muallif hisob kitoblari

O'zgaruvchilar orasidagi korrelyatsiya matritsasi¹²²

	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd so'm (Y)	Sanoat, mlrd so'm (X ₁)	Qurilish, mlrd so'm (X ₂)	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, mlrd so'm (X ₃)	Bandlar, ming kishi (X ₄)	Xizmatlar, mlrd so'm (X ₅)
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot, mlrd so'm (Y)	1					
Sanoat, mlrd so'm (X ₁)	0,985181	1				
Qurilish, mlrd so'm (X ₂)	0,856271	0,874363	1			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, mlrd so'm (X ₃)	0,991446	0,973267	0,87282	1		
Bandlar, ming kishi (X ₄)	0,968381	0,934569	0,753626	0,949226	1	
Xizmatlar, mlrd so'm (X ₅)	0,952596	0,964595	0,895731	0,934475	0,91803	1

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmini natijaviy ko'rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritamiz va "Y" bilan belgilaymiz. Sanoat (X₁), qurilish (X₂), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (X₃), sohada band bo'lganlar soni (X₄), xizmatlar (X₅) funksiyaga ta'sir etuvchi omillar sifatida qabul qilindi. 3.1.6-jadval ma'lumotlari asosida Microsoft Excel dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi (3.2.14-jadval).

Ekonometrik modelning asosiy parametrlari (a);b);c);¹²³

<i>Regression statistika</i>		a)
Ko'p miqdorli R		0,998136
R-kvadrat		0,996275
Norma R-kvadrat		0,994205
Sandart xatolik		1434,327
Kuzatuvlar		15

¹²² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

¹²³ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

3.2.14-jadvalda keltirilgan R korrelyatsiya koefficienti bo'lib, u omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi. Demak, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o'zgarmas bo'lgan holatda 0,998 ga teng ekan. Bu ko'rsatkich ushbu omillar o'rtasida juda kuchli bog'lanish bor ekanligini ko'rsatadi.

Dispersion analiz				b)
	<i>df</i>	<i>SS</i>	<i>MS</i>	<i>F</i>
Regressiya	5	4,95E+09	9,9E+08	481,3988
Qoldiq	9	18515655	2057295	
Jami	14	4,97E+09		

c)					
	<i>Koeffitsientlar</i>	<i>Standart xatolik</i>	<i>t-statistika</i>	<i>Past 95%</i>	<i>Yuqori 95%</i>
Ozod had (a)	-23080,6	12541,22	-1,84038	-51450,8	5289,612
O'zgaruvchi (X_1)	0,839282	0,312897	2,682299	0,131461	1,547103
O'zgaruvchi (X_2)	0,013278	0,316571	0,041943	-0,70286	0,729412
O'zgaruvchi (X_3)	0,532209	0,167612	3,175242	0,153044	0,911373
O'zgaruvchi (X_4)	5,007641	2,06534	2,424609	0,335517	9,679764
O'zgaruvchi (X_5)	0,001363	0,371607	0,003668	-0,83927	0,841997

Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik.

$$Y = -23080,6 + 0,839282 \times X_1 + 0,013278 \times X_2 + 0,532209 \times X_3 + 5,007641 \times X_4 + 0,001363 \times X_5$$

$$R = 0,998 \quad D = R^2 = 0,996 \quad F = 481,4$$

Modeldan ko‘rinib turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining 0,839282 mlrd so‘mga, qurilish hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, yaratilgan mahsulot hajmining 0,013278 mlrd so‘mga, kichik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mahsulot hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, yaratilgan mahsulot hajmining 0,532209 mlrd so‘mga, sohada bandlar sonining 1 ming kishiga o‘shishi, yaratilgan mahsulot hajmini 5,007641 mlrd so‘mga, xizmatlar hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi esa, yaratilgan mahsulot hajmini 0,001363 mlrd so‘mga o‘shishiga olib kelar ekan.

Prognozlashning eng sodda usullaridan biri bo‘lgan trend funksiyasi orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni o‘shishini istiqbolli davr uchun prognoz qilamiz. Bunda trend $y=a_0+b_1 \times t$ funksiyasida o‘zgaruvchilarni yillar qilib olamiz hamda chiziqli funksiya hosil qilamiz. Unga ko‘ra yillar o‘zgaruvchilar (t) hisoblanadi (3.2.15-jadval).

Regression model adekvatligi regressiya tenglamasi parametrlari va chiziqli korrelyatsiya koeffitsientining ahamiyatligini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun Styudentning t-mezonidan foydalaniladi.

t-mezonning haqiqiy va Styudent jadvalidagi qiymatlarini taqqoslash orqali model adekvatligiga baho beriladi. Model adekvat bo‘lishi uchun:

$$t_{haqiqiy} > t_{jadval} \quad \text{bo‘lishi kerak}$$

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar sonining istiqbolli davr uchun o‘shish funksiyasi¹²⁴

	a_0	b_1	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida tarmoqlarning yaratgan mahsulot miqdori funksiyalari, Y	R (korelyatsiya koef-ti)	F (Fisher mezoni)	t-(Styudent mezoni)
Sanoat ishlab chiqarishning hajmi, mlrd so‘m (Y1)	3841,615	1600,14	$Y = 3841,615 + 1600,14 \times t$	0,958	144,68	16,83
Qurilishning hajmi, mlrd so‘m (Y1)	1025,295	901,31	$Y = 1025,295 + 901,3114 \times t$	0,966	181,02	18,86
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida ishlab chiqarishning hajmi, mlrd so‘m (Y1)	17580,59	3321,87	$Y = 17580,59 + 3321,867 \times t$	0,964	171,1063	18,33
Bandlar soni, ming kishi (Y1)	8031,161	179,99	$Y = 8031,161 + 179,9956 \times t$	0,885	47,12	9,43
Xizmatlarning hajmi, mlrd so‘m (Y1)	12166,69	1187,57	$Y = 12166,69 + 1187,576 \times t$	0,952	125,66	15,66

Styudentning t -mezoni hisoblangan (t_{hisob}) va jadval (t_{jadval}) qiymatlarini taqqoslab, N_0 gipoteza qabul qilinadi. Buning uchun t -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik ehtimoli (α) va ozodlik darajasi ($d.f. = n - m - 1$) shartlar asosida topiladi. Bu yerda n – kuzatuvlar soni; m – omillar soni .


3.2.6-jadval ma’lumotlariga asosan ishonchlilik ehtimoli $\alpha = 0,05$ va ozodlik darajasi $d.f. = 15 - 1 - 1 = 13$ bo‘lganda, t -mezonning jadval qiymati

¹²⁴ Muallif ishlanmasi.

$t_{\text{jadval}}=2,16$ ga teng. Barcha hisoblangan t -mezoning qiymatlari jadval qiymatlaridan katta bo'lganligi bois model parametrlari adekvat, deb topiladi.

Yuqorida, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar soni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulotga nisbatan funksiya deb olinib, Microsoft Excel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzgan edik.

$$Y = -23080,6 + 0,839282 \times X_1 + 0,013278 \times X_2 + 0,532209 \times X_3 + 5,007641 \times X_4 + 0,001363 \times X_5$$



3.2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tarkibida sanoat ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi va bandlar sonining trend funksiyasi orqali aniqlangan prognoz ko'rsatkichlari¹²⁵

Endi yuqorida aniqlangan sifatida X_1 - sanoat, mlrd so'm, X_2 - qurilish, mlrd so'm, X_3 - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, mlrd so'm, X_4 -bandlar, ming kishi, X_5 -xizmatlar, mlrd so'm deb modelga kiritib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

¹²⁵ Muallif ishlanmasi.

subyektlari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning istiqbolli davr uchun qiymatlarini aniqlaymiz (3.2.2-rasm).

3.2.1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, prognozlash natijalariga ko‘ra, 2030-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan jami mahsulot hajmi 126367,5 mlrdso‘mni tashkil qiladi va ushbu miqdor 2022-yilga nisbatan 1,3 barobarga o‘shishi kutilmoqda. Tahlillar, kichik biznes subyektlari tomonidan yaratilgan jami mahsulotning qo‘shimcha o‘shish sur‘ati keyingi to‘qqiz yillik davrda barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishi va 2030-yilgacha yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 4,84 ($1,0484^9 = 1,53$) foizdan yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

3.3. O‘zbekistonda xususiy biznes va kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta‘minlashni takomillashtirish yo‘lida

Mamlakatimiz iqtisodiyoning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning o‘rni va ahamiyati katta. Buning uchun birinchi navbatda bu sohaning ham tarmoq, ham xususiy rivojlanishidagi mutanosiblikka erishish muhim.

Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining tarmoq aspekti sohada tarkibiy siljishlarga erishish, moliyaviy va mehnat resurslarini maqsadga muvofiq taqsimlash, ma‘muriy, meyoriy va moliyaviy vositalardan samarali foydalanishni tartibga solish va ular ustidan nazorat olib borish imkoniyatini beradi. Hududiy aspektni rivojlantirish esa mavjud mahalliy homashyo, mehnat va jamg‘armalardan to‘g‘ri va unimli foydalanishga olib keladi, bozor konyukturasi talablariga javob beradi.

Ikkinchidan, har ikki aspektda ham xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishda faoliyat turini tanlash erkinligini ta‘minlashning ahamiyati katta. Respublikamizda tadbirkorlik faoliyati turini tanlash erkinligi huquqiy jihatdan ta‘minlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasida ta‘kidlanishicha “Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalani

huquqiga egadir. Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o'tash tartibidan yoki qonunda ko'rsatilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi".¹²⁶

Shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining "Tadbirkorlik subyektlarining qonun hujjatlarida man etilmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish erkinligi kafolatlari" 19-moddasida "Yuridik shaxs bo'lmish tadbirkorlik faoliyati subyektlarining muassislari ta'sis hujjatlarida faoliyatning asosiy turlarini sanab o'tish bilan kifoyalanishga haqli. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari qo'nun hujjatlari bilan ta'qiqlanmagan va ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishlari mumkin"¹²⁷ deb ko'rsatilgan.

Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyati erkinligi faqatgina me'yoriy-huquqiy asoslardangina iborat bo'lmasligi kerak. Qonun-qoidalar, me'yoriy hujjatlar qog'ozda emas amalda ishlashi kerak. Buning uchun esa tadbirkor real sharoitga ega bo'lishi lozim. Har bir tadbirkor iqtisodiyotning qaysi tarmog'i yoki hududida bo'lishidan qat'i nazar xomashyo, tayor material va polufabrikantlarga, texnika va texnologiyalarga, ularni sotib olish manbaalariga va albatta ichki va tashqi bozorlarga erkin chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bizning sharoitimizda esa tadbirkor ishlab chiqarish vositalarini sotib olish va mahsulotlarini sotishda o'z bilganicha, o'z tavakkalchiligiga tayanib ish tutadi.

Unda bozor kon'yukturasi, tebranib turuvchi narxlar to'g'risida yetarli bilim va ma'lumotlar yetishmaydi. Eng asosiysi kichik biznes, o'rta va katta biznes bilan integratsiyalashmagan, ular bilan kamdan-kam holatlardagina kontrakt asosida ish olib boradi. Kichik biznes subyektlari o'rtasida ham integratsion aloqalar o'rnatilishi lozim.

Ayrim tovar va xizmatlarning iste'molchiga yetib bormayotganligining, ishlab chiqarishda past ixtisoslashishning sababi ham shunda.

¹²⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2012, 9-бет

¹²⁷ Ўзбекистон Республикасининг "Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида"ги Қонуни

Tadbirkorlik faoliyatining erkinligini ta'minlashning boshqa yo'nalishlari bo'lib xususiy mulkning ustuvorligi, muqaddasligi va daxlsizligi, iqtisodiyotda monopollashuv darajasini pasaytirish, davlatning iqtisodiyotga aralashuvini kamaytirish, tashqi iqtisodiy qaoliyat shaffofligini oshirish va boshqa tadbirlarning ahamiyati katta.

3.3.1-jadval

Erkin iqtisodiyot asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy erkinlikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkichning tavsifi	Iqtisodiyotning erkinlik darajasini izohlovchi belgilar
1.	Yalpi ichki mahsulotda xususiy sektorning ulushi	Miqdor	80-90 foiz
2.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va erkinligi	Sifat	Mustaqil erkinliklari kafolatlangan
3.	Ichki xo'jalik munosabatlari va ishlab chiqarishni boshqarishning bozor qoidalariga mosligi	Sifat	Bozor tamoyillariga asoslanadi
4.	Tadbirkorlar tomonidan bozor infratuzilmalari bilan ta'minlanganligi	Sifat	Xizmatlar to'liq ta'minlanadi
5.	Tadbirkorlik faoliyatining bozor infratuzilmalari bilan ta'minlanganligi	Sifat	Xizmatlar to'liq ta'minlanadi
6.	Resurslarga ega bo'lishda raqobatning amal qilish darajasi	Sifat	Sog'lom raqobat muhiti mavjud
7.	Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesda band bo'lganlar ulushi	Miqdor	65-70 foiz
8.	Xususiy tadbirkorlar va kichik biznes subyektlarining mamlakat eksportidagi ulushi	Miqdor	40-50 foiz
9.	Narxlarning shakllanishi	Sifat	Narx bozorda shakllanadi va bozor tomonidan tartibga solinadi
10.	Korxonalar tashkil etish, faoliyat turiga ruxsat berish	Sifat	Jarayon o'ta soddalashtirilgan
11.	Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Sifat	Moliyalash tizimi barqaror va kredit olish mexanizmi soddalashtirilgan

3.3.1-jadvaldan ko'rinadiki tadbirkorlik erkinligi ta'minlangan mamlakatlar bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib ulardi YIMda xususiy sektorning ulushi

80-90 foizga yetadi. Davlat sektorining ulushi esa minimumga tushirilgan. Ularda xususiy tadbirkorlik va kichik biznesda band bo'lganlarning ulushi 65-70 foizdan kam emas, xususiy tadbirkorlikning mamlakat eksportidagi ulushi 40-50 foizni tashkil etadi. Taqqoslash uchun bizning mamlakatimizda YIM kichik tadbirkorlikning ulushi 54,9 foiz, eksportda 22,3, importda 48,7 foizdan iborat¹²⁸.


Yana bir ahamiyatli tomoni erkin iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati bozor infratuzilmalari xizmatlari bilan to'liq ta'minlangan. Tadbirkorlar tomonidan pul mablag'lari erkin tasarruf etiladi, narx bozorda shakllanadi va bozor tomonidan tartibga solinadi. Davlat esa barchaga barobar "o'yin qoidalari"ni yaratish bilan shug'ullanadi.

Uchinchidan, tadbirkorning o'z biznes faoliyatini o'zgartirish erkinligiga erishish muhim ahamiyatga ega. Bizning amaliyotimizdagi muhim muammolardan biri ro'yxatdan o'tgan va real faoliyat olib borayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining bir-biriga to'g'ri kelmasligidir. Gap shundaki, bir qator kichik biznes subyektlari ro'yxatdan o'tganligi, ularning faoliyatiga start berilganiga qaramasdan bugun amalda ishlamaydi. Ularning ayrimlari bor kuch va imkoniyatini korxonaga ochishga sarflab bo'lgan, yoki arzon kredit olishga erisholmagan, yoki soliq hamda sanitariya qoidalarini qo'pol ravishda buzganligi uchun faoliyati to'xtatib qo'yilgan yoki xomashyoga chiqish imkoniyati yo'q. Bazilari esa o'z biznes sheriklarini yo'qotib qo'ygan. Ishlab chiqargan tovar va xizmatlari bozor uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Umuman olganda tadbirkorlik korxonalarining o'z faoliyatini tugatishi yoki o'z ixtisosligini o'zgartirishi tabiiy hol hisoblanadi. Masalan, AQShda bir yilda taxminan 1 mln korxonaga o'z faoliyatini to'xtatadi. Yana shuncha yangi kichik korxonaga o'z faoliyatini boshlaydi. Tadbirkorlik subyektining o'z faoliyatini tugatishi yoxud o'z faoliyatini o'zgartirishi asosan korxonani sotish mexanizmi orqali amalga oshiriladi.

¹²⁸ Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2021 года. Т.: Госкомстат, 2011, С 242.

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksida “Korxonani sotish” deb nomlangan bandi bo‘lib, unda korxonani sotish bilan bog‘liq huquqiy-me‘yoriy asoslar o‘z ifodasini topgan. Korxonani sotish shartnomasiga muvofiq sotuvchi sotib oluvchiga butun korxonani mulkiy yaxlit qilib topshirish majburiyatini oladi,¹²⁹ deb ko‘rsatilgan.

Iqtisodiyot fanlari nomzodi Q.B.Sharipov tadbirkorlik faoliyatini o‘zgartirishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini quyidagi sxema orqali ifodalashni taklif qiladi¹³⁰:



Ushbu sxema (rasm)dan kelib chiqadigan birinchi xulosa shundan iboratki, sotish orqali biznes faoliyatini o‘zgartirish davlat tomonidan tartibga solinadi. Chunki bu jarayonda zarur bo‘lgan me‘yoriy-huquqiy asoslar davlatning vazifasiga kiradi.


Ikkinchidan, bu jarayonning ishonchli va barqaror ta‘minlanishi uchun kafillik instituti, biznes banki va nomuvofiqlikni tartibga solish xizmatlarini tashkil qilish lozim bo‘ladi.

Uchinchidan, bu jarayonga muvofiq keladigan ixtisoslashgan infratuzilma xizmatlari vositalariga ehtiyoj tug‘iladi. Ular jumlasiga notarius va sug‘urta

¹²⁹ Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. Иккинчи қисм, 8§ (<https://www.1ex.uz>)

¹³⁰ Шарипов Қ.Б. Кичик тadbirkorlik faoliyatida тармоқ бўйича ихтисослашув жараёнларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PHD) диссерт.автореферати. – Т., 2020

faoliyatini hamda biznesni baholash guruhini kiritish mumkin. Ularning barchasi ixtisoslashgan vazifalarni bajaradi. Masalan, kafillik instituti huzurida oldi-sotdi jarayonida sotuvchi tomonidan olingan mablag‘ning ma‘lum qismi kafolat jamg‘armasiga kiritilib, muayyan muddat, ya‘ni yangi mulk egasi tijoratni boshlab, uning biron-bir kamchiliksiz amalga oshirilishiga ishonch hosil qilgunga qadar saqlanib qoladi. Mobodo ushbu muddat davomida zarar keltiruvchi holatlar aniqlangudek bo‘lsa, yangi mulkdorning e‘tirozlarini o‘rganish asosida, lozim bo‘lgan holatda zarar miqdori qoplab beriladi. Aks holda, muddat tugashi bilan mablag‘ korxonaga sotuvchisiga qaytarib beriladi. Sotish mo‘ljallangan kichik biznes faoliyati bankining vazifasi tadbirkorlik kapitalining to‘xtab qolish xavfining oldini olishdan iborat. Oldi-sotdi birdaniga amalga oshmasdan uzoq vaqt talab etishi mumkin. Bu esa tadbirkorlik kapitalining harakatsiz turib qolishiga olib keladi.



3.3.1-rasm. Innovatsion texnologiya va ishlanmalarni kichik korxonalarga joriy etishni ta‘minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish¹³¹.

¹³¹ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.
118

Kichik biznes rivojlanishida innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishni ta'minlashning navbatdagi muhim yo'nalishi – innovatsion texnologiya va ishlanmalarni kichik korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish hisoblanadi. Chunki, innovatsion jarayonlarni jadal tatbiq etishga ixtisoslashgan tuzilmalar ishtirokisiz mazkur faoliyat samadorligiga erishib bo'lmaydi. Bu borada dissertatsiya ishida muallif tomonidan bir qator chora-tadbirlar taklif etilib, ularni quyidagi chizma orqali tasvirlash mumkin (3.3.1-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, mazkur jarayonlarni mamlakatdagi innovatsiyalarni joriy etishga mas'ul idora va tashkilotlar, jumladan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Davlat patent idorasi va boshqalar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunda yuqorida qayd etilgan idoralar tomonidan xorijiy mamlakatlarda keng amaliy sinovdan o'tgan hamda mamlakatimizda qo'llanishi maqsadga muvofiq hisoblanuvchi kichik ko'lamdagi innovatsion texnologiya va ishlanmalar ajratib olinadi. Shundan so'ng har bir texnologiya va ishlanmani amaliyotga joriy etish bo'yicha aniq innovatsion loyihalar ishlab chiqiladi. Mazkur innovatsion loyihalarni kichik innovatsion korxonalariga joriy etishni ta'minlovchi innovatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yiladi. Bunday innovatsion markazlar faoliyatining tizimli asosda tashkil etilishi pirovardida mamlakatimizda innovatsion rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

Kichik korxonaning oldi-sotdisi murakkab bo'lib, bu jarayonda turli nomuvofiqliklar yuzaga kelishi oddiy hodisa hisoblanadi. Masalan, korxonaning mol-mulkining to'liq sotilmasligi, sotuvchining ayrim vakolat va huquqlarni o'zida saqlab qolishga intilishi muayyan shartlar asosida sotish va boshqa holatlarga duch kelishi mumkin. Bunday jarayonlarni oqilona muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan xizmatlar zarur bo'ladi.

Bu ishlarni boshqaradigan, tartibga soladigan va nazoratni amalga oshiradigan maxsus tarmoq davlat markazini tashkil qilish qiyin. Shuning uchun

bu vazifa davlat aktivlarini yuoshqarish qo‘mitasi, ayrim funksiyalar esa Davlat xizmatlari institutlari yoki ular bilan baqamti ishlashi mumkin bo‘lgan davlat xususiy sheriklik tuzilmasiga topshirilishi to‘g‘ri bo‘ladi. Nima bo‘lganda ham, ro‘yxatdan o‘tib yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining to‘xtab qolmasligi uchun biznes turini o‘zgartirish va biznesni o‘zaro almashtirish tizimi mavjud bo‘lishi zarur. Ushbu tizim pul iablag‘larini jalb qilishni kamaytirish, biznes faoliyatining barqarorligini, sotish va sotib olish xizmatlarini pasaytirish kabi qulayliklarni beradi.

Yuqorida taklif etilgan sxema (rasm) yana shunga undaydiki, biznes faoliyatini o‘zgartirish yoki almashtirish jarayoni ixtisoslashgan biznes infratuzilmani taqazo etadi. Chunki, biznes faoliyati uchun ma’lumotlar yig‘ish, ularni tizimga solib maqsadga muvofiq shakllantirish, xaridorlarni topish zarur. Almashuv jarayonining mutanosibligini ta’minlash maqsadida baholovchilar, bu jarayonni huquqiy rasmiylashtiruvchi notarius va munosabatlar bilan bog‘liq risklarni sug‘urtalash ishlarini yo‘lga qo‘yish kerak. Shuningdek biznesni o‘zgartirish va almashtirish bo‘yicha e’lonlar berish, birja savdolarini yo‘lga qo‘yish, platformalar yaratish, ekspertiza va auditorlik xulosalarini berish uchun tashkiliy-institutsional asoslar ham zarur.

Xususiy biznes va kichik tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlantirishda ish egalari duch keladigan muammolardan bir iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy axborotlarning yetishmasligidir. Ma’lumki, hozirgi kunda mamlakatimizning turli hududlarida o‘z boshlang‘ich kapitaliga ega bo‘lganlar ko‘p. Ammo ular o‘z kapitalini baholashga qiynaladi. Chunki, har bir tadbirkor imkon qadar yuqori daromad olishni xohlaydi. Lekin bu borada aniq va yetarli axborot olishning imkoni yo‘q. Tadbirkor tomonidan muayyan tarmoq yoki iqtisodiy faoliyat turlari, ulardagi muayyan mahsulot (ish, xizmat) bo‘yicha iqtisodiy va moliyaviy ko‘rsatkichlar, jumladan, ishlab chiqarish xarajatlari va tannarx, ularning tarkibiga kiruvchi resurslar narxi, rentabellik darajasi va boshqa ma’lumotlarni olish imkoniyati mavjud emas. Bu esa ularning o‘z biznes

faoliyat yo‘nalishlarini tanlash imkoniyatlarini cheklaydi. Tadbirkorlik kapitalining maqsadga muvofiq, joylashuvi va ishga tushirilishiga to‘sqinlik qiladi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Tahlillar innovatsion rivojlanish omillarining ijobiy ta‘siri natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq tarkibida jiddiy siljishlar ro‘y berayotganligin ko‘rsatmoqda. Jumladan, sohada yaratilgan yalpi mahsulot hajmiga sanoat tarmog‘ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi salmoqli hissa qo‘shmoqda. Tahlillarga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot hajmini o‘shishiga sanoat ishlab chiqarish hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, yalpi mahsulot hajmining 0,839282 mlrd so‘mga, qurilish ishlari hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, yalpi mahsulot hajmining 0,013278 mlrd so‘mga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida mahsulot hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi, yalpi mahsulot hajmining 0,532209 mlrd so‘mga, xizmatlar hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi esa yalpi mahsulot hajmining 0,001363 mlrd so‘mga o‘shishi olib kelar ekan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo‘lganlar sonining har 1 ming kishiga ko‘payishi sohada yaratilgan mahsulot hajmining 5,007641 mlrd so‘mga o‘shishiga sabab bo‘lmoqda.

Prognozlar ko‘rsatishicha, yalpi ichki mahsulotning qo‘shimcha o‘shishi 2030-yilgacha barqaror sur‘atlarda ro‘y berishi va yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 4,84 (1,0484⁹ = 1,53) foizdan yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining 1 mlrd so‘mga o‘shishi yalpi ichki mahsulot hajmining 0,867622 mlrd so‘mga o‘shishiga, asosiy kapitalga sarflangan

investitsiyalar hajmining 1 mlrd soʻmga oʻsishi yalpi ichki mahsulot hajmini 0,844981 mlrd soʻmga oʻsishiga oʻsishiga olib kelar ekan.

Hisob-kitoblar koʻrsatishicha, yalpi ichki mahsulotning oʻsish surʼati prognoz qilinayotgan yillarda barqaror oʻsish tendensiyasiga ega boʻladi va 2030-yilgacha oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 2,8 ($1,028^9 = 1,3$) foizdan yuqori boʻlishi kutilmoqda.

Xulosa va takliflar

Mazkur tadqiqot ishi mavzusiga oid nazariy va amaliy adabiyotlarni o‘rganish, amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar quyidagi xulosalar olish imkonini berdi:

1. “Tadbirkorlik” tushunchasining mohiyatini yoritib berishga xizmat qiluvchi iqtisodiy qarashlar evolyutsiyasi tahlili ushbu qarashlarni quyidagicha guruhlash imkonini beradi. Birinchi guruh – tadbirkorlik subyekt tasarrufida mavjud resurslardan maksimal daromad olishga qaratilgan klassik tadbirkorlik (an’anaviy, sermahsul, eskirib qolgan). Tadbirkorlikning aynan klassik modelida ishlab chiqarishning o‘shish konsepsiyasi shakllantiriladi, uning amaliyotga tatbiq etilishi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Ikkinchi guruh – rivojlanishning yangi yo‘llarini nazarda tutuvchi, innovatsiyalar yoki o‘shish konsepsiyasi haqida fikr yuritishga imkon beruvchi innovatsion tadbirkorlikdir. Innovatsion tadbirkorlik butunlay innovatsiyaga asoslangan, shuning uchun bunday faoliyat natijasi yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo‘lishi mumkin.

2. Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy kategoriya sifatida “xo‘jalik yuritish usuli sifatida tadbirkorning tashkilotchilik xususiyatlari bilan bog‘liq holda korxonalar faoliyatiga yangiliklarni joriy etish orqali ishlab chiqarish omillarining o‘zaro maqbul kombinatsiyasini qo‘llash yordamida yuqori daromadga ega bo‘lishga qaratilgan tashabbusli, innovatsion faoliyat turidir”.

3. Kichik innovatsion biznes – bu iqtisodiy kategoriya sifatida zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida yangicha shaklda xo‘jalik faoliyati yuritayotgan, mustaqil hisoblangan, o‘ta moslashuvchan kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanib, ularning ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishdagi intilishining yuqoriligi va bu boradagi axborotlar bilan to‘liq tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan, innovatsiyalarni o‘zlashtiruvchi va ixtiro qiluvchi iqtisodiy subyektlari hisoblanadi.

4. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning huquqiy-institutsional asoslarini tahlil etish ushbu jarayonlarni shartli to'rtta bosqichga bo'lish imkonini berdi. Birinchi bosqichda kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlanirishning huquqiy-institutsional asoslari yaratilgan bo'lsa, ikkinchi bosqich milliy iqtisodiyotni import o'rnini qoplashni kengaytirish hisobiga rivojlantirish, kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga davlat aralashuvining faollashuvi bilan ajralib turadi. Uchinchi bosqich iqtisodiyotni chuqur modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish jarayonlarining kichik korxonalar faoliyatiga ijobiy ta'siri sifatida baholansa, to'rtinchi bosqich kichik biznes sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini yanada erkinlashtirish, innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish.

5. O'zbekistonda korxonalar innovatsion faoliyatiga nisbatan kam urg'u berayotganini hisobga olib davlat xususiy sektorni innovatsiyalarni amalga oshirish uchun rag'batlantirishni boshlashi zarur. Bu korxonalarining eksport faoliyatini yoki ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni rag'batlantirish (energiya tejash, mehnat unumdorligi, suvni tejash, kapital samaradorligi va boshqalar) chora-tadbirlarini o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, firmalarning hajmi va yoshini oshirishni rag'batlantiradigan qo'shimcha mexanizmlarni yaratish lozim, chunki u innovatsiyalarga sarmoya kiritish uchun zarur resurslarga faqat tajribali va yirik firmalar ega bo'ladi.

6. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Tahlillar, innovatsion rivojlanish omillarining ijobiy ta'siri natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoq tarkibida jiddiy siljishlar ro'y berayotganligini ko'rsatmoqda. Jumladan, sohada yaratilgan yalpi mahsulot hajmiga sanoat tarmog'ida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi salmoqli hissa qo'shmoqda. Tahlillar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot hajmini o'sishiga sanoat ishlab chiqarish hajmining 1 mlrd so'mga

o'sishi, yalpi mahsulot hajmining 0,839282 mlrd so'mga, qurilish ishlari hajmining 1 mlrd so'mga o'sishi, yalpi mahsulot hajmining 0,013278 mlrd so'mga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida mahsulot hajmining 1 mlrd so'mga o'sishi, yalpi mahsulot hajmining 0,532209 mlrd so'mga, xizmatlar hajmining 1 mlrd so'mga o'sishi esa yalpi mahsulot hajmining 0,001363 mlrd so'mga o'sishiga olib kelar ekan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar sonining har 1 ming kishiga ko'payishi sohada yaratilgan mahsulot hajmining 5,007641 mlrd so'mga o'sishiga sabab bo'lmoqda.

7. Prognozlar ko'rsatishicha, yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sishi 2030-yilgacha barqaror sur'atlarda ro'y berishi va yillik o'rtacha o'sish sur'ati 4,84 ($1,0484^9 = 1,53$) foizdan yuqori bo'lishi kutilmoqda.

8. Tahlillarga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan mahsulot hajmining 1 mlrd o'sishi asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar hajmining 1 mlrd so'mga o'sishi yalpi ichki mahsulot hajmini 0,844981 mlrd so'mga o'sishiga o'olib kelar ekan.

9. Hisob-kitoblar ko'rsatishicha, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati prognoz qilinayotgan yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi va 2030-yilgacha o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,8 ($1,028^9 = 1,3$) foizdan yuqori bo'lishi kutilmoqda.

Tadqiqotlar natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirish nuqtayi nazaridan quyidagi ilmiy tavsiya va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining mintaqaviy jihatlarini tahlil qilish quyidagi muammolarni hal etishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi:

- mintaqalar bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi darajasi o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirish;
- mintaqalarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlarning malakasini oshirish va boshqalar.

2. Ushbu muammolarni ijobiy hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini mintaqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish;

- iqtisodiy jihatdan nisbatan past rivojlangan qishloq aholi punktlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun soliq va boshqa imtiyozlarni joriy etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlarni tashqi bozorlarda faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirish choralari ko'rish;

- bozor infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarda yirik shaharlarda faoliyat yurituvchi bozor infratuzilmasi subyektlarining filiallarini tashkil etishni rag'batlantirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar malakasini oshirish maqsadida biznes-maktablar, kasbiy mahorat treninglar tarmog'ini kengaytirish, shuningdek, rivojlangan davlatlar tadbirkorlari bilan onlayn aloqalarni yo'lga qo'yish;

- kichik korxonalarining xomashyo, asbob-uskuna, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo.

3. Tahlillar kichik tadbirkorlik subyektlari innovatsion faolligini oshirish bilan bog'liq quyidagi muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda:

innovatsiyalarga talabning pastligi tufayli innovatsion faoliyatni amalga oshirish zaruriyatining yuqori emasligi;

innovatsion g'oyalarning yetishmasligi va iste'molchilar to'g'risida axborotning kamligi;

yangicha fikrlaydigan, malakali kadrlarning yetishmasligi, innovatsion menejment va marketingning rivojlanmaganligi;

innovatsiya sohasida ilm-fan va biznes hamkorligining sust yo'lga qo'yilganligi;

kichik tadbirkorlik subyektlarining yoshi (aksariyat kichik tadbirkorlik subyektlari soliq va boshqa imtiyozlar davri (3-4 yil) tugagandan so'ng o'z faoliyatlarini to'xtatib qo'yimoqda);

kichik tadbirkorlik subyektlariga o'z mablag'larining yetishmasligi;
yangiliklarni amaliyotga joriy etish qiymatining yuqoriligi va iqtisodiy risklar;

davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash miqyosining yetarli emasligi.

4. Fikrimizcha, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlari shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni tijoratlashtirishga yo'naltirilgan investitsiyalar oqimini shakllantirish;

– tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga maksimal darajada ta'sirchanligini ta'minlaydigan sharoitlarni (soliq rejimi, bojxona siyosati, shu jumladan qulay investitsiya muhitini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni) yaratish;

– tadbirkorlik faoliyatining innovatsion siklidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan amaliy va fundamental tadqiqotlar tolib borish;

– ilg'or texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi mavjud vaziyatni tubdan o'zgartirish zaruriyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion infratuzilmalar faoliyatini shakllantirish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va me‘yoriy-huquqiy hujjatlari

1.1. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari

1.1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.: “Ўзбекистон”, 2012.

1.1.2. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида”ги 2014 йил 7 апрелдаги ПФ-4609-сонли Қонуни

1.1.3. Ўзбекистон Республикасининг “Хусусий мулкни ҳимоя қилиш ва мулкдорлар ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги қонуни

1.1.4. Ўзбекистон Республикасининг “Тадбиркорлик фаолияти соҳасидаги рухсат бериш тартиб-таомиллари тўғрисида”ги қонуни

1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari

1.2.1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 2017 йил 7 февраль, ПФ-4947-сон Фармони.

1.2.2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида» 2019 йил 17 январдаги ПФ-5635-сон Фармони.

1.2.3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2018 йил 20 октябрдаги 841-сон Қарори.

1.2.4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони.

1.2.5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 4 апрелдаги «Тадбиркорлик субъектларини текширишларни янада қисқартириш ва улар фаолиятини назорат қилишни ташкил этиш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПФ-4296-сон Фармони.

1.2.6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 июндаги ““Ҳар бир оила – тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги ПҚ-3777-сонли Қарори

1.2.7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги ПФ-5978-сонли “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma’ruzalari

2.1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. –Тошкент, 2016. 56-б.

2.2. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак.– Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.

2.3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.–Т.: Ўзбекистон, 2017. 488-б.

2.4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: “Ўзбекистон”, НМИУ, 2019. – 64 б.

2.5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. 138-бет.

3. Kitob va turkum nashrlar

3.1. Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plami

a) bir muallif

3.1.1. Гончаренко Л.П. Инновационная политика: учебник для бакалавриата и магистратуры / под ред. Л. П. Гончаренко. — М.: Издательство Юрайт, 2014. — 502 с.

3.1.2. Кошелева Т.Н. Стратегическое развитие инновационных венчурных предприятий. СПб.: ГУАП, 2009. 236 с.

3.1.3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатство народов (Книга1-III). - М.:”Наука”,192. -С. 174, 176.

3.1.4. Сэй Ж.Б. Трактат и политической экономии. – М.: Экономика. 1980. –С. 17.

3.1.5. Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: Прогресс.1985. – С.178-180.

3.1.6. Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992.

3.1.7. Эшов М.П. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг ривожланиши: омиллар, натижалар ва истиқболлар. Монография. –Т.: «Маънавият», 2017. 7-б.

3.1.8. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Дарслик.–Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. –178 бет.

b) ikki muallif

3.2.1. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. - 349 б.

3.2.3. Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.

3.2.4. Васюхин О.В., Павлова Е.А. Развитие инновационного потенциала промышленного предприятия. –М., 2010.

3.2.5. Жўраев Т.Т., Каландаров Р.А. Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш орқали иқтисодийнинг реал секторини инновацион тараққиётини таъминлаш. Илмий-оммабоп рисола.- Т., 2019 йил., 52 б.

3.2.6. Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.

3.2.7. Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство//Вып.1. – М.: 1991
Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992

v) mualliflar jamoasi

3.2.1. Абдуллаев Ё., Каримов Ф. Кичик бизнес ва тадбиркорлик асослари. – Т.: Меҳнат, 2010. - 349 б.

3.2.3. Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.

3.2.4. Васюхин О.В., Павлова Е.А. Развитие инновационного потенциала промышленного предприятия. –М., 2010.

3.2.5. Жўраев Т.Т., Каландаров Р.А. Кичик бизнес ва тадбиркорликни ривожлантириш орқали иқтисодийнинг реал секторини инновацион тараққиётини таъминлаш. Илмий-оммабоп рисола.- Т., 2019 йил., 52 б.

3.2.6. Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.

3.2.7. Хизрич Р. Питерс М. Предпринимательство//Вып.1. – М.: 1991
Друкер П. Рынок: как выйти в диллеры. Практика и принципы. - М.: 1992

4. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

4.1. Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамоиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш, иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Т.: 2016 й.

4.2. Абдурахмонова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамайиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.

4.3. Бакиева И.А. Развития малого бизнеса и частного предпринимательства в легкой промышленности Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Т.: 2012.

4.4. Бобоев А.Ч. Тадбиркорлик фаолияти ривожланишининг назарий жиҳатлари ва устивор йўналишлари, - иқтисодиёт фанлари номзоди даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Т.:2012, 7-бет

4.5. Курбонов А.Б. Агросаноат мажмуида кичик тадбиркорликни ривожлантириш йўналишлари, иқтисодиёт фанлари номзоди даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати, Т.: 2010.

4.6. Кракович В.В. Интегрированное управление ресурсами малого инновационного предприятия в условиях экономической неопределенности: Диссертация кандидата экон. наук. – Санкт-Петербург, 2018.

4.7. Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Дис. ... и.ф.д. – Т. 2016.

4.8. Нестеренко Ю.Н. Развитие малых инновационных предприятий промышленности России: Автореферат диссертации д-ра экон. наук. – М.: 2008.

4.9. Савельева И.Н. Развитие малого инновационного предпринимательства в промышленности: Автореферат диссертации кандидата экон. наук. – Екатеринбург, 2011.

4.10. Синдаров Ш.Э. Экономический механизм использования инновационных процессов в предпринимательской деятельности Республики Узбекистан. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Т.: 2010. С. 7.

4.11. Шарипов Қ.Б. Кичик тадбиркорлик фаолиятида тармоқ бўйича ихтисослашув жараёнларини такомиллаштириш. Иқтисодийёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Т.: 2020. 61 б.

4.12. Юлдашев Д.Т. Оилавий тадбиркорликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Дис ... и.ф. бўйича фалсафа доктори (PhD). – Т., 2019.

5. Journallardagi maqolalarga havolalar

5.1. Ademola, O.J. (2014). Working capital management and profitability of selected quoted food and beverages manufacturing firms in Nigeria. *European Journal of Accounting Auditing and Finance Research*, 2(3). 10-21.

5.2. Adele Oosthuizen, Jurie Van Vuuren, Melodi Botha. Compliance or management: The benefits that small business owners gain from frequently sourcing accounting services. *The Southern African Journal of Entrepreneurship and Small Business Management*. Vol 12, No 1 DOI: <https://doi.org/10.4102/sajesbm.v12i1.330>

5.3. Buculescu M.M. (2013) Harmonization process in defining small and medium-sized enterprises. Arguments for a quantitative definition versus a qualitative one [Process armonizacii pri opredelenii malyh i srednih predpriyatij. Argumenty v pol'zu kolichestvennogo opredeleniya protiv kachestvennogo]. *Teoreticheskaya i Prikladnaya ekonomika (Theoretical and Applied Economics)*, 2013, no. 9, pp. 103–114.

5.4. Boso, N., Danso, C., Leonidou, A., Uddin, M. Does financial resource slack drive sustainability expenditure in developing economy small and medium-sized enterprises? *Journal of Business Research*. Volume 80, November 2017, Pages 247256

5.6. Dobes, V., Fresner, J., Krenn, C., Rinaldi, C., Cortesi, S., et al. Analysis and exploitation of resource efficiency potentials in industrial small and medium-

sized enterprises – Experiences with the EDIT Value Tool in Central Europe. Journal of Cleaner Production. Volume 159, 15 August 2017, Pages 290-300

5.7. Franz Kellermanns, Jorge Walter, T. Russell Crook, Benedict Kemmerer & Vadake Narayanan (2016) The Resource-Based View in Entrepreneurship: A Content-Analytical Comparison of Researchers' and Entrepreneurs' Views, Journal of Small Business Management, 54:1, 26-48.

5.8. Human Resource Strategies and Sustainability in Small Businesses by Christopher M. Rice Doctoral Study Submitted in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Doctor of Business Administration Walden University December 2018

5.9. Mickiewicz, T., Nyakudya, F.W., Theodorakopoulos, N. et al. Resource endowment and opportunity cost effects along the stages of entrepreneurship. Small Bus Econ 48, 953–976 (2017).

5.10. Rawhouser, H., Villanueva, J., Newbert, S.L. Strategies and Tools for Entrepreneurial Resource Access: A Cross-disciplinary Review and Typology. International Journal of Management Reviews. Apr 21, 2016

Арипов О.А. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш ҳамда ишбилармонлик муҳитини яратиш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2019 йил

5.11. Артемов А.В. Малый и средний бизнес: понятие, критерии, категории субъектов, место и роль в рыночном хозяйстве // Социально-политические науки. 2016. № 2. С. 44–49.

5.12. Болтаев Ш.Ш, Рахматов А.А. Тадбиркорликни инновацион ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил

5.13. Бородкина, В.В. и др. Государственная поддержка субъектов малого и среднего бизнеса северных стран: Канада, США, Финляндия, Швеция // Российское предпринимательство. – 2015. – 16(21). – С. 3743–3764.

5.14. Брицьева М. Малое предпринимательство как экономическая категория. // Экономика и общество. 1999, №8

5.15. Власов М. В. Политика инновационного поведения малых и средних предприятий старопромышленного региона. Экономика региона, Т.16, вып. 4 (2020). С. 1336.

5.16. Гасанов Э.А. Инновационный вектор развития информационной экономики // Инновации. 2014. № 5. С. 10–14.

5.17. Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса – <https://www.rier.ru>

5.18. Данильченко, Т.С. Инструменты государственной политики в продвижении интересов малого и среднего бизнеса в Германии // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2016. – № 6-4. – С. 732–737.

5.19. Захарова Ю.В., Купцов А.В., Кулыгина Е.Н. Анализ реализации инновационной деятельности в Нижегородской области // Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 8. – с. 188-190.

5.20. Кокин А.С., Суевалова М.А. Анализ развития инновационного малого бизнеса в рамках национальных инновационных систем зарубежных стран – <https://www.cyberleninka.ru>

5.21. Королев В.И., Королева Е.Н. Инновационный потенциал: содержание, организационные формы его реализации российскими и зарубежными компаниями // Российский внешнеэкономический вестник. 2014. №5. С.41

5.22. Кох Л.В. Трансформация сущности предпринимательства // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. 2011. № 1. С. 44–51.

5.23. Курманбаева Ф., Пугач И., Абдуллаев Р. и др. Малый и средний бизнес в Узбекистане: современное состояние, проблемы и перспективы. Экономическое обозрение. №3 (13) июнь 2000.

5.24. МИП своими руками: как идею превратить в бизнес // Сайт СпбГУ. URL: <https://spbu.ru/news-events/krupnym-planom/mip-svoimi-rukami-kakideyu-prevratit-v-biznes>;

5.25. Мукосеев Д.В. Экономическая сущность и критерии определения малого предпринимательства // Современные научные исследования и инновации. 2012. № 5. URL: <http://web.snauka.ru/issues/2012/05/11995>

5.26. Нестеров А.К. Инновационное предпринимательство // Энциклопедия Нестеровых - <http://odiplom.ru/lab/innovacionnoe-predprinimatelstvo.html>

5.27. Ногин В.А., Хоменко Я.В. Зарубежный опыт инновационной деятельности малых и средних предприятий. – <https://www.uecs.ru>

5.28. Основные направления политики администрации США в сфере малого и среднего бизнеса – <https://rustradeusa.org/Attach-ment.aspx?id=319>

5.29. Парфенова С.Л., Грибовский А.В. Подход к оценке эффективности государственной поддержки малых инновационных предприятий в России // Наука. Инновации. Образование, 2016. – № 4.

5.30. Поддержка МСП в контексте COVID-19 [Электрон ресурс] // Счетная палата Российской Федерации. – Режим доступа: <https://ach.gov.ru/upload/pdf/Covid-19-SME.pdf>

5.31. Смагулова Ж.Б., Бисенова Р.А., Айдосова Б.Х. Роль малых инновационных предприятий в современной экономике // Современные наукоемкие технологии. 2014. № 12–2. С. 213–216.

5.32. Смирнова И.Ю. Теоретические подходы к трактовке малого бизнеса и малого предпринимательства // Экономика строительства и природопользования. 2017. № 2. С. 82–86.

5.33. Смицких К.В. Теоретические основы образования и тенденции развития малых инновационных предприятий в Дальневосточном экономическом регионе // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. № 9. С. 693–697.

5.34. Соменкова Н.С. Совершенствование методики оценки эффективности инновационного развития предприятия // Российское предпринимательство, 2017. – № 6. – doi: 10.18334/rp.18.6.37657.

5.35. Счастливая Н.В. Малый инновационный бизнес в экономике высокоразвитых стран – <https://www.vestnik.osu.ru>;

5.36. Тўрабеков С.Ш., Мухаммедов М.М. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятини ривожлантириш истиқболлари // Иқтисод ва молия. 2016, №2. 33-38-б.

5.37. Шпалтаков В.П. Шумпетер о проблемах инновационного развития // Инновационная экономика и общество. 2017. № 2. С. 25–34.

5.38. Червова, Л.Г., Бачурин, А.А. Зарубежный опыт регулирования развития предпринимательской деятельности // Вестник Института экономических исследований. – 2017. – № 2(6). – С. 17–24.

5.39. Юдин Н.С. К вопросу о качественных критериях идентификации малого предпринимательства // Социально-экономические явления и процессы. 2014. № 9. С. 104–112.

5.40. Яшин С.Н., Амбацумян А.Э., Кулыгина Е.Н. Некоторые подходы к оценке эффективности инновационных разработок промышленных предприятий Нижегородской области // Экономика и предпринимательство. – 2015. – № 6-1. – с. 363-366.

5.41. Яшин С.Н., Солдатова Ю.С. Оценка устойчивости инновационного развития предприятий // Финансы и кредит. – 2012. – № 32. – с. 9-17.

6. Simpozium va konferensiya nashrlariga havolalar

6.1. Nallari, R., et al. (2010). A Primer on Policies for Jobs. The World Bank.

6.2. José Santisteban and David Mauricio. Critical success factors for technology-based startups. The Authors(s) 2020. Published by Inderscience Publishers Ltd. This is an Open Access Article distributed under the CC BY license. (<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>)

7. Statistik ma'lumotlar

7.1. Small Business Trade Hearing Wash. 2013. P.190

7.2. Free Small Business Advice – <https://www.sore.org>

8. Internet manbalari

www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали.

www.lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси портали

<https://www.eg-online.ru/print/news/419750/>

<https://issek.hse.ru/news/392498475.html>

<https://review.uz/oz/post/innovacionnaya-aktivnost-kompaniy-v-uzbekistane>

<https://www.clustercollaboration.eu/achievements/spain-learnings-and-opportunities-covid-19-crisis>

<http://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/coronavirus-covid-19-sme-policy-responses04440101/#section-d1e167>

<https://spravochnick.ru/predprinim...>

<https://translate.academic.ru/малое%20инновационное%20предприятие/ru/xx/>